

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA  
VA  
TARAQQIYOT***

*Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy*  
***JURNAL***

**2023-yil 11-son**

**Urganch-2023**

**Bosh muharrir:**

*M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Mas’ul kotib:**

*U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir hay’ati:**

*Z.Do’simov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*G.U.Pardayev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*A.D.O’razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*D.Q.G’ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*D.I.Yo’ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, (PhD).*

*E.Ro’ziyev – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*D.A.O’razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.*

*I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.*

*M.J.Jumaniyazov – Texnika fanlari doktori, professor.*

*S.R.Davletov – Tarix fanlari doktori, professor.*

*O’I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.*

*G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.*

*Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.*

*I.S.Yusupov – Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.*

*M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.*

*B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).*

*R.Y.Ro’ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).*

*B.Rasulov – Tarix fanlari doktori, dotsent (AnDPI rektori).*

*Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).*

*H.H.Tadjiev – Turkologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog’iston).*

*J.R.Yarmetov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.*

*D.Y.Batirov – Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.*

*J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*B.B.Nurullayeva – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*M.S.Abdullayev – San’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).*

**ISSN 3030-3206**

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.  
№11 (6), Urganch innovatsion universiteti, 2023-yil.

## MUNDARIJA:

### TARIX

|   |    |
|---|----|
| <b>R. ABDRIMOV.</b> Antropologiya fani va unda Telman Xo‘jayevning tutgan o‘rni. ....                                   | 4  |
| <b>A.YUSUPOV.</b> Orolbo‘yi sak qabilalari diniy qarashlari va e‘tiqodlari. ....  | 8  |
| <b>U.ABDALOV.</b> Xorazmning sharqiy Yevropa halqlari bilan savdo aloqalarining o‘ziga xos hususiyatlari. ....          | 14 |
| <b>J.ABDUKARIMOV.</b> Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati va faoliyati shahobiddin an-nasaviy va juvayniy talqinida . .... | 21 |
| <b>A.ULVIYU, U.BEKMUHAMMAD.</b> Ziyo Bunyodov va Xorazm tarixi. ..  | 28 |
| <b>H. YUSUPOV .</b> Xiva madrasalarida boshqaruv tizimi .....   | 39 |
| <b>U. TAJIYEVA.</b> Xiva xonligida atrof-muhit muhofazasiga oid ba’zi masalalar. ....                                   | 43 |
| <b>G. IBRAXIMOVA .</b> Vazir shahrining tarixiy jarayonlardagi mavqei . ....  | 46 |
| <b>S. MATYAKUBOVA.</b> Bayoniyning tarixiy asarlarida aks etgan tarix. ....   | 50 |

### FILOLOGIYA

|  |    |
|--|----|
| <b>M. MATYAKUBOVA.</b> Badiiy adabiyotda Sulton Jaloliddin Manguberdi timsoli . .... | 54 |
| <b>J. JOVLIYEV.</b> “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasining matniy-qiyosiy tadqiqi. .       | 61 |
| <b>Z.SHUKUROVA, A. Aral.</b> Mumtoz arab adabiyotida bayozlarning o‘rni .            | 69 |
| <b>G.KAZAKOVA.</b> Qat’iy so‘z va “temir intizom” egasi. ....                        | 72 |

### PSIXOLOGIYA

|  |    |
|--|----|
| <b>M.MUSTAFAYEVA.</b> O‘smirlarda aleksitimiya namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari. ....   | 77 |
| <b>S.ISMOILOV, Sh.ISKANDAROVA.</b> Rahbarlarda emotsional zo‘riqishning o‘rganilishi tarixi. ....  | 82 |
| <b>Y. JUMANIYOZOV, O. SOLAEV.</b> Rahbar faoliyatida foydalanadigan koping strategiyalar namoyon bo‘lishining nazariy metodologik asoslari. .... | 86 |

### PEDAGOGIKA

|   |    |
|---|----|
| <b>Sh.ISMOILOVA.</b> Oilada bola tarbiyasini boshlashning ijtimoiy omillari. .. | 90 |
|---|----|

**TARIX****ANTROPOLOGIYA FANI VA UNDA  
TELMAN XO‘JAYEVNING TUTGAN O‘RNI****UO‘K 570.520****Razzoqberdi  
ABDRIMOV****Urganch  
innovatsion  
universiteti dotsenti,  
tarix fanlari  
nomzodi.**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada antropologiya fani va uni rivojlanish bosqichlari, shuningdek, ushbu fan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan Telman Xo‘jayevning faoliyati yoritilgan.

**Аннотация:** в статье описывается наука антропология и этапы ее развития, а также работы Тельмана Ходжаева, внесшего вклад в развитие этой науки..

**Annotation:** this article describes the science of anthropology and the stages of its development, as well as the work of Telman Khojayev, who contributed to the development of this science.

**Kalit so‘zlar:** antropologiya, fan, tarix, irqshunoslik, morfologisi; antropogenez.

**Ключевые слова:** антропология, наука, история, этнология, морфология; антропогенез.

**The keywords:** anthropology, science, history, ethnology, morphology; anthropogenesis.


Antropologiya – odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, yer yuzida odamzod irqqlarining paydo bo‘lishi, odamning tana tuzilishidagi normal farqtafovut, o‘zgaruvchanlik haqidagi fan bo‘lib, antropologiya ijtimoiy fanlarga juda yaqin turadigan biologiya sohasi hisoblanadi.

“Antropologiyaga doir fikrlar bundan bir necha ming yil ilgari paydo bo‘lganiga qaramay, u fan sifatida faqat 19-asrning 2-yarmidan shakllana boshladi. Antropologiyaning muhim sohasi – odam organizmining tuzilishi va rivojlanishiga ta’sir qiladigan fiziologik, biokimyoviy va genetik omillarni o‘rganadigan bo‘limi – “Odam biologiyasi” degan umumiy nom bilan 20-asr o‘rtalaridan boshlab rivojlandi” [1].

Tarixdan ma’lumki, odam paydo bo‘lgandan to hozirgi holatigacha uning butun hayoti ijtimoiy jamiyatning rivojlanish konuniyati bilan chambarchas bog‘langan. “Antropologiyaning fan bo‘lib rivojlanishida tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi fanlar o‘ziga xos katta va ijobiy rol o‘ynadi. Zamonaviy fan nuqtayi nazaridan aytganda, antropologiya quyidagi uchta katta bo‘limdan iborat: 1) odam morfologisi; 2) antropogenez; 3) irqshunoslik (etnik antropologiya)” [2].

Morfologiya odamning jismoniy tuzilishidagi belgilarning yosh, jins, kasb va tashqi sharoitga qarab o‘zgarishini tushuntirib beradi. Irqshunoslik odamzod


irqlarining kelib chiqish davri va sabablarini, ularning Yer yuziga tarqalishini izohlab, etnogenez muammolarini yechishga ham o‘z hissasini qo‘shadi. Antropologiya o‘zining turlicha tekshirish usullariga (antropometriya, osteometriya, kraniometriya) va ko‘p xil asboblariga ega.



“Antropologiya biologiya fanining faqat nazariy sohasi bo‘libgina qolmay, amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan sohasi hamdir. Uning dalillaridan ko‘p sohalarda, jumladan, tibbiyotning har xil sohalarida (masalan, odamning jismoniy o‘rishini o‘rganishda), shuningdek, sud ekspertizasida foydalaniladi” [3].

Ma‘lumki, O‘rta Osiyo o‘zining geografik o‘rniga ko‘ra uzoq o‘tmishda murakkab irqiy va etnik jarayonlarni boshidan kechirgan, shuningdek, qo‘shni xalqlarning ham tarixiy taqdirini belgilab berishda katta rol o‘ynagan. Bu o‘lka, xususan, O‘zbekiston xalqlarini antropologik jihatdan o‘rganish 20-yillarda rivojlandi. Bu ishda O‘rta Osiyo davlat universiteti antropologiya kafedrasi asoschisi va doimiy rahbari L.V.Oshaninining xizmati katta bo‘ldi. Uning rahbarligida Turkiston bo‘ylab 29 ta antropologik ekspeditsiyalar uyushtirildi. L.V.Oshanin va uning shogirdlari (V.Y.Zezenkova, Q.N.Najimov)ning sa‘y-harakatlari natijasida Turkiston antropologik jihatidan 3 viloyatga ajratildi. Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida yashovchi o‘zbeklar va tojiklar yer yuzidagi mavjud uchta irqning (yevropeoid, negroid va mongloid) biri – yevropeoid irqining “O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i tipi”ga mansub deb topildi. Moskvalik antropolog A.I.Yarxo “bu – irqiy “Pomir-Farg‘ona tili” deb atadi. Farg‘ona

vodiysidagi Selung‘ur va Surxondaryodagi Teshiktosh g‘orlaridan topilgan qadimiy ajdodlarimiz qoldiqlari tufayli O‘zbekiston Afrika va Old Osiyo hududlari bilan bir qatorda, hozirgi zamon odamlarining paydo bo‘lishi jarayoni yuz bergan hududlar tarkibiga kiritildi va bu xulosa fanda uzil-kesil isbotlangan. O‘zbek xalqiga xos “O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i tilining shakllanish davri, makoni va tarixi masalalarida fanda yaqingacha yagona fikr yo‘q edi. Bir guruh olimlar bu irqiy tip bundan 6-8 ming yil ilgari shakllandi desa, boshqa bir guruh mutaxassislar bu voqea bundan 3 ming yil ilgari sodir bo‘ldi deyishdi. Uchinchi guruh olimlari esa uni 16-asrda shakllandi deb hisoblar edilar. O‘zbek antropologlari (Telman Xo‘jayov)ning uzoq yillik izlanishlari natijasida juda boy antropologik materiallar asosida bu tip bundan 2200-2300 yil ilgari shakllana boshlaganligini isbotladilar.



Ma‘lumki, “Tarixiy antropologiya fani – Yangi tarixiy fanlar sirasiga kiradi. Bu fan bir qator metodlarni o‘z ichiga olib, insonning uning barcha vujudga kelgan formalarini, uning aniq makon va zamonda mavjud bo‘lganligini, insonning ijtimoiy munosabatlardagi o‘zaro aloqalarining barcha jihatlarini o‘rganadi. Tarixiy antropologiya fanining ayrim tadqiqot yo‘nalishlarining o‘zi ham alohida fanlar sohasi bo‘lib hisoblanadi” [4]. Tarixiy antropologiya fanning yangi tarmog‘i bo‘lsa-da, u hozirda

ekstensiv taraqqiyotni o‘z boshidan o‘tkazmoqda. Tarixiy antropologiya vujudga kelish va taraqqiyoti jarayonida o‘zining o‘rganish muammolarini aniqlab olishga urinmoqda. Shu bilan bir qatorda u fan o‘zining o‘rganish metodlarida va tadqiqot yo‘nalishlarida an’anaviy-tarixiy fanlar metodlaridan alohidalik ham kasb etmoqda. Tarixiy bilimlarning so‘nggi yuz yillik taraqqiyot darajasiga e‘tibor qaratsa, atmosfera girdobiga o‘xshash jarayonni kuzatish mumkin. XIX asr oxirida dunyo tarixshunosligida pozitivizm (tom ma‘noda negativ olingan haqiqiy sur‘at, ya‘ni aynan ko‘chirilgan matn yoki material, ko‘chma ma‘noda hamma haqiqiy konkret bilimlar, fanlarning mahsuli, falsafa bunday bilimlarni bera olmaydi, shu sababli falsafaning keragi yo‘q, degan g‘oyaga asoslangan idealistik oqim ta‘limot) ustunlik qilib, buyuk voqealar va buyuk voqeliklar markazida buyuk shaxslar turishi, diqqat markazida davlatlar va ularning hukmdorlari turishi targ‘ib qiluvchi siyosiy tarix yetakchi rolni o‘ynar edi. XX asrning dastlabki o‘n

yilliklarida K.Lamprext (Germaniya), L.Fevr va M.Blok (Fransiya), L.N.Emir va R.Touni (Angliya) kabi olimlar eski voqeanavis tarixchilarga qarshi fikr-mulohazalarni ilgari sura boshladilar. O'tgan asrning 50-yillariga kelib esa, – Yangi tarix deb atala boshlagan tarixiy antropologik tadqiqot usullaridan foydalanib, tarixiy voqeliklarni yoritish ustun mavqega ega bo'la boshladi. Unda voqeanavislik emas, balki struktura ustunlik qila boshlaydi. Tarixiy antropologiyada iqtisodiy tarix va ijtimoiy tarix asosiy yo'nalish, o'rganish muammosiga aylana boshlanadi. Ikkinch jahon urushidan keyingi dastlabki o'n yilliklarda tarixiy antropologik tadqiqotlarda matematik metod kliometriya yo'nalishining ustun mavqega ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Xullas, antropologiya fani ham o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'lini olib bordi. Aynan O'zbekistonda va MDH respublikalari ichida nufuzli antropolog Telman Qosimovich Xo'jayev bo'lib, u 1938-yilda To'rtko'l tumanidagi Sho'raxon qishlog'ida tug'ilgan edi. 1963-yilda ToshDU (hozirgi O'zbekiston milliy universiteti)ni tugatib, O'zFAning Qoraqalpog'iston bo'limi tarix, til va adabiyot institutining arxeologiya va etnografiya bo'limida faoliyatini boshladi.

1964-66-yillarda Sobiq ittifoq Fanlar akademiyasining Leningrad shahridagi etnografiya institutining antropologiya bo'limida aspirantura bo'limida tahsil oldi va ilmiy izlanishlar olib bordi. 1967-71-yilda yana Qoraqalpog'istonga qaytib, ilmiy tadqiqotlarini olib bora boshladi. 1972-1988-yillarda esa O'zFAning Samarqand shahridagi arxeologiya institutida izlanishlarini davom etdirdi. 1988-96-yillarda esa Toshkent davlat universitetida kafedra mudiri, professor sifatida faoliyat olib bordi. 1998-yildan boshlab Moskva shahrida ilmiy faoliyatini davom etdirdi va Rossiya fanlar akademiyasi etnologiya va antropologiya institutida yetakchi ilmiy xodim, katta ilmiy xodim vazifalarida ishladi. Telman Xo'jayev 2022-yilning 18-yanvarida vafot etgan bo'lsa-da, undan O'zbekiston, O'rta Osiyo tarixi hamda antropologiyaga oid juda ko'plab asarlar meros bo'lib qoldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ходжайов Т.К., Ягодин В.Н. Некрополь древнего Миздахкана. – Ташкент, 1970. – 246 с.
2. Ходжайов Т.К. К палеоантропологии древнего Узбекистана. – Ташкент, 1980. – 167 с.
3. Ходжайов Т.К., Джуракулов М.Дж. Антропология Средней Азии. – Самарканд, 1984. – 96 с.
4. Алексеев В.П., Аскарлов А.А., Ходжайов Т.К. Историческая антропология Средней Азии (палеолит – эпоха античности). – Ташкент, 1990. – 277 с.

**TARIX****OROLBO‘YI SAK QABILALARI DINIY  
QARASHLARI VA E‘TIQODLARI****UO‘K 570.510****Axmedjon  
YUSUPOV****Urganch davlat  
universiteti dotsenti,  
tarix fanlari  
bo‘yicha falsafa  
doktori.**

***Annotatsiya:** mazkur maqolada XX asr 30-80-yillari tadqiqotlarida qadimgi va ilk o‘rta asrlardagi Xorazm yodgorliklari o‘rganilishining asosiy natijalari tahlil qilingan.*

***Аннотация:** в статье анализируются основные результаты изучения памятников Хорезма в 30-80-х годах XX века.*

***Annotation:** this article analyzes the main results of the study of the monuments of Khorezm in the 30-80s of the XXth century.*

***Kalit so‘zlar:** S.P.Tolstov, Quyı Amudaryo, Y.A.Raporort, Mizdahkon, Gerodot, A.Y.Yakubovskiy.*

***Ключевые слова:** С.П.Толстов, Қуїи Амударё, Ў.А.Рапопорт, Миздахкон, Геродот, А.Ў.Якубовский.*

***The keywords:** S.P.Tolstov, Amudarya, Y.A.Raporort, Mizdahkon, Herodot, A.Y.Yakubovskiy*

Mazkur davr tadqiqotlarining boshlanishi arxeologiya-etnografik ishlari bilan bog‘lanib, ma‘naviyat-madaniyat tarixiga oid yodgorliklarni kashf etish, yangi materiallarni yig‘ish va ularni ilmiy jihatdan tizimlashtirishga qaratilgan edi. 1928-1929-yillarida A.Y.Yakubovskiy tomonidan Ko‘hna Urganch va Xo‘jayli atrofidagi Mizdahkon xarobalari o‘rganilgan. S.P.Tolstov Ko‘hna Urganch va Xo‘jayli etnografik ekspeditsiyasi ishlarida ishtirok etgan. 1936-1937-yillarida Y.G‘.G‘ulomov, T.Mirg‘iyozov, R.Nabiyev tomonidan ossuariylar, ya‘ni zardushtiylik dafn marosimlariga mansub sopol-suyakdonlardan iborat qabriston Mang‘it atrofidagi Qubatrovda topib, tekshirildi.

1945-1948-yillar mobaynida ekspeditsiya tarkibida qadimgi Xorazm vohasida yashovchi qoraqalpoqlar, o‘zbeklar va turkmanlarning moddiy madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar, tarixiy dostonlari va rivoyatlarning o‘rganish maqsadida tarixiy-etnografik ilmiy-tadqiqot guruhlarini tashkil qilinadi. Ekspeditsiyaning dastlabki tadqiqotlari atijasida Xorazm vohasi ma‘naviy madaniyati tarixiga oid maqolalar chop etildi. [1]

Xorazm arxeologiya-etnografik ekspeditsiyasining ilmiy ishlari rejalarida xalq og‘zaki ijodi tarixiy folklorini o‘rganish muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ma‘lumki, qadimgi davrlardan boshlab, turli xalqlarning tarixi va madaniyatini yoritish maqsadida tarixiy mazmuniga ega asarlarning mualliflari tarixiy



rivoyatlar ma'lumotlaridan foydalanganlar. Misol uchun, Gerodot va Strabon,



Sharqiy Kaspiybo'yi, Quyi Amudaryo va Quyi Sirdaryo oralig'i dashtlarida joylashgan daxlar, massagetlar va saklarning turmush tarzi, urf-odatlarini, e'tiqodlarini tavsiflashda rivoyatlardan foydalanganlar. O'rta asrlar mualliflari (al-Maqdisiy, al-Beruniy, Narshaxiy va boshqalar) asarlarida ham bu yondoshuv katta o'rin tutgan. Xorazm misolida tadqiqotchilar uchun, "Avesto", yunon tarixchilari xabarlarini, arab-fors tilli manbalarning ma'lumotlarini mahalliy tarixiy folklor mazmun-mohiyati bilan solishtirilgan holda, Xorazm vohasi ahlining ma'naviy merosini o'rganish uchun keng imkoniyatlar ochilgan edi.

1948-yilda S.P.Tolstovning "Qadimgi Xorazm" va "Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasi izidan" degan monografiyalari chop etildi. Xorazm madaniyatini o'rganishda olim arxeologiya, etnografiya, tilshunoslik va tarixiy folklor ma'lumotlaridan foydalangan. S.P.Tolstov, tasviriy san'atga oid ayol va erkaklar tasviridan iborat terrakota antik davri sopol haykalchalarini tariflashda "Avesto"dagi Ardivisura Anaxita, "Shohnoma", Narshaxiy, Beruniy, Nishopuriy asarlarida o'z aksini topgan Siyovush obrazi hamda rivoyatlarga e'tiborini qaratgan. Turli manbalardan foydalanish va ularni qiyoslash Xorazm vohasining qadimgi davr va ilk o'rta asrlar ma'naviy madaniyatini o'rganish jarayonida yangicha yondashuv bo'ldi.

Qadimgi Xorazm sopol haykallari ichida ot, tuya va qo'chqor tasvirlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. S.P.Tolstov ularni ibtidoiy e'tiqod-totemizm an'analari bilan bog'lab, topilmalar orasida ot haykalchalari keng o'rin olganligini ta'kidlab o'tgan.

Tadqiqotchi shunday fikrga keladiki, ot ramzi xorazmliklarning islomga qadar tasviriy san'atida alohida ahamiyat kasb etgan, ammo bu masala ilmiy

adabiyotlarda tahlil qilinmagan. Gerodotning “Tarix” kitobida massagetlarning yagona xudosi Quyoshga otlarning qurbonlik qilinishi haqida hikoyalar, xitoy manbalarida O‘rta Osiyoning ajoyib “samoviy otlari” tilga olinishi, o‘rta fors tilida yoritilgan “Bundaxishn” manbasida “aspiob”, ya’ni “suv oti” to‘g‘risida rivoyat, shuningdek, “ming ot” nomi bilan bog‘langan hazrati Sulaymon tomonidan Hazorasp qal‘asiga asos solinishi haqidagi afsona Xorazm asotirlarida ifodasini topib, tarixiy folklorning yorqin an‘anasiga aylangan.



O‘z paytida Abu Rayhon Beruniy Xorazm vohasini Sharqdagi madaniyat o‘chog‘i sifatida yoritib, voha madaniyatiga oid yozma manbalar va rivoyatlar asosida turli bilimlarga ega bo‘lish mumkin deb to‘g‘ri ta’kidlab o‘tgan, bu borada buyuk alloma tarixning mohiyati, Xorazm yozuvining ahamiyatini qayd etib, uning arablar istilosi natijasida yo‘qotib yuborilishi haqida achinib gapirgan [2].

1947-yildagi arxeologik qazishmalar paytida Tuproqqal’a saroyida topilgan loydan yasalgan yirik haykallar (ba’zilar odam bo‘yidan 1.5 – 2 marta baland edi) Xorazm vohasi san’ati, ma’naviy madaniyati tarixiga yangi sahifa bo‘lib kirdi. Haykallarning yuziga odam yuzining rangi berilgan, kiyim-boshlari oq, yashil, qizil, qora va boshqa ranglarda tasvirlangan.

Keyingi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar vaqtida “shohlar (podsholar) zali” deb atalgan tantanavor xonada 138 ta katta-kichik haykallarning bor bo‘lganligi aniqlandi. Shuningdek, “zafarlar zali”, “jangchilar zali”, “niqobli raqschilar zali”, “bug‘ular zali” deb atalgan saroy xonalarida milodiy III asrga oid haykallar va devorlardagi kishilar suratlari, hayvonlar, qushlar va to‘lqinlarda suzayotgan

baliqlarning rasmlari topib tekshirilgan [3]. Kashf etilgan topilmalarga arxeologik jihatdan ta'rif berilgan.

S.P.Tolstovning yozishicha, “podsholar zali”da III asrda hukm surgan Xorazm siyovushiyolari sulolasining galereyasi, Tuproqqal’adagi saroy butun Xorazm podsholarining saroylari bo’lgan.

XX asrning 40-yillari oxirlarida ilk o’rta asrlarga oid yodgorliklar ham o’rganildi. Teshikqal’ada zardushtiylik dafn marosimlariga doir ossuariyning topilishi diqqatga sazovor.

1951-1957-yillar mobaynida qazishma ishlar To’rtko’l tumanida joylashgan Qo’yqirilganqal’ada amalga oshirildi. Miloddan avvalgi IV va milodiy III-IV asrlarga oid bu obida Xorazm vohasining ma’naviy madaniyati tarixini yoritadigan muhim materiallarni o’zida saqlab kelgan. Yodgorlik diniy marosimlar bilan bog’liq inshoot bo’lib, astronomiyaga oid ayrim funksiyalarni ham bajargan. Qo’yqirilganqal’ada sopol parchalari sirtidagi qadimgi Xorazm yozuvi namunalari (mil. avv. III-II asrlar), devoriy rangli rasmlar, terrakota haykalchalari, suvdon (flyaga)ga o’xshash idishlar sirtidagi turli bo’rtma tasvirlar topilgan (bola emizayotgan ayol, bahaybat qushboshli va qanotli otlarga o’xshagan grifonlar – afsonaviy maxluqlar, chavandoz, uzum teruvchi va boshqalar).

Tasviriy san’at namunalari ichida odam yuzi tasviri aks etgan sopol niqoblari, tik turgan ayol haykali sifatida ishlangan katta sopol idish-ossuariy, to’rtburchak shaklidagi sopol qutilariga o’xshagan ossuariylarning qopqog’ida o’tirgan holatda tasvirlangan ayol va erkaklarning haykallari alohida o’rinni egallaydi.

Y.A.Rapoport tomonidan turli yodgorliklarda (Uyqal’a, Kubatov, Oybo’yirqal’a) topilgan otni minib o’tirgan chavandoz haykali turidagi yasalgan ossuariy sopol qutilari, shuningdek, Qo’yqirilganqal’ada kashf etilgan haykali ossuariylar, loydan yasalgan va xumdonlarda pishirilgan sopol niqoblarning vazifalari masalasini tahlil etib, ularni ajdodlar ruhi, arvohlarga sig’inish odatlari bilan bog’lagan [4]. Shunday qilib, arxeologik ma’lumotlar qadimgi Xorazmda islomga qadar turli e’tiqodlarning rivojlanganini tasdiqlab berdi.

M.G.Vorobyovanning tadqiqotlari sopol haykalchalar va sopol suvdon-flyagalar sirtidagi tasvirlar tahliliga bag’ishlandi [5]. Natijada, xorazmliklarning hosildorlik e’tiqodlariga oid muhim xulosalar chiqarildi. Ularga ko’ra, ayol sopol haykalchalaridagi tasvirlarda Anaxita siymosi aks ettirgan. V.N.Yagodin Mizdahkon shahar xarobasi qabristonida, arxeologik materiallar asosida IX asrdan boshlab zardushtiylik dafn marosimlarining musulmon marosimiga aylantirish jarayonini aniqladi [6]. Bizningcha, VIII asrning o’rtalarida Xorazm vohasida zardushtiylikka qarshi harakatlar katta o’rin egallagan. Mazkur kashfiyotlar ilk o’rta asrlarga mansub Xorazm vohasidagi diniy qarashlar haqida ma’lumotlar doirasini kengaytirdi.

Shuni qayd qilish lozimki, nafaqat tasviriy va amaliy san'at namunalari, e'tiqod va diniy qarashlarga oid topilmalar, shuningdek, islomgacha yozuv, ilmfan asoslarining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan yangi ma'lumotlar, Xorazm vohasi ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumki, qadimgi ziroatchilar hayotida Quyosh va yulduzlarning harakatlarini kuzatish muhim ahamiyat kasb etgan, chunki yer ishlari vaqtlari, ekin ekish, ko'chat o'tqazish, payvand qilish va hosil yig'ish mavsumlari yil fasllari almashinuvi bilan bog'langan. Shu tariqa ziroatchilar astronomiya fanini kashf etganlar.

V.A.Livshis tomonidan o'qilgan sopol ossuariylarning sirtidagi Xorazm yozuvlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ularning guvohlik berishicha, To'qqal'a qabristonida ossuariylar-suyakdonlarni dafn etish 750-775-yillargacha davom etgan. Taxminan, bu davrda ossuariylarni maxsus dafn inshootlar – nouslarga qo'yish va yerga ko'mish Mizdahkonda ham to'xtatilgan. Yozuvlar kashf etilishi tufayli xorazmiylar ossuariylarni "tapankuk", ya'ni "quti" hamda yozuvlardagi "fravartik" tushunchasi ossuuriy joylashgan novus "marhum ruhiga tegishli" deb atashganlari ma'lum bo'ldi [7].

Yuqorida keltirilgan sanalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, xorazmliklarning zardushtiylik dafn marosimlari bilan bog'liq bo'lgan ossuariylar arablar vohaga kirib kelishining dastlabki o'n yilliklarida saqlanib turgan edi, biroq VIII asrning o'rtalaridan so'ng Xuroson va Movaraunnahrda arablarning hokimiyati kuchayib borishi natijasida vaziyat keskin o'zgaradi. To'qqal'ada arxeologik tadqiqotlari asosida zardushtiyliklarning nouslari vayron qilinishi, ossuariylari sindirilishi, marhumlar suyaklari sohib yuborilishi, eski qabristonning xarobaga aylantirilishi kuzatib o'tilgan.

O'tgan asrning 70-yillarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlari natijasida qadimgi Xorazmning ma'naviy madaniyati tarixiga oid ma'lumotlar doirasi kengayib bordi. Janubiy Xorazmdagi Elxaras yodgorligida L.M.Levina tomonidan mil. avv. V-IV asrlar chegarasiga oid Xorazm vohasida eng qadimiy devoriy rangli suratlar va loydan yasalgan haykallar kashf etildi [8]. Xronologik jihatdan ushbu badiiy madaniyat namunalari o'xshagan san'at obidalari O'rta Osiyoning boshqa viloyatlarida aniqlanmagan.

Mazkur davr tarixshunosligida qadimgi Xorazm ma'naviy madaniyati tarixiga oid muammolarni o'rganish va tahlil etish samarali davom etdi. Turli maqolalarda olimlar tomonidan xorazmiylarning antik davri va ilk o'rta asrlar an'anaviy turmush tarzida e'tiqodlar va ma'naviyat an'analarning o'rni va ahamiyati kabi masalalar tahlil qilindi.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish mumkin, XX asrning 30-yillarida Xorazm tarixi va madaniyatini o'rganish dolzarb muammoga aylandi. Mazkur muammoni chinakam ilmiy asosda muvaffaqiyatli hal etish uchun Quyi Amudaryo, Orolbo'yi dashtlari sharoitida g'oyat katta mehnat, murakkab ishlar talab etuvchi arxeologik izlanishlar va topilgan yodgorliklarda tadqiqotlarni keng ko'lamda tashkil etish,

ushbu ishlarga qadimshunoslar, etnograflar va madaniyat, san'at, din tarixi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarni jalb qilish lozim edi. Shu sabab tufayli Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etildi.

Shu bilan birga, Xorazm vohasining qadimgi va ilk o'rta asrlar madaniyatiga mansub, uning asosiy mazmunini (e'tiqod, diniy va dunyoviy qarashlar, tasviriy san'at, yozuv va boshqalar) qamrab oluvchi maxsus umumlashma tadqiqot yuzaga kelmadi. Yetarli darajada o'rganilmagan ayrim masalalar bahs-munozaralarga aylanib, ular bilan bog'liq bo'lgan muhim savollar ochiq qoldi. Tasviriy san'at namunalari (sopol haykalchalar, devoriy rangtasvirlar, sopol sirtidagi bo'rtma rasmlar) qadimiy e'tiqodlar bilan bog'lanib, ularning bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa funksiyalari ko'rib chiqilmadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Толстов С.П. Хорезмский всадник//КСИИМК. – М., 1939. Внп. 1. – С. 7–9.
2. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар/ Танланган асарлар. – Т.: Фан, 1964. Т. 1. – Б. 50, 72.
3. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Изд. Восточной литературы, 1962. – С. 209-215.
4. Рапопорт Ю.А. К вопросу о хорезмийских статуарных оссуариях//КСИЭ. – М., 1958. Вып. XXX. – С. 54-65.
5. Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода//Тр.ХАЭЭ. - М., 1959. Т. IV. – С. 63-221
6. Ягодин В.Н. К изучению топографии и хронологии древнего Миздахкана// История, археология и этнография Средней Азии. – М.: Наука, 1968. – С. 189 – 197.
7. Лившиц В.А. Хорезмийские надписи на оссуариях с некрополя Миздахкана./ В кн.: Ягодин В.Н., Ходжайов Т. Некрополь древнего Миздахкана... С. 247-252.
8. Левина Л.М. Елхарас// Древности Южного Хорезма// Тр. ХАЭЭ. – М.:Наука, 1961. Т. XVI. - С. 80-140.

**TARIX****XORAZMNING SHARQIY YEVROPA HALQLARI BILAN SAVDO ALOQALARINING O‘ZIGA XOS HUSUSIYATLARI**

**Umidbek  
ABDALOV**

**Tarix fanlari  
bo‘yicha falsafa  
doktori, dotsent**

**UO‘K 521.40**

***Annotatsiya:** ushbu maqolada VIII-XI asrlarda Xorazmning Sharqiy Yevropa xalqlari bilan savdo aloqalarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida hikoya qilinadi.*

***Аннотация:** в статье рассказывается об особенностях торговых связей Хорезма с восточноевропейскими народами в VIII-XI веках.*

***Annotation:** this article tells about the specific features of Khorezm's trade relations with Eastern European peoples in the VIII-XI centuries.*

***Kalit so‘zlar:** Ustyurt, Belouli, Alanqal’a, karvonsaroylar, Qoraumbat, Gurganch, Amudrayo, Volga daryosi.*

***Ключевые слова:** Устюрт, Белоули, Аланкала, караван-сарай, Караумбат, Гурганч, Амудрае, река Волга.*

***Key words:** Ustyurt, Belouli, Alankala, caravanserai, Karaumbat, Gurganch, Amudrayo, Volga River.*

VIII asr boshlarida Afrig‘iylar sulolasi vakillari tomonidan boshqarilayotgan Xorazmga arablar bostirib kiradi. Bu davrdan boshlab Islom dini Xorazmga tarqaladi. Xorazmda azaldan rivojlangan ilm-fan yutuqlari xalqaro til vazifasini bajargan arab tili kirib kelganidan so‘ng yanada rivoj topadi. Al-Xorazmiy, al-Beruniy kabi daholar yetishib chiqadi. XI asr boshlaridan bu hududga o‘g‘uzlar, XII asr boshlaridan XII asrdan g‘arb sari odimlayotgan qipchoqlarning bir guruhi kirib keladi. Ushbu davrda Xorazm hukmdorlari atrofda ko‘chmanchilar kuchlaridan unumli foydalangan holda yirik davlat barpo qiladilar va Xorazm vohasi hamda uning atrofida qang‘li-qipchoqlar, o‘g‘uzlar va boshqa turkiy qabilalarning roli osha boradi. Umuman olganda, Xorazm vohasi asrlar osha ushbu turkiy xalqlar, ularning tili, madaniyati tutashgan chorralardan biriga aylanadi.

Demak, shuni qayd qilish lozimki, xorazmliklarning shimoli-g‘arbdagi qo‘shnilari – Xazariya va Volga Bulg‘oriyasi bilan aloqalariga ta’sir ko‘rsatgan omillar:

Xorazmda yuz bergan siyosiy jarayonlar hamda vohada yuz bergan ekologik sharoitning murakkablashishi (Amudaryo o‘z o‘zanini burishi natijasida, ayrim joylar suvsiz qolishi yoki ayrim joylarni suv bosishi) natijasida, ayrim xalqlarning bu yerdan Xazariyaga ko‘chishi;

Xorazmning Xazariya va Bulg'oriya bilan savdo-sotiq aloqalarining rivojlanishi.



Turk xoqonligining parchalanishi oqibatida paydo bo'lgan Xazar xoqonligi, uning dini, siyosati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti ko'pdan buyon muhokamada bo'layotgan mavzulardan hisoblanadi. Bu davlat shimol va g'arbda slavyanlar, janubda Kavkazning turli etnik birliklari va turli xil e'tiqodli xalqlari, sharqda turkiylar va janubi-sharqda ham eroniy, ham turkiy elementlarni o'zida jamlagan Xorazm bilan chegara edi.

Xorazmning har jihatdan taraqqiyotida savdo yo'llarining ahamiyati beqiyosdir.

Xorazmda 3 ta xalqaro yo'l tutashgan:

1. Xitoy – Buxoro-Xorazm.
2. Eron – Marv-Xorazm.
3. Sharqiy Yevropa-Bulg'or – Xazar-Xorazm.

Mazkur savdo yo'llarining Xorazm iqtisodiy-ijtimoiy hayotidagi ahamiyati juda yuqori. Xorazmdan sharqqa va janubga qarab ketgan yo'llarda ko'proq so'g'dlar faollik ko'rsatgan bo'lsa, Xazar xoqonligi, Bulg'or bilan savdo aloqalarida xorazmliklar yetakchilik qilganlar. X asrning boshlarida Orol dengizi va Ustyurt hududlariga, shuningdek, Xorazm atrofidagi dashtlarga o'g'uzlarning, XI asr oxiridan qipchoqlarning bu hududlarga kirib kelishlari Sharqiy Yevropa bilan Xorazmning savdo aloqalariga jiddiy putur yetkazmagan. Aksincha, Xorazmda savdo-sotiqning yanada rivojlanishiga olib kelgan. Bu haqida Istaxriy:

“Xorazmliklarning mamlakatida oltin yo‘q, kumush konlari yo‘q, boyliklarning katta qismini turklar bilan savdo-sotiqdan oladilar”, – degan edi.

Xorazmliklarning Xazar va Bulg‘orga olib boradigan savdo yo‘llari quruqlik va suv orqali amalga oshirilgan.

Tadqiqotlarga ko‘ra, Ipak yo‘lining shimoliy tarmog‘i VI asrda paydo bo‘lgan [1]. Xorazmdan Sharqiy Yevropa, Volgabo‘yi, Qipchoq dashtlariga ikkita karvon yo‘li orqali chiqilgan. Ulardan birinchisi, Gurganchdan g‘arbga yurib, “Borsa kelmas” sho‘rxokidan o‘tib, Mang‘ishloq yarimoroliga boradi. U yerdan Kaspiy dengizi orqali Volganing quyi oqimigacha davom etadi. Ikkinchisi, Gurganchdan shimoli-g‘arbga (hozirgi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani hududi orqali) yurib, “Turklar darvozasi” deb ataladigan Zamjon rabotidan, Qoraumbat ko‘tarilishi bo‘ylab Ustyurtga chiqqan. Undan Emba daryosiga boriladi. Daryodan o‘tganidan so‘ng yo‘l ikkiga, biri Xazariya poytaxtiga, ikkinchisi Bulg‘oriyaga borgan [2]. Bog‘dod xalifasi elchisi Ibn Fadlan ham Xorazmdan Bulg‘orga borishda, aynan mana shu yo‘ldan borganligi Y.G‘ulomov tadqiqotlarida o‘z aksini topgan va bu yo‘l boshqa yo‘llardan qulayroq bo‘lgan, yo‘lning nomi esa “Qoraumbat yo‘li”, deb atalgan [3]. Ibn



Fadlanning Xorazmdan Bulg‘orga borishda yo‘l tafsilotlarini o‘qir ekanmiz, uning biron joyda karvonsaroylar borligini eslatishini ko‘rmaymiz. Ilmiy va arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra, bu yo‘ldagi karvonsaroylarning aksariyati XI-XIV asrga taalluqli. Bugungacha xarobalari saqlanib qolgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi Beleuli karvonsaroyi Ibn Fadlan o‘tgan Qoraumbat yo‘lida joylashgan. Alanaqal‘a karvonsaroyi Gurganchjni Kaspiy dengizining Mang‘ishloq yarim oroliga boradigan yo‘lda joylashgan. Gardiziy o‘zining “Zayn ul-Axbar” asarida bu yo‘lni “Xazar yo‘li”, deb nomlaydi. Xazar yo‘li



Gurganchdan chiqib, Xorazm tog‘iga (Sulton Uvays tog‘i), bu yerdan bijanaklar tarafiga, yurib Xorazm ko‘liga (Orol dengizi) chiqadilar. ... qipchoqlar yeridan o‘tib Slavlar yeriga o‘tadi” [4].

Xitoy yilnomalarida “Xorazm – ho‘kizlar tomonidan tortiladigan aravalarda mavjud bo‘lgan yagona mamlakat. Ushbu aravalarda ular (xorazmliklar) boshqa mamlakatlarga sayohat qiladilar”, degan ma’lumotlar qoldirilgan [5]. Bu ma’lumot ham xorazmliklarning mintaqadagi savdo-sotiq aloqalaridagi faolligini izohlashga xizmat qiladi.



Xitoydan boshlangan Buyuk ipak yo‘li Samarqand va Buxorga kelganidan so‘ng ikkiga bo‘linadi. Janubiy yo‘l – Buxorodan Eronga qarab ketsa, shimoliy yo‘l – Buxorodan Xorazmga kelganidan so‘ng, Xorazmdan Xazariya va Bulg‘orga ketgan edi. Xorazm va Bulg‘or o‘rtasidagi yo‘l Ustyurt va dasht orqali o‘tardi. Bu yo‘l Ipak yo‘li tizimidagi eng og‘ir – suvsiz va karvondagi hayvonlar uchun yetarli yemish topish qiyin bo‘lgan yo‘l sanalgan. Tuyalar maxsus boqilib, bu og‘ir yo‘lga tushirilgan, Urganchga yetib kelgan karvondagi tuyalar va otlar 3 oygacha yangidan karvonga qo‘shila olmagan. Shuning uchun bu savdo yo‘li sharq va g‘arb o‘rtasidagi savdo yo‘llari ichida eng og‘ir yo‘llardan biri bo‘lganligi boisidan ahamiyati katta. Ibn Fadlan bu yo‘lni (Gurganchdan Bulg‘orgacha) 70 kunda bosib o‘tgan edi [6]. Bulg‘oriyada ham xorazmlik savdogarlar faollik ko‘rsatgan. Aslida, xorazmlik va so‘g‘dlik savdogarlar VIII asrdayoq Tayga o‘rmonlarida yashaydigan xalqlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirganlar [7].

Endi Xorazmdan Sharqiy Yevropaga boradigan ikkinchi yo‘l – suv yo‘lini ko‘rib chiqamiz. Dastlab Xorazmdan chiqqan karvon “Borsa kelmas” sho‘rxokidan o‘tganidan so‘ng g‘arbga qarab yuradi va so‘ng Alan qal‘adan o‘tib, Kaspiy dengizining Mang‘ishlog‘iga boradi. Mang‘ishloq yarimorolida kemalar orqali Kaspiy dengiziga, undan esa Ural va Volga daryolarining yuqori oqimi tomon borgan. Bu savdo yo‘li haqida bir qancha tarixiy manbalarda ma‘lumotlar keltiriladi. Jumladan, Mas‘udiy “Xazar daryosida (Volga daryosi) Xorazm va boshqa mamlakatlarga oid bo‘lgan savdo kemalari mol va buyumlar tashiydi” [8], deb ma‘lumot beradi. Shuni ta‘kidlash joizki, Quyi Amudaryo hududida Amudaryodan chiqarilgan katta-kichik kanallarda suzgan qayiqlar asosiy transport vositasi bo‘lgan. Bu XX asrgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aynan xorazmliklarning suv yo‘lidagi Amudaryo, Kaspiy dengizi, Volga daryosi bo‘yidagi xalqlar bilan aloqalarini yanada kuchayishida muhim omil bo‘lgan, deyishimizga asos bo‘ladi.

Biz yuqorida Xorazmdan Sharqiy Yevropa bilan bog‘laydigan savdo yo‘llarini ko‘rib chiqdik. Endi xorazmliklarning sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini ko‘rib chiqamiz. Xorazm va Bulg‘orgacha bo‘lgan savdo yo‘lida nafaqat xorazmliklar, balki Bulg‘or o‘lkasidan Xorazmga ham savdogarlar qatnab turganligi haqida ham ma‘lumotlar ko‘p [9].

Xorazm va Sharqiy Yevropa savdo aloqalari Orol va Kaspiy dengizi oralig‘iga ko‘chmanchi o‘g‘uzlarning va keyinchalik kelgan qipchoqlarning ko‘chib kelishidan keyin biroz murakkablashgan, lekin baribir ularning aloqasiga jiddiy putur yetmagan. Xorazm shaharlarining o‘sishi, mamlakat umumiy iqtisodiy taraqqiyotining muhim tomonlaridan biri bo‘lib, yangicha asosda yuksala boshlagan Xorazm shahar sivilizatsiyasining atrofdagi dasht va uzoqdagi mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalari mustahkamlanayotgani va kengayib borganidan dalolat beradi [10]. Xorazmlik savdogarlar, xuddi qadim zamonlardagidek, Turkmaniston va g‘arbiy Qozog‘iston o‘rnida bo‘lgan dasht ko‘chmanchilari bilan, Volga bo‘yi – Xazariya (keyinchalik Dashti qipchoq) va Bulg‘oriya bilan, nihoyat Sharqiy Yevropadagi slavyanlar olami bilan savdo-sotiq aloqalarini kuchaytirganlar [11]. Ibn Havqal xorazmliklar haqida to‘xtalarkan, “Xorazmliklar Xuroson xalqining eng ko‘p safarga chiqadigan xalqidir. Xurosondagi har bir katta shaharda xorazmliklarning alohida jamoalari mavjuddir”, – degan fikrni bildiradi [12].

Xorazmdan Ustyurt va dasht orqali Bulg‘orga savdogarlar qatnab turgan. Savdo karvonlari doimiy ravishda Xorazmdan Bulg‘orga, Bulg‘ordan Xorazmga qatnaganligi haqida Mas‘udiy [13], Maqdisiy [14], Ibn Havqal [15] xabar beradi. Zakariyo Qazviniy Bulg‘ordan Xorazmga turklar yurtidan o‘tib, karvonlar doimiy qatnaganligini va Xurosonga Mamont suyagi eksport qilinganligini yozadi [16]. Shuningdek, Maqdisiy Bulg‘ordan keltirilgan mamont suyaklari, balki tishlari va boshqa ashyolarning xorazmliklar tomonidan Xuroson shaharlariga olib borib sotilganligini yozadi [17]. Muqaddasiy esa Bulg‘ordan Xorazmga mo‘ynali

kiyimlar, suvsar, qunduz, tulki, quyon, echki, qor qoplone terilari, mum, baliq tishlari, asal, qo‘y va qoramol, shuningdek, slavyan qullari jo‘natilganligini ta‘kidlaydi [18]. Xorazmdan Bulg‘orga qora metall eksport qilinganligini Ibn Fadlan eslatadi [19].

Istahriy [20] va Ibn Havqal [21] ma‘lumotlariga ko‘ra, Xorazmga olib kelingan qullar orasida slavyanlardan keyingi o‘rinda xazarlar turgan va ularning oldi-sotdisidan katta daromad qilganlar. Shuningdek, Xorazmdan Bulg‘orga savdo karvonlarini mamluklar qo‘riqlab borganligi, bu mamluklarning savdogarlardan ko‘p bo‘lganligi tarixchi Zakariyo Qazviniyning “Asar al-Bilad va ahbar al-Ibad” nomli asarida ham keltiriladi [22]. Abu Hamid Muhammad G‘arnotiy aynan shu yo‘ldan Xazariyadan Xorazmga uch marta kelgan edi [23].

Xorazmning Xazariya va Bulg‘or bilan savdo aloqalarining rivojiga bu mintaqalarning nisbatan geografik jihatdan yaqin mintaqada joylashganligi sabab bo‘ladi. Shuningdek, Amudaryo va Volga daryolari bu mintaqalar o‘rtasidagi savdo aloqalarining kuchayib borishiga xizmat qilgan.

Bu mintaqalar o‘rtasidagi savdo aloqalarining kuchayib borishi siyosiy va madaniy aloqalarning yanada faollashuviga, ikki mintaqaning birlashuviga xizmat qilgan.

Xorazmning bu mintaq bilan savdo va madaniy aloqalarining kuchayishi Turkistondan Islom dini Volganing o‘rta oqimlariga kirib borishiga, xorazmlik savdogarlarning Markaziy Yevropa hududlarigacha kirib borishiga imkon yaratdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] М.Д. Калменов. Археологические памятники Устюрта и Мангистау на средневековых караванных путях: X - XIV вв. 2013. <https://www.dissercat.com/content/arkheologicheskie-pamyatniki-ustyurta-i-mangistau-na-srednevekovykh-karavannykh-putyakh-x-xi>.

[2] Я. Фуломов. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозирги кунгача. Тошкент. 1959. Б.146.

[3] Я. Фуломов. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозирги кунгача. Тошкент. 1959. Б.146

[4] Şeşen, Ramazan. İslam coğrafyacılarına göre Türkler ve Türk ülkeleri. Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2001. P 82.

[5] Lin Ying. Some Chinese Sources on the Khazars and Khwarazm. ARCHIVUM EURASIAE MEDII AEVI, 11 (2000-2001), Wiesbaden:Harrassowitz Verlag, 339-364.

[6] Ramazan Şeşen. İbn i Fadlan Seyahatnamesi. Yeditepe Yayınev. 2022. С. 21.

[7] История татар. Том II. Волжская Булгария и Великая Степь. Казань: Изд-во «РухИЛ», 2006. С 331.

[8] Şeşen, Ramazan. İslam coğrafyacılarına göre Türkler ve Türk ülkeleri. Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2001. P 56.

[9] В.Ф.Минорский. История Ширвана и Дербенда X-XI веков. Москва. 1963. С. 197.

[10] Қудрат Машарипов. Хоразмнинг Ўрта шарқ ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X-XV асрлар). Урганч: “Урганч давлат университети” 2016. 31-бет.

[11] Қудрат Машарипов. Хоразмнинг Ўрта шарқ ва Европа давлатлари савдо марказлари билан тарихий алоқалари (X-XV асрлар). Урганч: “Урганч давлат университети” 2016. 31-бет.

[12] Ибн Ҳавқал. Китоб сураат ал-ард. Тошкент. 2011.Б.39.

[13] Şeşen, Ramazan. İslam coğrafyacılara göre Türkler ve Türk ülkeleri. Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2001. S - 154; История татар. Том II. Волжская Булгария и Великая Степь. Казань: Изд-во «РухИЛ», 2006. С 311.

[14] Şeşen, Ramazan. İslam coğrafyacılara göre Türkler ve Türk ülkeleri. Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2001. S – 198.

[15] Ибн Ҳавқал. Китоб сураат ал-ард. Тошкент. 2011.Б.35.

[16] История татар. Том II. Волжская Булгария и Великая Степь. Казань: Изд-во «РухИЛ», 2006. С 287.

[17] Şeşen, Ramazan. İslam coğrafyacılara göre Türkler ve Türk ülkeleri. Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2001. S – 268.

[18] Гаркави, Авраам Яковлевич. Сказания мусульманских писателей о Славянах и Русских : (с половины VII в. до конца X в. по Р. Х.) / собр., пер. и объясн. А. Я. Гаркави. - СПб., 1870. - IX, С. 282.

[19] История татар. Том II. Волжская Булгария и Великая Степь. Казань: Изд-во «РухИЛ», 2006. С 148.

[20] Эстахри, Масалек ва Мамалек, оформление Ирадж Афшар, Тегеран, 1989. Издательство Эльми Фарханги. С. 239.

[21] Ибн Ҳавқал. Китоб сураат ал-ард. Тошкент. 2011.Б.40.

[22] Şeşen, Ramazan. İslam coğrafyacılara göre Türkler ve Türk ülkeleri. Ankara: Türk Tarih Kurumu, 2001. S 146.

[23] Faith Sabuncu. Girnati seyahatnamesi. Istanbul. 2018. S.133.

**TARIX****JALOLIDDIN MANGUBERDI SHAXSIYATI VA FAOLIYATI  
SHAHOBIDDIN AN-NASAVIY VA JUVAYNIY TALQINIDA**

**Jamoliddin  
ABDUKARIMOV**  
Akademik Bobojon  
G'afurov nomli  
Xo'jand davlat  
universiteti tojik xalqi  
tarixi kafedrası katta  
o'qituvchisi  
(Tojikiston)

**UO'K 560.511**

***Annotatsiya:** mazkur maqolada XIII asr muarrixlari Shahobiddin an-Nasaviy va Atomalik Juvayniy asarlari ma'lumotlari tahlil qilingan. Maqolada asosan mo'g'ullar istilosiga qarshi vatan himoyasi yo'lida mardonavor kurashgan Xorazmshohlar sulolasining yirik vakili Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati va faoliyatining ba'zi jihatlari bayon etilgan.*

***Аннотация:** в статье анализируются труды историков XIII века Шахабиддин ан-Насави и Атамалик Джувайни. В статье основном описаны некоторые стороны личности и деятельности Джалололидина Мангуберди, великого представителя династии Хорезмшахов, доблестно сражавшегося с монголами за свободу своей родины.*

***Annotation:** This article analyzes the work of the XIII th century historians Shahabiddin an-Nasavi and Atomalik Juvaini. The article also describes some aspects of the personality and activities of Jaloliddin Manguberdi, a great representative of the Khorezmshah dynasty, who valiantly fought against the Mongols for the freedom of his homeland.*

***Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, Xuroson, Xorazm, an-Nasaviy, Atomalik Juvayniy, Jaloliddin, Chingizxon.*

***Ключевые слова:** Средняя Азия, Хорасан, Хорезм, ан-Насави, Атамалик Джувайни, Джалал ад-Дин, Чингизхан.*

***Key words:** Central Asia, Khorasan, Khorezm, Shahabiddin an-Nasavi, Atomalik Juvaini, Jalal ad-Din, Genghis Khan.*

Anushteginiylar sulolasi boshqargan Xorazmshohlar davlatining (1027-1231) ko'p yillik tarixi o'sha davr musulmon tarixchilari tomonidan yozilgan qator asarlarida o'z aksini topgan. Ular asosida ushbu sulolaning so'ngi vakili, buyuk sarkarda Jaloliddini Manguberdi hukmronligi, uning mo'g'ul istilochilariga qarshi qahramona kurashi haqida G'arbiy Osiyo sarhadlaridagi faoliyatini kuzatish va tahlil etilganligini ko'rish mumkin. Ayrim manbalar va adabiyotlarda uning ismi Mangburni shaklida ham keltiriladi.



Jaloliddin Manguberdi haqidagi XIII asrdan to hozirgacha yaratilgan asarlar salkam 500 jildga yaqin kitobni tashkil etadi. Bu asarlar shartli ravishda ikki davrga: birinchi davri – XIII-XVIII asrlarda yozilgan bitiklarga; ikkinchi davri – XVIII-XX asrlarda yaratilgan asarlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Birinchi davrda yaratilgan asarlarning aksariyati Sharq tarixchilarining, ijodkorlarining qalamiga mansub hisoblanadi. Ularda Jaloliddin hayoti, faoliyati, taqdiri haqida hikoya qilinadi. Mo‘g‘ullarga qarshi olib borgan kurashlari aks ettiriladi. Mazkur asarlar mualliflarining aksariyati Jaloliddinni ko‘rgan, bilgan, u haqda eshitgan, uning hayotidan xabardor insonlardir.

Manbashunos olimlar mazkur davr xususida so‘z ketganda ko‘proq, “Siyрати Jaloliddin Mangburni” va “Tarixi jahongusho” kabi asarlarga urg‘u berishadi. Chunki ularning mualliflari Shahobiddin an-Nasaviy va Alouddin Atomalik Juvayniy tasvirdagi voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, ularda qaysidir ma’noda ishtirok etgan va tarix voqealariga imkon qadar xolis ko‘z bilan qarab, mushohada yuritilgan.

Jaloliddinning hayoti va kurashlari haqida eng mukammal manbalardan biri Shahobiddin an-Nasaviyning “Siyrat us-sulton Jaloliddin Manguberdi (Manguburnu)” asaridir.

Nasso (Niso) viloyatdagi qal’alardan birining sohibi bo‘lgan Nasaviy 1224-yilda xizmat yuzasidan Iroqqa borib qoladi va o‘sha yerda Sulton Jaloliddin xizmatiga kiradi. Shundan e’tiboran u Jaloliddinning ishonchli mulozimlaridan biriga aylanib, to 1231-yilgacha, ya’ni Jaloliddin Manguberding fojiali vafotidan so‘ng Nasaviy xizmatni boshqa hukmdorlar qo‘l ostida davom ettirib, 1249-yilda Halab shahrida dunyodan ko‘z yumdi.

Tarix kitoblaridan ma’lum bo‘lishicha, sulton Jaloliddinning Nasaviydan boshqa kotibi ham bo‘lgan. Uning ismi Xoja Nuriddin Zaydariy Xurosoniy bo‘lib, fors tilida “Nafsat al-masdur fi futur zaman as-sudur va zaman su dur al-futur”


nomli biografik asar yozgan. Mazkur asar mazmuni va muallifi xali tarixchilarimizga noma'lum bo'lgani uchun uni ayrim olimlar Nasaviy asariga aynanlashtirib, ikkinchi kitobi deb qarasarlar, ayrimlari "Siyrat..."ning boshqa nomi degan xato talqinlarga boradilar.

"Siyrat as-sulton" asari esdalik tarzida yozilgan asar bo'lib, muqaddima va 108 ta bobdan iborat. Asarning I-IV boblarida mo'g'ul-tatarlar, Chingizxonning kelib chiqishi, Chingizning xon bo'lib ko'tarilishi va uning Mo'g'uliston va Shimoliy Xitoyni bo'ysundirishi masalalari qisqacha bayon etilgan. V-XXII boblar Xorazmshoh Alouddin Muhammadning hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. XXIII bobdan boshlab kitobning to'xtatilgan oxirigacha mo'g'ul istilosi va Xorazmshoh Alouddin Muhammad o'z yurtini sharmandalarcha tashlab qochishi, sulton Jaloliddinning hayoti va uning mo'g'ul istilochilari bilan olib borgan qahramonona kurashi, uning Ozarbayjon hamda Iroqdagi faoliyati va nihoyat, fojiali halokati hikoya qilinadi. "Siyrat as-sulton" asarining, ayniqsa, 1224-1231-yillar voqealarini o'z ichiga olgan boblari noyob va muhim ilmiy qimmatga ega, chunki bayon etilgan voqealarning ko'pchiligida muallifning shaxsiy ishtiroki ko'rinib turadi.

Nasaviyning Jaloliddin Manguberdini yaqindan bilgan, asarida bayon etilgan voqea-hodisalarning aksariyatida bevosita ishtirok etgan yoki shohid kishilarning xabarlariga tayangan, eng muhimi xolisona va haqqoniy so'z aytishga intilganki, bular asarning ilmiy qimmatini hamda ishonchlilik darajasini oshiradi. Nasaviy o'z asarini bitishga Jaloliddin vafotidan qariyb 10 yil o'tgandan so'ng 1241-yildan kirishgan va tabiiyki, erkin fikr bildirish imkoniga ham ega edi. Nasaviyning "Siyrat as-Sulton Jaloliddin Mangubur"ning arabiy asl matni va turli tillarga qilingan tarjimalari bir necha bor dunyo yuzini ko'rdi. Nasaviyning asari arab tilida yozilgan va uning to'liq bo'lmagan ikki nusxasi yetib kelgan. Undan bir nusxa Fransiya Milliy kutubxonasi va ikkinchisi Britaniya muzeyida saqlanayotir. Asarning arabcha matnini 1891-yili Oktav Uda nashr etgan. Shu olim uni 1895-yili fransuz tiliga ham tarjima etib, chop etgan (Paris, 1895. In PÉLOV, IIIe., sér., vol. IX-X). Shu tarjima asosida 1914-1916-yillarda Y.Ziyo va A.Tavhid, 1934-yili mustaqil tarzda Najib Osim asarni turk tilida, 1945-yili Muhammad Ali Nosix tomonidan arab tilidan fors tiliga, 1953-yili esa O.Uda tarjimasida yana arab tiliga Hofiz Ahmad Hamdiy o'g'irgan. Asar rus tilida qisman 1850 va 1900-yillari chop etilgan. Xususan, u taniqli sharqshunos olim Z.M. Buniyotov tomonidan rus tiliga o'g'irilib, ikki marta (ikkinchi arabcha matn bilan birga) chop etildi. Asar o'zbek tilida ham K.Matyoqubov tarjimasida "Sulton Jaloliddin Manguberdi" nomi bilan ikki marta nashr etilgan.

Nasaviy o'z asarida sarkarda Sulton Jaloliddin siymosini shunday tasvirlaydi: "U (Jaloliddin) qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, nutqi va ifodalariga ko'ra turk, ammo forscha ham gaplashar edi. Uning jasurligi haqida aytadigan bo'lsak... u sherlar ichra sher, mohir chavandozlar ichida eng botiri edi. U

muloyim tabiatli bo‘lib, hech qachon jahllanmas va so‘kinmasdi. O‘zini jiddiy tutar, ammo u duch kelgan isyonlar davri tabiatiga ham ta’sir qildi. U fuqarolar turmushini yaxshilashga intilar, ammo tushkunliklar davrida hukmronlik qilgani uchun zo‘rluk ishlatishga majbur bo‘ldi... Uning yorliqlaridagi tamg‘asida “Madad faqat Ollohdan” degan so‘zlar yozilgan edi”.



“Siyrat as-sulton”da Nasaviy 1218-yildan 1231-yilgacha Jaloliddin qo‘l ostida vaqtincha bo‘lsa ham, bo‘lgan saltanatda, ya’ni Xorazm, Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron, Iroq, Ozarboyjon, Gruziya kabi davlatlarda bo‘lib o‘tgan voqealar, Xorazmshoh Alouddin Muhammad va Jaloliddin Manguberdi faoliyatlari, Chingizxon bosqini hikoya qilinadi. Asarda keltirilgan voqealar tafsiloti Xorazmshohlar mavqeyida turgan tarixchi tarafidan bayon qilinadi. Nasaviy boshqa davr tarixchilaridan farqli o‘laroq Xorazmshohlar davlatining ichki va tashqi hayoti, Turkon xotun va uning mamlakat hayotidagi o‘rni, saltanatning yemirilishi

sabablari, ko‘chmanchi turk qabilalarning (ayniqsa qipchoqlar va Turkon xotun urug‘idagilarning) sotqinliklari, Bog‘dod xalifasining ikki yuzlama siyosati, Jaloliddinning ichki va tashqi siyosati (ismoiliy va ayubiylar, g‘urriylar bilan munosabatlar), yurishlarining sabab hamda oqibatlarini yangicha asosda bayon qilinib, talqini beriladi .

Asar ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Jaloliddin Manguberdi og‘ir bir paytda, Movarounnahr urush domiga tortilgan, mamlakatning katta qismi mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilgan, xorazmshohlar qo‘shini yakson qilingan, amirlarning bir qismi xoinlik, qolgani o‘z joni-mulkini asrash yo‘liga tushgan, sulton mamlakatni o‘z holiga tashlab qo‘ygan, o‘zaro sarosima va tahlika hukm surgan bir vaqtda tarix sahnasida paydo bo‘ldi. Jaloliddin shunday bir og‘ir vaziyatda, Vatan va xalq erki uchun kurashib, mo‘g‘ullarga qarshi 11 yil davomida kurash olib bordi, 14 marotaba mo‘g‘ullarga qarshi ot surib, uning 13 tasida g‘oliblikni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldi .

Mazkur davrga oid muhim hamda batafsil manbalardan biri Alouddin Atomalik Juvayniyning “Tarixiy jahonkushoy” asaridir. Juvayniylar xonadonining bir necha vakillari Xorazmshohning arkonlaridan bo‘lgan. Jumladan, Bahouddin ibn Ali Juvayniy 1192-yilda Sulton Alouddin Takesh (1172 -1200) xizmatiga kiradi. Uning nabirasi Alauddin Atomalik Juvayning bobosi



Shamsiddin Muhammad (1200-1220), keyinchalik Jaloliddin Manguberding bosh vaziri sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ammo uning o'g'li Bahouddin taxminan 1232-yilda bir guruh aslzodalar bilan birga mo'g'ullar xizmatiga kirishga majbur bo'ladi va o'g'li Alouddinning ham xizmatga jalb etadi.



“Tarixi Jaxonkushoy 1252-1260-yillar oraliq’ida fors tilida ta’lif etilgan, uch jilddan iborat. 1-jild mo’g’ullar tarixi, Chingizxonning davlat tepasiga kelishi va istilochilik yurishlaridan to Kuyukxon davri (1246-1248)gacha kechgan voqealar, shuningdek, Jo’jixon, Chig’atoy va avlodlarining tarixini aks ettiradi; 2-jild Xorazmshohlar tarixi va Movarounnahr va Xurosondagi mo’g’ul hukmdorlari kechmishiga bag’ishlangan. 3-jildda Xuloguxonning Eronni zabt etishi (1256-58), Ismoililar davlati tarixi batafsil bayon etilgan. O’rta Osiyo tarixi uchun asarning 1-2-qismlari alohida qimmatga ega .

Juvayniy asarida qisqa bo’lsa-da Jaloliddin shaxsiyati va faoliyatiga oid muhim ma’lumotlarni keltiradi: “Jaloliddin Sulton Muhammadning o’g’illari orasida yosh jihatidan kattasi, jasorat va bilim jihatidan ustuni, saltanat toji va ilohiyot chirog’ining nuri Sulton Jaloliddin edi”.

Shuningdek, asarda muallif Jaloliddin Manguberding Chingizxonni hayratga solgan jasorati, aql-zakovati haqida quyidagilarni keltiradi: “Chingizxon uning daryodan o’tib kelayotganini ko’rgach, suv bo’yiga ot surdi. Mo’g’ullar ham o’zlarini daryoga otmoqchi bo’ldilar, biroq Chingizxon ularni to’xtatdi. G’animlar kamondan o’t otmoqqa kirishdilar. Bu holni o’z ko’zlari bilan ko’rgan kishilarning aytishiga qaraganda, daryoda o’q zaxmidan halok bo’lganlar qonidan suv qizarib ketgan ekan. Sulton bitta qilich, nayza va qalqon bilan daryodan o’tdi. Chingizxon va barcha mo’g’ullar hayrat barmog’ini tishlar edilar. Chingizxon ul holni mushohada etgach, o’g’illariga yuzlandi va: “Otdan ana shunday o’g’il qolishi kerak. Modomiki, u ikkita sel-suv va olov selidan o’tib salomatlik sohiliga yetar ekan, demak undan ko’p ishlar va sanoqsiz jang-jadallar zohir bo’lajak uning ishlariga oqil kishi qanday qilib ko’z yumishi mumkin”, – dedi.

Mazkur voqea XIX asr Qo’qon tarixnavislik maktabining yirik vakillaridan biri bo’lgan turli sulolalar qatori Xorazmshohlar davriga oid ma’lumotlar mavjud bo’lgan, ammo mutaxassislar nazaridan chetda qolgan va yetarlicha

o'rganilmagan, qisqa bo'lsa-da boshqa manbalarda uchramaydigan nodir ma'lumotlarni aks ettiruvchi "Muntaxab at-tavorix" asari va uning muallifi Muhammad Hakimxon talqinida quydagicha bayon etiladi: "Sulolaning yettinchi vakili Sulton Jaloliddin bo'lib, laqabini Manguberdi derlar. Ba'zilar aytibdurlarki, bir ming yuz marotiba jang qilbdur, shuning uchun mazkur laqabni olmish. Otasi vafotidan keyin taxtga o'tirib, juda shujoatli podshoh edi. Chingizxon bilan ko'p janglar qildi.



Chingizxon elchi yuborib dedi: "Agar bizga tobe' bo'lsa, uning mulkini qaytarib berurman". Sulton Jaloliddin qabul qilmadi va mo'g'ullarga hujum qildi. Harakat qilib Jayhun daryosigayetdilar va Sulton Jaloliddin hamrohlari bilan o'zlarini suvga otdilar, barchalari g'arq bo'lishdi. Sulton Jaloliddin va uch-to'rt kishi daryodan salomat o'tdilar. Chingizxon davlat arkonlari bilan Sulton Jaloliddin ishiga tasannolar aytdilar va Jaloliddin daryodan o'tib, o'z kiyimini oftobga yoyib va otini boylab, Chingizxon tarafiga orqasini o'girib, bermalol o'tirar edi. Chingizxon uning bu jasoratidan ularni qo'lga olishiga ko'zi yetmas edi. Oqibat Chingizxon makr ishlatib dedi: "Mening oldimga kelishing orzusida edim, angladimki, bu muddao amalga oshmaydi. Endi sendan bir iltimosim bor: o'rningdan tursang va men sening qomatingni ko'rsam. Shu men uchun yetarli". Sulton Jaloliddin qabul qilib, o'rnidan turdi va bir necha qadam qo'ydi va o'z o'rniga o'tirdi. Chingizxon dedi: "Endi sen mening taxt-u tasarrufimga kirding. Ixtiyor o'zingda, qayerga borsang bor". Sulton Jaloliddin Chingizxonning muddaosi nimada ekanini tushunib yetdi..."

Ta'kidlab o'tish joizki, Sulton Jaloliddin Manguberding Kavkazorti va Kichik Osiyodagi faoliyati, mahalliy sulolalar bilan munosabati kabi muhim masalalarda an-Nasaviy va Juvayniy asarlari qimmatli ma'lumotlar beradi.

Shunday qilib, Shahobiddin an-Nasaviy va Alouddin Atomalik Juvayniy "Siyрати Jaloliddin Mangburni" va "Tarixi jahonkusho" Xorazmshohlar davlati, mo'g'ullar istilosi, maxsus Sulton Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati va o'z vatani ozodligi yo'lida qo'liga qilich olib, dushmanga qaqshatqich zarbalar keltira olgan Xorazmning mard o'g'loni Jaloliddin Manguberdi harbiy faoliyatini o'rganishda birlamchi manba hisoblanadi. Tadqiq etilgan manbalarda keltirilgan Jaloliddin Manguberding hayoti va Vatanga e'tiqod yo'lidagi faoliyati o'rganish o'smir yoshdagi o'quvchilarning Vatanga e'tiqod, cheksiz muhabbat, g'urur va iftixor, vatan va xalq tinchligi yo'lida jon fido etish, insonparvarlik kabi qarashlarini tarkib toptirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алоуддин Атомалик Жувайний. Тарихи жаҳонгушо. Таржимон Назарбек Раҳим. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2015. – 504 б.
2. Бўриев О., Тошев Н. Жалолиддин Мангуберди (Даври. Саркардалик фаолияти. Манбалар). – Тошкент: Фан, 1999.- 72 б.
3. Давлатов М. Сопротивление таджикского народа монгольскому завоеванию.- Душанбе: Деваштич, 2007.- 396 с.
4. Исмат Очилов. Ёзма манбаларда Жалолиддин Мангуберди тавсифи// "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - (4) IV/2020.- 63-67 б.
5. Носир Муҳаммад. Сирли зарварақлар. Тарихий этютлар. Тошкент: Ўзбекистон, 2016.- 200 б.
6. Машарипов О. Хоразмнома. Иккинчи китоб. Хоразм, юксалиш ва инқироз. – Хоразм, 2007.- 420 б.
7. Машарипов Қ. Жалолиддин Мангуберди ҳарбий санъати. Парвон жанги//Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси.- 2020.- № 10.- 121-124 б.
8. Муҳаммад Ҳакимхан. Мунтахаб ат-таварих. Подгот. факсим. текста, введ. и указ. А. Мухтарова/ Муҳаммад Ҳакимхан.– В двух книгах.– Книга 1.– Душанбе: Дониш, 1983.– 368 с.
9. Турсунов Н. Ҳафтхони Темурмалик.- Хужанд: Хуросон, 2003.- 404 б.
10. Шихобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. Камол Матёкубов таржимаси./ – Тошкент: Ўзбекистон – Ёзувчи, 1999. – 432 б.
11. Шихобиддин Муҳаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. Камол Матёкубов таржимаси./ – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – 384 б.

**TARIX****ZIYO BUNYODOV VA XORAZM TARIXI**

**Almaz  
ULVIY**  
Ozarbayjon Milliy Bilimlar  
akademiyasi N.Ganjaviy  
institutining bo‘lim mudiri,  
professor



**Umid  
BEKMUHAMMAD**  
Tarix fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori

**UO‘K 574.511**

***Annotatsiya:** ushbu maqolada ozarbayjonlik sharqshunos Ziyu Bunyodovning hayoti va ilmiy faoliyati Xorazm tarixi bilan bog‘langan holda yoritib beriladi.*

***Аннотация:** в статье жизнь и научная деятельность азербайджанского востоковеда Зии Бунёдова освещаются в связи с историей Хорезма.*

***Annotation:** in this article, the life and scientific activity of the Azerbaijani orientalist Ziya Bunyodov is covered in connection with the history of Khorezm.*


***Kalit so‘zlar:** Ozarbayjon, Xorazm, Sharqshunos, tarix, Xorazmshoh, Urganch .*

***Ключевые слова:** Азербайджан, Хорезм, Востоковед, история, Хорезмшах, Ургенч.*

***The keywords:** Azerbaijan, Khorezm, Orientalist, history, Khorezmshah, Urganch.*

O‘zbek va ozarbayjon xalqlari o‘rtasidagi do‘stona aloqalar, tili va tarixiy an‘analarining o‘zaro yaqinligi, mushtarakligi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” dostoni ta’sirida Alisher Navoiyning ilk bora turkiy tildagi “Xamsa”sining yaratilgani, Fuzuliyning ustoz deb bilib, uning g‘azallariga naziralar bitganining o‘ziyoq adabiy aloqalarimizning yorqin sahifasidir. Shuningdek, Xorazmda muallifi noma’lum shoirning “Miftoh ul-adl” nomli badiiy asarining mavzusi Nizomiyning “Shoh va ikki boyqush” hikoyatidan olingani, Qutb Xorazmiyning “Xusrav va Shirin” dostonini yozishdayam Nizomiy hazratlaridan ta’sirlangani, Lutfiy, Xorazmiy, Durbek, Gadoyi, Atoyi, Sakkokiy singari XV asr mumtoz ijodkorlarida ham Ozarbayjon adabiyotining ijodiy ta’siri borligini ta’kidlab o‘tish o‘rinli.

Yoxud Ozarbayjon Otabeklari va Xorazmshoh Anushtegeniyar davlati o'rtasidagi do'stona aloqalar, keyingi davrlarda Kaspiy dengizidagi kemalar orqali har ikkala hudud savdogarlarining savdo-sotiq ishlarini taraqqiy qildirganliklari, Navoiy hazratlarining Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sini xattotlarga ko'chirtirishi, Uvaysiy, Amir Umarxon, Muqimiy, Ogahiy va boshqa shoirlarning Fuzuliy g'azallariga naziralar bitganiyam turkiy tilli xalqlarning o'zaro do'stona aloqalaridan darak beradi.



XX asrga kelib esa Ozarbayjon diyori bilan aloqalar yanada ravnaq topdi. Aynan 1920-yilning sentyabr oyida Boku shahrida Sharq xalqlarining I qurultoyi o'tkazilishi, unda Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lpon, Bekjon Rahmonov kabi o'zbek xalqining yetuk namoyondalari qatnashib, millat dard-u hasratlari borasida fikrlashgani, 1924-28-yillarda iste'dodli o'zbek yosh san'atkorlaridan Halima Nosirova, Zuhur Qobulov, Muhiddin qori Yoqubov, Sayfi Alishov, Rahim Bobojonovlarning Bokudagi teatr texnikumida tahsil olgani, 1926-yilda yana Boku shahrida Turkologlarning I qurultoyi bo'lib, unda turkiy xalqlarning imlo masalasi ko'rib chiqilgani, Navoiy, Husayn Boyqaro asarlarining nashr etilishi, 1941-yilning dekabridagi Leningrad qamali paytidayam Nizomiy va Navoiylarning Ermitajda yubileylari nishonlanishining o'zi ham bir tarix.

Aliog'a Hasanzoda, Faridun bey Ko'charli, Ismoil Hikmat, Hamid Arasli, Salmon Mumtoz, Mir Jalol Pashayev, Bakir Cho'ponzoda, Akif Bag'irov, Yashar Qosimov, Olmos Ulviy singari yana ko'plab adabiyotshunoslarning ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalarini tadqiq qilganliklari, har ikkala xalq folklorshunoslarining dostonchilikdagi o'xshash jihatlar mavzusidagi ilmiy

ishlarini, ko‘plab Ozarbayjon ijodkorlarining Toshkentda, o‘zbek ijodkorlarining Bokuda asarlari nashr qilingani ham tahsinga sazovor tarix sahifalaridan hisoblanadi.

Maqsud Shayxzodadek ozarbayjon shoiri va olimining 1930-yildan umrining oxirigacha Toshkentda yashab ijod hamda ilm bilan shug‘ullangani, “Jaloliddin Manguberdi”, “Toshkentnoma” asarlarini yaratgani adabiyot tarixining faxr-u iftixorli sahifasidandir.

Ozarbayjon xalqining lideri, marhum prezident Haydar Aliyev aytganlaridek, “Ozarbayjonning ikkita eng katta boyligi bor. Bular neft va Muslim Magomayevdir”. Ana shunday ehtirom va e‘zozga sazovor bo‘lgan mashhur xonanda Muslim Magomayev va yana bir jo‘shqin san‘atkor Zaynab Xonlarovanning ijodi, ularning qo‘shiqlari ham har bir o‘zbek xalqining xonadoniga kirib borgan. Ayniqsa Zaynab Xonlarovanning 1980-yillardagi O‘zbekistonga, Xorazmga tashrifi muxlislar tomonidan shod-u xurramlik bilan kutib olingandi.

Shu kabi ozarbayjonlik dunyoga mashhur sharqshunos Ziyo Muso o‘g‘li Bunyodovning “Xorazmshoh Anushtegeniyilar davlati” monografiyasini chop ettirgani, Nasaviyning “Siyrat ul-sulton” asarini tarjima qilishi, O‘rta Osiyo va Xorazm tarixiga oid o‘nlab maqolalari, suhbatlarining o‘zbek matbuotida nashr qilinib borishi natijasida vatanimiz tarixining ko‘pgina davrlariga oid voqeliklar oydinlashdi. Ayniqsa Xorazm tarixini Ziyo Bunyodov asarlarisiz tasavvur qilish qiyin.

### **ZIYO BUNYODOV VA XORAZM TARIXI**

Xorazm. Quyi Amudaryo bo‘ylaridagi insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan voha. Zardusht, Al-Xorazmiy, Beruniy, Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Ogahiy kabi yuzlab shu sarhadda yashab o‘tgan yuksak tafakkur sohiblari dunyo ilm-u fani xazinasiga munosib ulush qo‘shganligi tarixdan ma‘lum.

Yoxud betakror Xorazm suvorolari, maftunkor lazgi, ko‘kka bo‘y cho‘zgan minoralar, ularga ishlatilgan jilvakor bo‘yoq, jo‘shqin Jayhun bo‘yidagi so‘lim tabiat, eng asosiysi esa Qoraqum va Qizilqum oralig‘ida sermashaqqat turmush kechirib kelgan mehnatkash, ayni paytda hozirjavob va xushchaqchaq xalq hayoti.

Ana shunday mo‘jizakor va sehrlil diyorga tarix mobaynida Iskandar Zulqarnayndan tortib Chingizxon askarlari-yu, Pyotr I yo‘llagan Bekovich Cherkasskiy kabi ko‘plab istilochilar otlanishgan.

Ba’zida bo‘lsa, vaziyat sabab Vengriyalik Vamberi kabi olimlar asl ismi, niyatini yashirib, Xorazmga tashrif buyurishgan ham.

Xullas, Xorazmga talpinib Ibn Batuta singari sayyoh, Ivan Grozniy yo‘llagan Jenkinson va yana necha turli xil soha vakillari vohada bo‘lganicha, ko‘rgan kechirganlarini qog‘ozga tushirishgan. Bularning bari esa Xorazm tarixini boshqa manbalarga taqqoslab o‘rganuvchi nodir qo‘lyozmalar sirasiga kiradi.

Xorazm, umuman olganda, Turkiston tarixi shunchalik qadimiy va insoniyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan o‘lka hisoblanadiki, bu muqaddas zamin to‘g‘risida Herodot hamda Strabondan tortib, Mirxond-u Xondamir va Abulg‘oziy, Ogahiy, Bayoniy kabi turli davrda yashab ijod qilgan yuzlab muarrixlar salmoqli asarlar yozib qoldirishgan. Aynan ular va boshqa yana ko‘plab tarixchilar asarlari orqali biz Xorazm, Samarqand, Buxoro, umuman olganda Turkiston tarixining turli davrlarida sodir bo‘lgan voqealar solnomasi va silsilasidan xabardor bo‘lamiz.

Odatda biz faqat tarixchilar yaratgan asarlarnigina bilamiz va ularning hayoti haqida ma‘lum bir tasavvurga ega emasmiz. Shu sababli ham ushbu ocherkda vatanimiz o‘tmishi, xususan Xorazmshoh-anushtegeniyalar davlati, so‘nggi Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi to‘g‘risida teran, xolis va haqqoniy asarlar bitgan ozarbayjon olimi Ziyo Bunyodov hayoti haqida so‘z yuritimiz. Muddao esa tarixchining sovet davridagi mafkuraviy bosimlarga qaramay, moziy sirlarini ochishga intilganlari, bu boradagi har qanday mashaqqatlarni yengib, zahmatli mehnati evaziga asarlar yaratganini o‘quvchilarga ta‘kidlash va yosh avlodga shular haqida saboq berishdir.

Ma‘lumki, V.Bartold, A.L.Kun, B.Grekov, A.Yakubovskiy, P.Ivanov, S.Tolstov, Z.Bunyodov, Ya.G‘ulomovlar tomonidan yaratilgan yuzlab asarlarsiz vatanimiz tarixining turli davrlari, ularda ro‘y bergan voqea-hodisalarni, ularning sabab va oqibatlarini to‘la tasavvur etish qiyin.

Shu boisdan ham, “Turkiston mo‘g‘ullar istilosi arafasida”, “Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab”, “Xorazmshoh Anushtegeniyalar davlati”, “Xiva xonligi arxiv hujjatlari”, “Oltin O‘rda va uning qulashi” kabi yuqorida nomlari zikr etilgan muarrixlar tomonidan yaratilgan monografiyalar, xolis va haqqoniyligi bilan nafaqat bizda, balki xorijda ham keng shuhrat qozongan.

Shu bois ham, quyidagi ilmiy-biografik ocherk yuzaga keldi va u yoshlar uchun muhim saboq, har bir yurtdoshimizga esa, tariximizni yozib qoldirgan tadqiqotchilar hayotining o‘zi ham bir tarix ekanligini eslatib turuvchi manba bo‘lib, sizning ma‘naviyatingiz yuksalishiga katta hissa qo‘shadi, degan umiddamiz.

### **ZIYO BUNYODOVNING HAYOTI VA FAOLIYATI**

Turkiy musulmon xalqlarning faxri darajasiga yetgan Ziyo Muso o‘g‘li Bunyodov 1921-yilning 24-dekabrda Ozarbayjonning Astara shahrida – Muso Mavsum o‘g‘li Bunyodov va Raisa Mixaylovna Gusakova oilasida tavallud topgandi. Otasining kelib chiqishi Ozarbayjonlarning hurmatga sazovor va el ardog‘idagi Bibieybatlik alloma shayxlarga borib taqalgani bois, Ziyoga bolaligidanoq ozarbayjon, rus, arab tillarini o‘rganishi uchun e‘tibor qaratdi.

Garchi bolalik va o‘spirinligi g‘oyat alg‘ov dolg‘ovli 1930-40-yillarga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa-da, Ziyo Bunyodov ilmga intildi, tarix faniga qiziqdi. Maktabni bitirib Bokudagi harbiy bilim yurtida tahsil oladi. O‘qishni tugatgan

1941-yilning may oyida Moldaviyada harbiy faoliyatini leytenant unvoni bilan boshlaydi. Oradan ko'p o'tmay II jahon urushi Sobiq ittifoq hududida ham boshlandi.

Natijada Ziyoy Bunyodov urush davomida Moldaviya, Ukraina, Kavkaz, Belarussiya, Polsha, Germaniya hududlaridagi janglarda fashistlarga qarshi kurash olib bordi. Kavkazda bo'lgan janglarning birida boshidan, Tuapsinsk dagi operatsiyada esa oyog'idan yaralanadi. Taganrogdagi harbiy hospitalda davolanib chiqqach, yana jang maydonlariga o'tlanadi. 1942-yili "Krasnaya zvezda" gazetasi Bunyodovning janglarda ko'rsatgan jasorati to'g'risidagi maqolani chop etgandi.



Tabiatan haqiqatgo'y, qolaversa, harbiy kasb mahoratiga ega bo'lgan, urushlarda chiniqqan Ziyoy Musoyevich navbatdagi operatsiya rejasini tuzayotgan vaqtda harbiy amaldor bilan bahslashgani sabab, jarima rotasiga yuboriladi. Biroq vatanparvar Ziyoy Musoyevich uchun jangni qanday qismda olib borish emas, dushmanga zarba berish asosiy maqsad edi. Natijada 123-jarima rotasining komandiri, kapitan Z.M. Bunyodov o'z askarlari bilan sharqiy Yevropa davlatlarini fashistlardan

tozalashda qahramonlarcha jang qilib bordi. 1945-yil yanvar, fevral oylaridagi Visla, Oder daryosi bo'ylaridagi jangda dushmanning 45 zobiti va askari, ko'plab qurol-yarog'larni o'lja sifatida qo'lga kiritadi. Ana shu jangovar xizmatlari uchun 1945-yilning 27-fevralida Sovet ittifoqi qahramoni unvoni darajasiga erishadi. 1412 kecha-yu kunduz davom etgan urush davomida faqat jarima rotasidagi 2 jangchigina shunday yuksak harbiy unvonga sazovor bo'lgani tarixdan ma'lum. Shulardan biri Ziyoy Musoyevich edi...

Urush 9-may kuni Sobiq ittifoq g'alabasi bilan yakunlangach, Ziyoy Bunyodov Germaniyani natsistlardan tozalash va tiklash jarayoni borayotgani bois, Berlinning Pankov tumani harbiy komendati yordamchisi bo'lib ishlashda davom etadi. Bu vaqt davomida Germaniya Demokratik Respublikasining taraqqiy etishiga ko'rsatgan xizmatlari uchun "Vaffenbruderschaft", Artur Bekker medallari hamda Berlinning Pankov tumani faxriy fuqarosi unvoni beriladi.




1946-yili podpolkovnik Ziyov Bunyodov iste'foga chiqadi va Moskva Davlat sharqshunoslik institutiga o'qishga kiradi. 1950-yilda institut tahsilini tugatgach, Moskva davlat universiteti aspiranturasida ilmiy tadqiqot ishlarini boshlab yuboradi va 1954-yil may oyida nomzodlik ishini muvaffaqiyatli yoqlaydi. O'sha yilning avgust oyidan ona yurti Bokuga qaytib, Ozarbayjon fanlar akademiyasining tarix institutida mehnat faoliyatini boshlaydi. Uning ilmiy faoliyati Yaqin va O'rta Sharq davlatlari tarixi va madaniyati, Ozarbayjon Otabeklari davlati, Xorazmshoh Anushtegeniyalar davlatining shakllanishi va dovruq taratgan davri hamda mo'g'ullar istibdodi vaqtidagi holatini qamrab olgandi. U 1964-yili doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1965-yili professor, 1976-yilda akademik unvoniga, 1982-yili Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvonlariga loyiq deb topildi. 1981-1986, 1988-1997-yillarda ikki bor qayta-qayta Bokudagi Sharqshunoslik institutiga direktorlik qildi.



1990-1997-yillarda Ozarbayjon Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti bo‘lib faoliyat ko‘rsatdi.

Ziyo Bunyodov qaysi vazifada ishlamasin, hamisha ilm-u fan taraqqiyoti uchun xizmat qilgan, rahbarlik vazifalarida ishlaganidayam, boshqa amaldorlar singari byurokratik yo‘sinda ish yuritmay, odamiylik bilan faoliyat ko‘rsatdi. Ayniqsa Sobiq ittifoq paytidagi islom bid‘at, xurofot deb kelingan davrlardayam Ziyo og‘aning namozni kanda qilmasligi, mafkurabozlar uchun aniq nishon bo‘lib turishiga sababchi bo‘lgandi. Gorbachyovning 1985-yilda boshlangan qayta qurish siyosatidagi oshkoralik uning ko‘p yillik orzusi ushalishiga sabab bo‘ldi. 1987-yildan boshlab Qur‘oni Karimni ozar tiliga tarjima qilib, nashr ettira boshladi.



Hayotda ham ilmdagi kabi shijoatli bo‘lgan Ziyo Bunyodov sho‘ro davridagi mafkurabozlar, guruhbozlardan cho‘chimay, turkiy qavmlar tarixini xolis va haqqoniy o‘rgandi. Izlanishlari natijasida “Ozarbayjon 7-9-asrlarda”, “Ozarbayjon Otabeklari davlati”, “Ozarbayjonning tarixiy jug‘rofiyasi”, “Kaspiy dengizi arab manbalarida”, “Safaratnoma asarining Usmoniylar elchiligi va Rossiya-Usmoniylar aloqalari tarixini o‘rganishdagi roli” kabi asarlarini nashr ettiradi. Xorazmliklar uchun eng ahamiyatlisi, sharq xalqlari tarixini o‘rganishda beqiyos manba bo‘lgan Shihobiddin an-Nasaviyning “Jaloliddin Manguberdi” asarini arabchadan tarjima qilib, 1973-yilda chop ettirdi. Shu davr bilan bog‘liq tadqiqotini davom etdirib, “Anushtegin Xorazmshohlar davlati”

nomli monografiyasini ham nashr ettiradi. Ushbu monografiyani yozish jarayonida Ziyo Musoyevich 118 ta arab, fors tillaridagi qo‘lyozma asarlar, 40 ta dunyoning turli davlatlar tilida nashr etilgan ilmiy adabiyotlar bilan tanishib, ularni tahlil qilganining o‘ziyoq, olimning mavzuni naqadar qunt bilan o‘rganganining dalolatidir. Bundan tashqari, monografiyada Manguberdi bilan safdosh bo‘lib uning halokatidan so‘ng Turkiya va Suriya sarhadlarida yashab qolib ketgan xorazmliklarning so‘nggi hayotini ham yoritib o‘tgandi.

1974-yili Xorazm viloyat firqa qo‘mitasining mafkura bo‘yicha kotibi, tarixchi olim Rajab Jumaniyozov Boku shahriga boradi. O‘shanda ikkala tarixchi, xalqlar o‘rtasidagi azaliy do‘stlik, ozarbayjon tili va xorazm shevasi o‘rtasidagi

yaqinlik, Jaloliddin Manguberdi harbiy, siyosiy faoliyat ko'rsatgan davr haqida suhbat qurgandilar.

Bokudagi bu uchrashuvdan so'ng, qandaydir Sobiq ittifoq bo'yicha firqaviy seminar bo'lib o'tadi. Anjumanda qatnashgan Ziyo Bunyodov o'shanda Rajab Jumaniyozovga tantanali ravishda Xorazmshohlar davriga oid chiqargan kitobidan 100 donadan sovg'a qilgan ekan. Xorazmlik tarixchi bu kitoblarni Urganchga olib kelganda tarixsevarlar bu in'omdan sevinib, bayramdek nishonlagan edilar.

1988-yili Ziyo Bunyodov Xorazmga tashrif buyuradi. Bu tashrif o'sha paytda katta tadbirlarga sabab bo'lgan, hurmatini, izzatini joyiga qo'ygan vohaliklar, ozarbayjon olimini Ogahiy nomidagi viloyat teatrda o'tgan tadbirda "Urganchning faxriy fuqarosi" etib saylashgandi. Bu Ziyo og'aning Germaniyaning Pankov, Ozarbayjonning Astara, Gyoychay shaharlaridan keyingi faxriy fuqaro unvonini olish sharafiga muyassar bo'lgan to'rtinchi shahar edi. Zero, Ziyo Bunyodov shunga loyiq shijoatli inson va haqqparvar olim edi. Negaki, u tarixda Xorazmshoh Anushtegeniylar davlatining xalqaro miqyosda tutgan o'rni, nufuzi, xalqaro aloqalari, fan va madaniyatga qo'shgan hissasi, Jaloliddin Manguberdining istibdodga qarshi kurashgan qahramonligini dunyo miqyosida ilmiy asoslab bergandi. O'sha safar davomida Ziyo og'a bilan birga bo'lgan ekolog olim Ozod Husainov bu haqda shunday degandi: "Ziyo og'a, nafaqat turkiy xalqlar tarixi bilan shug'ullanuvchi tarixchi, ayni paytda bugun va kelajakni o'ylaydigan, erkin fikrli inson ham edi. U mening Orol va Kaspiyga, sharq xalqlari suv xo'jaligiga oid loyihalarimni qo'llab-quvvatlagan, uning ahamiyatini tushunib yetgan kam sonli olim edi. Institut, maktablardagi uchrashuvlarda ekologiya, tabiatni asrash, xalqlar o'rtasidagi do'stlik haqida so'zlardi. Men u bilan keyinchalik Boku shahriga borib uchrashganimda ozar xalqining naqadar uni e'zozlashiga guvoh bo'lganman. Bokuda mehmonxonaga joylashib, keyin uning ishxonasiga borganimda, "Ozod, sen meningina emas, Bokuliklarning, ozar xalqining mehmonisan, seni Bokuga men taklif qilgan ekanman, uyimda yashashing kerak deya uyining shinam xonasini, "Volga" mashinasini menga ajratib bergandi. Keyin menim Orol, Kaspiy dengizlari, Saudiya Arabistoni, Rossiya, Xitoy, Qozog'istondagi cho'l hududlarga kanal qazib olib borish haqidagi taklif-loyihalarim bilan tanishib, Moskvadagi suv muammolari institutiga birgalikda bordi, meni qo'llab quvvatladi. Ziyo og'a bilan suhbat, safarlarda bunday uyg'oq, tiyrak fikrli insonning jur'atiga qoyil qolardim. U bilan Urganchda tushgan surat, olim menga sovg'a qilgan L.Gumilyovning Kaspiy atrofiga doir eng noyob kitobini ardoqli, muqaddas in'om sifatida asrayman".

1988-yildagi Urganchga tashrifida olim bilan do'st tutingan sharqshunos olim, Urganch davlat universiteti dotsenti, marhum Abdulla Ahmedov, Ziyo og'ani uyida mehmon qilgan, suhbat mavzusi ozarbayjon va xorazmliklar shevasi o'rtasidagi o'xshashlik, Manguberdining jasorati, Abdulla akaning Eronda

ishlagan yillari, umuman sharq tarixi to‘g‘risida bo‘lgandi. O‘shanda Abdulla aka Ziyo Bunyodovni hamkasbi, professor Hamdam Abdullayevning uyidagi to‘yiga olib borgan, bu tadbirdagi urf-odatlarni ko‘rib, qo‘shiqlarni eshitib, raqslarni tomosha qilib olim yanada hayratlangan ekan. O‘sha to‘y oqshomida shoir Oshiq Erkin, tarixchi olim Ozod Masharipov va boshqalar ishtirok qilishgan.

Buyuk ozar olimi Xorazmga tashrifi davomida 4 kun bo‘lib, zamondoshlari hayoti faoliyati, vohadagi ekologik holat darajasi, madaniy meros obidalari bilan tanishgan, “Xorazm haqiqati”, “Хорезмская правда” gazetalari tahririyati, Xorazm viloyat teleradioqo‘mitasida Ozod Husayinov bilan uchrashuvlar o‘tkazgandi.

Ziyo Bunyodovning O‘zbekistonga safaridan so‘ng shoir va tarjimon Tohir Qahhor alloma bilan uchrashish niyatida Bokuga boradi va olim bilan qilingan suhbatlar “Guliston” jurnalining sahifalarida chop etiladi.

“Dashkandli qo‘noq”ligimni eshitgach akademik meni xonasiga taklif etdi. Bu yerda ikki narsa-xonaning bir tomonini tamom egallagan xarita va Ziyo muallimning baland gavdasi,shiddatli qiyofasi darrov ko‘zga tashlanadi va xonada shu ikki narsadan bo‘lak hech narsa yo‘qdek tuyuladi.

Shu payt telefon jiringladi.u telefonda gaplashayotganda, qiyofasini kuzatdim: samimiy, ochiq, nimani o‘ylasa, shuni aytadigan dangalchi odam; oddiyliigi, hashamsevmasligi kiyinishidan ham, xonasidagi jihozlaridan ham ko‘rinib turibdi. Dunyoda nima ko‘p,olim ko‘p. Ammo xalq sevgan, e‘zozlaydigan olimlar juda kam. Xalq mehriga erishish uchun ilm kishisi xalqni



ulug‘laydigan, uning qaddini ko‘taradigan, uning asl manfaatlariga xizmat

qiladigan ish qilmog‘i lozim. Bunday ishni hamma ilm kishilari ham qilavermaydi. Ziyo og‘a esa nafaqat ozar diyorida millati dardiga, butun insoniyat, ayniqsa o‘zi mehmon bo‘lgan O‘zbekiston dardiga, o‘sha vaqtda xavf darajasiga kelib qolgan ekologik fojialar, madaniy meros obidalarini avaylab asrash masalasiga o‘z munosabatini bildirib o‘tgandi, – deydi Tohir Qahhor xotiralarini yodga olib.

Shuningdek, shoir va dramaturg Komil Avaz ham Bunyodov bilan Toshkentga kelganida yozuvchilarning Do‘rmondagi uyida suhbatlashgan ekan. Tabiiyki, suhbat mavzusi Jaloliddin Manguberdi, Ko‘hna va Yangi Urganch, Abulg‘ozi Bahodirxonni e‘zozlash va xotirasini abadiylashtirish haqida bo‘lgan.

O‘zbekiston yozuvchilarining Do‘rmondagi ijod uyida Ziyo og‘a bilan uchrashib, suhbatlashgandim. Ma‘lumki, 1988-yilning 1-sentabrida unga “Urganchning faxriy fuqarosi” unvonini o‘sha paytdagi shahar rahbari Rustam Sulonov topshirgandi. Ziyo Musoyevich bilan Do‘rmonda sayr qilib yurarkanmiz, Ziyo og‘a ochilish ketdi va maroq bilan o‘tgan bayramona tadbir, Urganch shahri, Rustam Sulonovni eslab, urganchliklarning ko‘rsatgan hurmat-e‘tiboriga tashakkur bildirdi. Men o‘shanda Rustam akaning tashabbusi bilan haykaltarosh Shuhrat Usmonov yaratgan Abulg‘ozining ot yetaklagan o‘ychan haykali borasida gapirdim. Suhbatimiz nihoyasida Ziyo aka “Xorazmshoh-Anushtegeniyalar davlati” kitobiga dastxat yozib berdi. Oradan yillar o‘tgan bo‘lsa-da, o‘sha uchrashuvimiz hech yodimdan ko‘tarilmaydi. Tolmas ijodkor Ziyo akaning o‘sha kuni Urganch fuqaroligi, Abulg‘ozixon haykali to‘g‘risidagi gapimdan keyin charaqlab ketgan yuz-ko‘zlari, o‘zga bir mehrli nigohi hanuz ko‘zim o‘ngida...

1991-yildagi istiqloldan so‘ng Ziyo Bunyodov mafkuraviy tazyiqlardan xoli ravishda ilm ummoniga sho‘ng‘idi, deyish mumkin. Urush asoratlari, sho‘ro mafkurabozlari qoldirgan og‘riqlarga qaramay, ko‘plab arabcha asarlarni, sharq tarixiga doir manbalarni, arabchadan ozarbayjonchaga tarjima qilib nashr ettirdi, “Qizil terror” asarini, “Dinlar, mazhablar, tariqatlar” nomli qomusiy lug‘atini yaratdi.

Ma‘lumki, Sobiq ittifoq tarkibidagi respublikalar mustaqillikka erishgach, ular orasidagi kelib chiqishi turkiy bo‘lgan xalqlar tarixini birgalikda yaratish g‘oyasi ilgari suriladi. Bu borada Turkiyada aynan shu mavzuga bag‘ishlangan ilmiy kongress o‘tkaziladi. Ushbu kongressda ishtirok qilgan Andijonlik tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinovning ta’kidlashicha, ilmiy yig‘ilishdagi eng ta’sirchan nutq va takliflar aynan Ziyo Bunyodovga tegishli bo‘lgan. Ya’ni, Ziyo Bunyodov dunyodagi turkiy xalqlarning tarixini, ular oldin yashagan, yashayotgan hududlar, turkiylarning dunyo sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini xolis va haqqoniy holda ko‘p jildlik asosida yaratish, bunga jahonning zabardast olimlarini jalb qilish va ushbu asarlarni dunyoning barcha tillariga tarjima qilish fikrini bildirgan.

Ozarbayjon xalqi o'zining millatparvar farzandini, parlament majlisiga deputat, Fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti etib sayladi. Ziyo Bunyodov bu vazifalarda ham sidqidildan, har doimgidek jur'atlilik bilan millat manfaatlari, davlat istiqboli uchun kuyunib ishladi.



1997-yil 21-fevral, Boku. Parlament deputati Ziyo Muso o'g'lining so'nggi kuni. 76 yoshli fuqaro Ziyo Bunyodov vafot etdi. Ammo u yaratgan asarlari, tarjima qilgan manbalari orqali barhayot. Ziyo og'aning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish, kitobxonlarga yetkazib berish borasida Ashraf Ahmedov, Mahkam Mahmudov, Muhammadali Qo'shmoqov, Hamidulla Boltaboyev, Xudoyor Karim, Ma'ruf Jalil, O'ktam Hakimali, Hamdam Sodiqov, Ubaydulla Samadhoji o'g'li kabi olim va ijodkorlarning o'rni katta.

1998-yilda Toshkentdagi G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti Z.Bunyodovning "Anushtagin Xorazmshohlar davlati" (1097-1231) nomli monografiyasini Xudoyor Karimning homiyligi bilan ju'ziy qisqartirishlar asosida nashr ettirgandi. 2012-yilda "Mumtoz so'z" nashriyoti professor H.Boltaboyevning so'zboshisi bilan Z.Bunyodovning "Markaziy Osiyoga doir tadqiqotlar". Xorazmshohlar davlati" kitobini nashr qildi. Ushbu kitobdan ozar olimining "Xorazmshoh Anushtaginlar davlati" (A.Ahmedov, M.Mahmud tarjimasida) monografiyasi va bir nechta maqolalarini Muhammadali Qo'shmoqov tarjimasida chop qilgandi.

Ma'lumki, Ziyo Bunyodov O'zbekistonga ko'p marotaba tashrif buyurgan va olimlar, ijodkorlar bilan suhbatlashgan. Ana shu suhbatlar va olimning turli maqola, intervyulari "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Sharq yulduzi", "Guliston", "Xorazm haqiqati", "Хорезмская правда" nashrlarida chop etilgan. Shuningdek, Ziyo og'aning O'ZTV, Xorazm TVga bergan intervyulari TV arxivlarida saqlanib qolgan. Demak, Ziyo Bunyodovning o'zbek matbuotida chop qilingan maqola, suhbatlari, u bilan uchrashgan yurtdoshlarimizning xotiralarini to'plab, shuningdek, allomaning boshqa nashr etilgan asarlarini ham tarjima qilgan holda, Z.M.Bunyodovning saylanma jildlarini nashr etish lozim.

**TARIX****XIVA MADRASALARIDA BOSHQARUV TIZIMI**

**Hamid  
YUSUPOV**  
Urganch davlat  
universiteti mustaqil  
izlanuvchisi

**UO‘K 560.510**

***Annotatsiya:** mazkur maqolada Xiva xonligi davridagi madrasalarning boshqaruv tizimiyoritib berilgan.*

***Аннотация:** в статье описывается система управления медресе во времена Хивинского ханства.*

***Annotation:** this article describes the management system of madrasas during the Khiva Khanate.*

***Kalit so‘zlar:** Xiva, madrasa, mutavalli, vaqf, mudarris*

***Ключевые слова:** Хива, медресе, мутавалли, вакф, мударрис*

***Key words:** Khiva, madrasa, mutawalli, waqf, mudarris*

Xiva madrasalarining boshqaruvi mutavalli tomonidan boshqarilgan. Mutavalli vaqf yerlaridan tushgan pullarning hisob-kitobini yuritgan. U oxun, mudarris, muallim, muazzin, farrosh, sartarosh, tanobchi va qorovullarga maosh to‘lash bilan shug‘ullangan. Mutavalliga nafaqat diniy-ma’rifiy muassasa vaqf xo‘jaligini boshqarish, balki uning faoliyatini tashkil qilish vazifasi ham yuklatilgan. Bu holat ayniqsa Xiva madrasalari misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Madrasaning barcha xodimlari vaqfnomada belgilangan tartibda muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lganlar. Masalan, Rahmonberdibiy madrasasi vaqfnomasida xodimlar majburiyatlari quyidagicha keltirilgan [1].

...har tolib-i ilmiy-kim mazkura madrasa hujrasida istiqomat ko‘rguzur. Har yil ichida be-uzr-i shar’iy paydarpay qirq kun baytutani tark etmasun. Va mudarrisi dog‘i be-uzr-i shar’iy mutavoliyan ikki hafta darsgo‘ylik‘in matruk tutmasun. Va mazkura madrasa masjidining imom va muazzini dog‘i be-uzr-i shar’iy imomat qilmoq, azon va qomatni barpoy tutmoqini mutavoliyan bir hafta tark etmasunlar. Farrosh va sartarosh dog‘i ilm-i toliblarining soch va lablarining mo‘yin olmoqda va mazkura madrasaning xas va xashagin supurmak va pok qilmoqda be-uzr-i shar’iy bir haftani tark etmasunlar...

Mutavalli madrasa xodimlari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ular ustidan nazoratni amalga oshirgan. Belgilangan majburiyatlarni lozim darajada bajarmagan muassasa xodim va talabalari o‘z vazifalaridan ozod etilgan. Xususan, shahzoda Sayyid Homid To‘ra madrasasi vaqfnomasida mutavalli va

oxund o'rtasidagi maslahat bilan vaqf ma'muriyati xodimlarini ishdan bo'shatish mumkinligi shart qilingan [2].



Vaqf mulklaridan kelgan daromadni belgilangan tartibda taqsimlash masalasi ham mutavalli ixtiyorida bo'lgan. Taqsimot jarayonida barcha ehtiyojlar hisobga olinib, vaqf mulklaridan olingan daromad maqsadli sarflangan. Jumladan, Matniyoz devonbegi madrasasi vaqf xo'jaligining daromadlar taqsimoti quyidagicha qayd qilingan:

...mudarrisi madrasayi mazkura avqofig'a mutavalli bo'lib voqifning shart etgan (nima) lariga muvofiq amal ko'rguzsun va ul-kim mutavalli mavqufoti mazkurot ijarasi istifodasidin so'ngra avvalan madrasaning shikasti rixtin ta'mir etsin va ondin so'ngra o'zining tavliya haqi uchun barcha mahsulotning dahyakin olsin. Va ondin so'ngra har yil mazkura madrasa masjidining chirog'iy yog'i, buryosi, darsxonasining buryosi uchun mazkur tosh bila mazkura madrasa muazzinig'a yigirma botmon g'alla bersin. Va masjidga har o'n yilda ikki qo'shmargiz va anga loyiq chit joynomoz olib bersin. Va ondin so'ngra madrasa muazzinig'a yuz botmon g'alla va farroshig'a ellik botmon g'alla, sartaroshig'a qirq botmon g'alla...imomig'a ikki yuz botmon g'alla, nisfi bug'doy va nisfi juvoridur. Mudarrisig'a mazkur bo'lg'on ahli-vazoif huquqi ixrojidin keyin mahsulot boqiyani to'rt hissa qilib, bir hissasini bersin va qolg'on uch hissasini madrasa yoronlarig'a a'lo, avsat, adno taqsim etib bersin...



Matniyoz devonbegi madrasasining yillik daromadi vaqf huquqiga mos ravishda, avvalo, madrasa binosini ta'mirlash ishlariga sarflashni nazarda tutgan. Shundan so'ng qolgan mablag'ning 1/10 qismi mutavallining maoshi sifatida ajratilgan. Shuningdek, madrasa majmuasining yorug'lik tizimini ta'minlash, masjid ehtiyojlarini qondirish hamda muassasaning qolgan xodimlari va talabalari uchun alohida mablag' belgilangan [3].

1871-yilda Matniyoz devonbegi tomonidan Xiva shahrining Ichan qal'a qismida madrasa bunyod etgan va bir necha yirik mulklar vaqf qilgan. Matniyoz devonbegi birodari Bekniyoz mahram bilan birgalikda mutavalli sifatida mazkur vaqf mulklari ustidan nazoratni saqlab qolgan [4].

Xulosa o'rnida shuni qayd qilish lozimki, voqif tayinlagan mutavalliga vaqf ma'muriyatining yetakchisi sifatida vaqf mulklarini boshqarish, ularning qayta sarmoyasini ta'minlash, muassasa xodimlari o'rtasida vaqf daromadlarini o'rnatilgan tartibda taqsimlash, vaqf mulklari yo'naltirilgan muassasa binosini doimiy ravishda ta'mirlab, lozim darajada tutib turish kabi qator vazifalarni bajarish yuklatilgan. Majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan, ishonchsiz va ta'magir bo'lgan mutavalli qozi tomonidan vazifasidan ozod qilingan.

Abulg'ozixon o'z yonidan mutavalli uchun joy ajratgan. Biroq XIX asrning uchinchi choragida saroyda ro'yxatga binoan ikki mutavalli bo'lgan. Ular Xivadagi eng katta ikki madrasaning mutavallisi bo'lib, keyinchalik saroy xizmatiga o'tganlar. Bunga sabab shuki, mutavallilar qaramog'ida vaqf yerlaridan keladigan daromadlar juda katta bo'lgan. Bu mansablarga xon urug'larining tayinlanishi ajablanarli emas. Muhammad Rahimxon Muhammad Sayyid urug'lari bilan chatishgan Sayyid Muhammad Rahimxonning onasi Sayyidxo'ja mutavallining qizi bilan, binobarin Sayyid Muhammad Rahimxon unga nabira bo'lgan [5].

Mutavallilar madrasalarga ham qarar va bundan tashqari, ko'pincha boshqa mamlakatlarga elchi bo'lib ham borar edilar [6].

XIX asrning ikkinchi yarmida 2 ta mutavalli bo'lgan. Ular xonga qarindosh-urug'chilik tomondan uning yonida shayxulislomdan ko'ra yaqinroq yerda o'tirish uchun o'rin olganlar.

Xiva xonlari arxivida mutavallilarning vaqf yerlaridagi faoliyatlari mukammal ravishda ko'rsatilgan [7].

Xiva xonlari arxivida mutavallining qancha maosh olganligi va qancha navkari bo'lganligi ko'rsatiladi. 1848-1849-yili ota Nazar degan mutavalli bo'lgan, 10 tilla maosh olgan va 28 navkari bo'lgan [8].

Madrasa mutavallisi halol inson bo'lishi kerak. Agar madrasa mutavallisi qoidani buzsa, mudarris uni shahar voliysiga (hokim) aytishi kerak. Voliy bu qoidabuzar mutavalli o'rniga boshqa halol odamni qo'yadi [9].

Xiva shahar hayotida mutavallilar katta rol o'ynagan. Arxiv hujjatlari ma'lumotlariga ko'ra, madrasa vaqflaridan keladigan daromadlar ular tomonidan

boshqarilgan. Vaqf daromadi katta bo'lib, shu sababdan bu mansabga xon urug'i vakillari tayinlangan.

Xulosa qilib aytganda, Xiva madrasalari boshqaruvi tizimida mutavallilarning o'rni va roli juda katta bo'lgan. Ular hozirgi til bilan aytganda, menejer vazifasini bajargan. Buni biz yuqorida aytilganidek arxiv manbalari orqali yoritishga harakat qildik.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xiva davlat "Ichanqal'a" tarixiy-me'moriy muzey qo'riqxonasi. GXMZ KP 1327.
2. Xiva davlat "Ichanqal'a" tarixiy-me'moriy muzey qo'riqxonasi. GXMZ KP 1328.
3. Yaqubov Q. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligida vaqf instituti: (Tarixiy-manbashunoslik tahlili) Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori. – Toshkent: 2018, 101-b.
4. Xiva davlat "Ichanqal'a" tarixiy-me'moriy muzey qo'riqxonasi, GXMZ KP 1356.
5. Yo'ldoshev M. Y. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. O'zbekiston SSR Davlat nashriyoti. Toshkent-1959, 275-b.
6. Xiva xonlari arxivi, 31-daftar, 53-varaq.
7. Xiva xonlari arxivi, 60-daftar, 6-varaq.
8. "Ichanqal'a" muzey-qo'riqxonasi fondi. KP N1310.
9. O'zR MDA, I-125, 1-ro'yxat, 485-hujjat, 330, 331, 334-varaqlar.

**TARIX****XIVA XONLIGIDA ATROF-MUHIT MUHOFAZASIGA  
OID BA'ZI MASALALAR**

**Umida  
TAJIYEVA**  
Urganch davlat  
universiteti tayanch  
doktoranti

**UO‘K 574.510**

***Annotatsiya:** mazkur maqolada Xiva xonligi davrida atrof-muhit muhofa qilish bo‘yicha olib borilgan ishlar tadqiq qilingan.*

***Аннотация:** в статье изучается работа, проводимая по охране окружающей среды во времена Хивинского ханства.*

***Annotation:** in this article, the work carried out on environmental protection during the Khiva Khanate is studied.*

***Kalit so‘zlar:** Xiva, xonlik, tabiat, yer egaligi, dehqonchilik.*

***Ключевые слова:** Хива, ханство, природа, землевладение, земледелие.*

***Key words:** Khiva, khanate, nature, land ownership, agriculture.*

O‘zbekiston tarixini manbalar asosida o‘rganish hozirgi davrda dolzarb va ayni vaqtda davr talabi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Birlamchi ma’lumotlar, ular qaysi davrga oid bo‘lmasin, o‘zining tarixiyligi bilan ajralib turadi.

XVII-XIX asrlarda Xiva xonligiga oid tarixiy asarlarda hududdagi shaharlar, daryo va kanallar, ko‘l va quduqlar, ekin maydonlari va qumzorlar haqida tarixiy – geografik ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Jumladan, Abulg‘ozixon, Munis, Ogaxiy va Bayoniyning tarixiy asarlarida voqealar bayon etilgan bo‘lib, xonning biror joyga yurishini tasvirlaganda yo‘l yo‘lakay uchragan shahar, daryo va ko‘llar hamda boshqalar haqida ma’lumotlar qoldirganlar.

Abulg‘oziyxonning “Shajarayi turk” nomli asarida Xorazmning qishloq xo‘jaligi, irrigatsiya, savdo, soliq ishlari, ma’muriy tuzilishi haqida ham muhim ma’lumotlar aks ettirilgan. Shuningdek, ushbu asarda o‘zi va o‘g‘li Anushaxon zamonida mamlakat qishloq xo‘jaligida bog‘dorchilik va donchilikka alohida e’tibor berilganligi, Mizdahqon qal’asidan to Quyg‘un dohasigacha bug‘doy ekilganligi haqida qimmatli ma’lumotlar bor.

1831-1832-yillarda xorazmlik olim, ulamo Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammad tomonidan Xiva shahrida amir Rahmonquli inoq topshirig‘i bilan yozilgan “Dili g‘aroyib” asarining qo‘lyozma nusxalari Abu Rayhon

Beruniy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik qo‘lyozmalar institutida saqlangan. “Asar geo-kosmografik mazmunda yozilgan bo‘lsa-da, undan koinot, astronomiya, sayyoralar, geologiya va geografiya, geodeziya, etnografiya, teologiya-dinshunoslik, botanika, zoologiya, ekologiya, bola tarbiyasi, urf-odat va an‘alar, kiyinish, oziq-ovqat, dorishunoslik, tabiatshunoslik, daryolar, tog‘lar, cho‘llar, tarix ilmlariga oid ko‘plab bilimlarga ega bo‘lish bilan birga, XIX asrda xorazmliklarning olam tuzilishi to‘g‘risidagi diniy-dunyoviy qarashlari haqida ham tasavvur uyg‘otadi [Polvonov: 31].



Xorazm tarixiga doir qimmatli va qiziqarli ma‘lumotlar chet ellik sayyoh va tadqiqotchilarning kundaliklarida ham yoritiladi. Rus podshosi yorlig‘i bilan 1558-yili Xivaga kelgan ingliz savdogari Antony Jenkinson o‘z kundaliklarida XVI asr yarmidagi Xorazmning ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlarini aks ettiruvchi qimmatli ma‘lumotlarni bayon qilgan. Xususan, u “...Butun mamlakat foydalanayotgan suv Oksus daryosidan kanallar orqali olinadi. Mana shuning uchun ham uning suvi ilgariidek Kaspiy dengizga quyilmay qo‘ygan” deb ta‘kidlagan.

Xiva xonligiga 1740-1741-yillarda Orenburg otliq polki ofitseri poruchik Gladishev va geodezist Muravinlar tashrif buyurdi. Ularning etnografik kuzatuvlari o‘laroq xonlikka doir turli-tuman qiziqarli ma‘lumotlar yig‘ildi. Ekspeditsiya paytida ular tomonidan Xiva qal‘asi va xonlikning ma‘muriy-geografik chizma xaritasi yaratilgan.

Xiva va xonlik to‘g‘risidagi materiallar XIX asr 40- yillariga kelib yana rang-barang tarzda aks etardi. Jumladan: 1840-yili “Otechestvennye zapiski”

jurnali sahifalarida G.Gelmersenning “Xiva endilikda o‘zining holatida” maqolasi bosilib chiqdi. Xivaga 1841-yilda kelgan ekspeditsiya tarkibida topograf Aitov Xiva xonligida ko‘plab tasvirlarni rasmga olgan. Bu rasmlar 1845-yilda Berlinda tuzilgan Xorazm ko‘rinishlarini ifodalovchi kartaga kiritildi.

Shuningdek, muhim tarixiy malumotlarni 1842-yilda Xivaga elchilik munosabatlari bilan kelgan podpolkovnik G.I.Danilevskiy yozib qoldirgan. Uning karvoni tarkibida kelgan tabiatshunos F.I.Baziner Xorazm o‘simliklari va ularning turlari haqida qiziqarli ma’lumotlar beradi.

1873-yili Rossiya geografik jamiyati ilmiy kotibi, sharqshunos olim P.I.Lerx tayyorlagan dasturda Amudaryo o‘zanining va irmoqlarining o‘zgarishi, Amudaryo oqimining o‘zgarishi bilan Xiva vohasidagi madaniy maydonning qadimgi Xorazm maydoniga nisbatan Amudaryoning oqimi o‘zgarishi bilan kengayish yoki kamayish tomonlarini aniqlab ko‘rsatish masalasi ham qo‘yilgan.

Rus zoolog olimi Bogdanov xonlik aholisiga katta hurmat bilan qaragan, ularning mahorati va mehnatevarligini yuksak baholagan, chunki shu tufayli Xiva vohasi dehqonchiligi yuksak darajada bo‘lgan. “Bu tinchliksevar cho‘l kultivatorlari tabiatda hech narsani yo‘q qilmadilar, – deb yozgan edi Modest Nikolayevich, – lekin mahalliy faunani boyitishgan. Ular joy tanlashda adashmaganlar. Jonsiz taqir yerlarni gullab-yashnagan vohaga aylantirish uchun ko‘p mehnat talab qilingan, endilikda atrofi suvsiz cho‘llar, qumlik bilan o‘ralgan bu hudud o‘zining mahsuldorligi va sog‘lom iqlimi jihatidan dehqonchilik, bog‘dorchilik, vinochilik va ipakchilik uchun eng qulay joylardir” [Bogdanov: 131].

Yangi kanallar qazish, yangi yerlarni o‘zlashtirish, sug‘orish ishlarini kengaytirish kabi masalalar xonlikning iqtisodiy hayotini va siyosiy mavqeini belgilashda asosiy omillardan biri edi. Y.G‘ulomov “Xorazm kabi asosiy farovonligi sug‘orma dehqonchilik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan mamlakatda irrigatsiyaga g‘amxo‘rlik qilish davlat ishi edi”, – deya ta’kidlagandi [G‘ulomov: 13].

Xiva xonligida hashar yo‘li bilan erta bahorda yirik sug‘orish inshooti bo‘lgan kanallar va ulardan yon tomonga chiqarilgan ariq va yoplar tozalangan. Qishloq aholisi hashardagilarni oziq-ovqat bilan ta’minlab turish maqsadida tozalangan yoki Amudaryodan chiqarilgan yangi ariq marosimi uchun bug‘doy, biya, oq toychoq, qo‘chqor, echki sotib olib, qurbonlik qilganlar [Snesarev: 239].

Umuman olganda tarixiy manbalarda nafaqat xonlikning ijtimoiy- siyosiy, iqtisodiy hayotiga oid, balki tabiatiga oid muhim ma’lumotlarni ko‘rish mumkin.

**TARIX****VAZIR SHAHRINING TARIXIY JARAYONLARDAGI MAVQEI**

**Gulzoda  
IBRAXIMOVA**  
Urganch innovatsion  
universiteti o'qituvchisi

**UO'K 574.510**

***Annotatsiya:** ushbu maqolada Vazir shahrining tarixda tutgan o'rni tarixiy ma'lumotlar va manbalar asosida yaratib berilgan.*

***Аннотация:** В данной статье место города Вазир в истории создано на основе исторических данных и источников.*

***Annotation:** in this article, the place of the city of Vazir in history is created on the basis of historical data and sources.*

***Kalit so'zlar:** Xorazm, Vazir, xonlik, sulola, arxeologiya, sug'orilish tarixi.*

***Ключевые слова:** Хорезм, Вазир, ханство, династия, археология, история ирригации.*

***Key words:** Khorezm, Vazir, khanate, dynasty, archeology, history of irrigation.*



Akademik Yahyo G'ulomov "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida yozishicha, "15 asrgacha Vazir yoki boshqa bir shahrning bo'lganligi manbalarda ko'rsatilmaydi. Shu bilan birga, Vazir shahrining arxeologik stratigrafiyasi Devkesgan qa'lasining xaroblari o'zining kelib chiqishi bilan qadimgi davrlarga mansubligini ko'rsatadi. O'rta asrdagi Vazir shahri esa, arxeologik, shuningdek tarixiy ma'lumotlarga asoslanib qaralganda, 15 asrda bunyodga kelgan. Bu narsa 15 asr va 16 asrning boshlarida Vazirning atrofida shahar xarobalari bo'lgan degan taxminga olib keladi. Ammo bunday xarobalarning

bo'lmasligi, Xiva xoni va tarixchi Abulg'ozii (1603-1664) Vazirning janubida

hamda shimoliy-sharqida joylashgan qadimiy va eng ilgarigi shahar va qal'a xarobalarini ko'zda tutgan bo'lsa kerak, degan fikrga olib keladi" ("Xorazmning sug'orilish tarixi", Toshkent- 1959, 183-bet).

V.V.Bartoldning fikricha, Vazir Urganchdan 30-35 km janubroqda bo'lib, baland bir tepalik ustida joylashgan. S.P.Tolstov esa Vazir qal'asi qadimiy shahar o'rniga qurilganligini, mustahkam devor va boshqa mudofaa istekomlari bilan o'ralgan zamonaviy bir shahar bo'lganligini aniqlagan. Akademik Bo'riboy Ahmedovning yozishicha esa "Vazir-Ustyurtning janubiy etagida baland tepalik ustiga qurilgan bo'lib Ko'hna Urganchdan 40-60 km masofada joylashgan shahar bo'lgan" ("Tarixdan saboqlar", Toshkent- 1994-yil 168-bet).

Vazir shahrining barpo bo'lishi bilan bog'liq turli xil fikrlarning mavjudligi mavzuning tarix ilmida naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Vazir shahrining bunyodga kelishi 15 asrning o'rtalarida Xorazmning janubiy-g'arbiy qismini bosib olgan ko'chmanchi o'zbeklardan bo'lgan Mustafaxon nomi bilan bog'liq. Mustafaxonning Xorazmga kelib Vazir shahrini barpo qilishi haqida hikoya qilishni Dashti Qipchoqdagi o'zbek urug'laridan boshlasak. Negaki, Vazirning, nafaqat Vazir, balki Xiva xonligining tashkil topishi ham o'zbek urug'larining faoliyati bilan bog'liq. Ma'lumki, 14 asrning boshlarida, Jo'ji ulusi ikki mustaqil davlatga (Ko'k O'rda va Oq O'rdaga) bo'linib ketadi. Rasmiy ravishda Oq O'rda Ko'k O'rdaga bo'ysundirilgan bo'lsa-da, hokimiyat jo'ji naslidan bo'lgan O'rda Ichan avlodi qo'lida bo'lgan. Ko'k O'rdada Botuxon va To'qay Temurning avlodlari hukmronlik qilgan. Shunga qaramay taxt uchun sulolalar o'rtasida o'zaro kurashlar bo'lib turdi. Birgina 1360-80 yillar oralig'ida Oltin O'rdada Chingizxon naslidan bo'lgan 25 xon birin-ketin taxtda o'tirganlar. Hatto 1366-yili hokimiyatni egallagan Mamay va Abdullalar Xorazmda ham o'z hukmronligini o'rnatadilar. Shu tariqa yillar davomida Jo'ji ulusi hududlarida hokimiyat uchun kurashlar bo'lib o'tadi.


1428-yilga kelib ko'pchilik o'zbek urug'larining qo'llab-quvvatlashi bilan Abulxayrxon ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi. Garchi uning hukmronligi 1446-yilgacha davom qilgan bo'lsa-da, uning davlati Markaziy Osiyo xalqlarining taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Abulxayrxon o'z qo'lida hokimiyatni saqlab qolish va qo'shni hududlar hisobiga o'z davlat chegaralarini kengaytirish maqsadida bir qancha joylarga hujum uyushtirdi. Jumladan, u 1431-32 yillarda Xorazmga ham yurishlar qildi. Abulxayrxonning davlati qanchalik qudratli bo'lmasin, unga qarshi bo'lgan muxoliflar yildan-yilga ko'payib bordi. Ana shundaylardan biri ko'chmanchi o'zbek xonlaridan biri bo'lgan Mustafaxon edi. U o'z qabilasi bilan Ishim daryosi va uning irmog'i bo'lgan Otbosar daryosi bo'ylarida ko'chib yurgan. U mang'itlar

urug‘i yo‘lboshchisi Vaqqosbiyning gij-gijlashi bilan Abulxayrxonga qarshi katta kuch to‘plab urush olib boradi. Biroq Mustafaxon, Abulxayrxon tomonidan jangda mag‘lubiyatga uchrab, qolgan askarlari bilan Mang‘ishloqqa qochib ketadi. Oz-moz kuch to‘plab, 15 asrning o‘rtalarida Xorazmning janubiy-g‘arbiy qismini bosib oladi. Olib borilgan qattiq janglar natijasida Urganchni ham qo‘lga kiritadi. Urganch aholisining bir qismini o‘zi barpo qilayotgan Vazir shahriga ko‘chiradi. Mustafaxonning Xorazmdagi faoliyatida Vazir unga poytaxt maqomida xizmat qiladi. Biroq uning hukmronligi uzoq davom etmadi. 1460-yildan Qo‘ng‘irot amirlaridan bo‘lgan Usmon Qo‘ng‘irot Yoqub o‘g‘lon ismli bir shaxs bilan Mustafaxonga qarshi kurash olib boradilar. “Xondamirning yozishicha, aslida Vazir aholisi Mustafaxonga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan. Usmon Qo‘ng‘irot bo‘lsa bundan o‘z manfaati uchun ustalik bilan foydalangan. Mustafaxon bu gal ham Mang‘ishloqqa ketib qolgan” ( B.Ahmedov, “Tarixdan saboqlar”, Toshkent- 1994-yil 76 bet).

Mustafaxonning Xorazmdagi hukmronligi yemirilishida Sulton Husayn Boyqaroning ham roli bo‘lgan. U 1460yilda Sulton Abu Saidning ta‘qibu tazyiqi ostida Astraboddan qochib, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘iga o‘tib oladi. Hokimiyatni qo‘lga kiritish ilinjida Mustafaxon bilan Abu Saidga qarshi ittifoq tuzishga intiladi. Shu niyatda Vazirga-Mustafaxon qarorgohiga elchi yuboradi. Elchi Abdrahmon Jondor Mustafaxon huzuridan qaytib kelmasdan uning inisi bo‘lgan Pir Budoqxon bilan Husayn Boyqaro o‘rtasida yaqinlik paydo bo‘ladi. Og‘asi Mustafaxon qo‘lidan hokimiyatni tortib olish uchun kurashayotgan Pir Budoqxonga Sulton Husayn Boyqaro singlisi Badiha Jamolbegimni xotinlika beradi. Mustafaxon bilan emas, balki uning inisi bilan ittifoq tuzgan Husayn Boyqaro endi Vazirga-Mustafaxonga qarshi yurish qiladi. Vazir 41 kun qamal qilinadi. Qamal Husayn Boyqaro va Mustafaxonning sulh tuzishi bilan tugaydi. Bo‘riboy Ahmedovning yozishicha, “Mustafaxon do‘stlik ramzi sifatida Sulton Husayn o‘z lochin otini sovg‘a qiladi. Husayn Boyqaro ham o‘z navbatida unga Behbud laqabli otini in‘om qiladi. Sulh tuzilgach, Sulton Husayn Adoqqa jo‘nab ketdi va u yerda to 1461-yilning o‘rtalarigacha istiqomat qiladi” ( B.Ahmedov, “Tarixdan saboqlar”, Toshkent-1994-yil, 169-bet).

Xondamirning yozishicha esa, Husayn Boyqaro Adoqqa Oq So‘fining taklifi bilan borgan. O‘shandan boshlab Adoq shahri Boyqaro uchun harbiy tayanch punkt vazifasini o‘taydi. U Astrabod, Xuroson va Xorazmning boshqa hududlariga hujumlarini Adoqda reja tuzgan holda olib borgan. Agar o‘tkazilgan hujumlarda mag‘lubiyatga uchrasa yana qaytib Adoqdan panohtopardi.





Husayn Boyqaro shu taxlit qulay vaziyatni poylagan holda Xurosonda Abu Saidning yo‘qligidan foydalanib, 1461yili Xurosonga hujum qiladi. Biroq 1462-yili Abu Said uni Xuroson hududlaridan quvib chiqaradi. Shunda Husayn Boyqaro Adoqqa qochib kelgach Vazirga-Mustafaxon oldiga odam yuborib u bilan ittifoq

tuzmoqchi bo‘ladi. Ilgari u bilan sulh tuzgan Mustafaxon Vazir xalqining Usmon Qo‘ng‘irot boshchiligida qo‘zg‘olon ko‘targanidan bo‘lsa kerak, Boyqaro bilan ittifoqchilik qilmay, Mang‘ishloqqa qochib ketadi. Vazir shahrida yuzaga kelgan qulay vaziyatdan foydalangan Boyqaro Vazirga qarshi hujum uyushtiradi. Vazir yana qamal qilinadi. Nihoyat, og‘ir janglardan so‘ng shahar egallanadi. Xondamir 1464-yilda Boyqaro Vazirni qo‘lga kiritgach aholining Urganchga ketishiga ruxsat berganini yozadi. Ma‘lumki, Mustafaxonning poytaxti bo‘lgan Vazir shahrini barpo etish uchun Urganch aholisining ko‘pchiligi majburan qatnashgandi. Akademik Yahyo G‘ulomovning yozishicha, “15 asrning ikkinchi yarmida Vazirning yuksalishi siyosiy negizda ro‘y bergan” (“Xorazmning sug‘orilish tarixi”, Toshkent-1959-yil, 183-bet).

Biroq Xorazmda Husayn Boyqaroning hukmronligi uzoqqa bormadi. 1464-yili Abu Said o‘lkani qo‘lga olib, u yerga noibi amir Nursaidbekni yuboradi. Shunga qaramay, Boyqaro yana Abu Saidga qarshi hujum qilib, Urganch, Xiva, Hazorasp Tirsak shaharlarini bosib oladi. B. Ahmedovning fikricha, “bu davrda Xorazm temuriylar davlatiga nomigagina bo‘ysunardi. U amalda amir Nongadoyning avlodi Chin So‘fi qo‘lida edi. Chin So‘fi Xorazmni 1505-yilga qadar idora qildi” (B. Ahmedov, “Tarixdan saboqlar”, Toshkent-1994-yil, 170-bet).

TARIX

## BAYONIYNING TARIXIY ASARLARIDA AKS ETGAN TARIX



**Soxiba  
MATYAKUBOVA**  
Urganch  
innovatsion  
universiteti  
o'qituvchisi

**UO'K 514.40**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Muhammad Yusuf Bayoniyning qalamiga mansub tarixiy manbalarga tavsif berilgan, ularning tili, yozilish usullari hamda O'zbekiston tarixini o'rganishdagi ahamiyati va qiymati tarixiy adabiyotlar va manbalar orqali tahlil qilingan

**Аннотация:** В данной статье описаны исторические источники, написанные Мухаммадом Юсуфом Баяни. Их язык, методы письма, а также их значение и значение в изучении истории Узбекистана были проанализированы на основе исторической литературы и источников.

**Annotation:** This article describes historical sources written by Muhammad Yusuf Bayani. Their language, writing methods, and their importance and value in studying the history of Uzbekistan were analyzed through historical literature and sources.

**Kalit so'zlar:** Tarixnavislik maktabi, qo'lyozma, majoz, istiora, zu-l-qa'da, Ogahiy, «Xorazm tarixi», Xiva, A.Nosirov.

**Ключевые слова:** Школа историографии, рукопись, метафора, метафора, зу-л-каада, Огахи, «История Хорезма», Хива, А. Носиров.

**Key words:** School of historiography, manuscript, metaphor, metaphor, zu-l-qa'da, Ogahi, "History of Khorezm", Khiva, A. Nosirov.

Munis va Ogahiylar shakllangan ilmiy va adabiy muhitda Muhammad Yusuf Bayoniy ham yashab ijod etdi. U tarixchi sifatida o'zining «Shajarayi Xorazmshohiy» va «Xorazm tarixi» (ikkinchi asar oxiriga yetmagan) asarlari bilan Xorazm tarixnavislik maktabida nom qoldirdi. Muhammad Yusuf Bayoniy bu tarixiy asarlari bilan Xorazmda uzoq asrlar davom etib kelgan tarixnavislik maktabi an'alarini davom ettirdi<sup>1</sup>. U Munis va Ogahiyning tarixiy asarlaridagi voqealarni qaytadan yozib to'ldirdi. O'z davri voqealari asosida «Shajarayi Xorazmshohiy», «Xorazm tarixi» nomli asarlari bilan xonlik tarixida yangi sahifalarni ochdi. Uning «Shajarayi Xorazmshohiy» nomli asarida Munis va Ogahiylar tomonidan tavsiflangan qadimgi davrdan to 1873 yilgacha bo'lgan tarixiy voqeyliklarning bayoni bilan birga, 1873 yildan 1914 yillargacha bo'lgan

<sup>1</sup> Hasanov S. Xorazm ma'rifati olam ko'zgusi. –T.: O'qituvchi, 1996. – B. 294.

voqealar ham tasvirlanadi<sup>1</sup>. Mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishiga ko‘ra bu asar Munis va Ogahiy tarafidan yozilgan tarixiy asarlarning xulosasi va davomi hisoblanadi. Bu mualliflarning asarlari solishtirilganda shu ma‘lum bo‘ldiki, Munis va Ogahiy asarlari dabdali, murakkab til bilan yozilgan bo‘lib, ularda arabcha va forscha so‘zlar va qiyin iboralar ko‘p uchraydi. Bayoniy esa Munis va Ogahiyning asarlarini bir jildga to‘plab, ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lgan sodda til bilan qayta yozdi. Bu haqda muallif asar so‘zboshisida aytib o‘tadi: «Ogahiy ham Munis Mirobning birodarzasasi va dastparvardasi erdi. Uning uslubida majoz va istiora bilan so‘z bayon etar erdikim, kalomining diqqati sababdin omma xalqi maoniylarin fahm eta olmas erdilar. Ul ham bu yo‘sunda du bora so‘z boshlab, Olloqulixondan to Muhammad Rahimxon II zamonigacha, har xonning voqeotin bir mujallada bayon etib, har birin bir ism bilan mavsum etdi. Ul hazratning (Muhammad Rahimxon II) ayyomi saltanatlaridan ham kam besh-yetti yil voqeotin tahrir silkiga chekdi... Bu nusxalarning maolik fahm etib, borin bir mujalladga jam’ qilmoqg‘a ma‘mur bo‘ldim»<sup>2</sup>.



Muhammad Yusuf Bayoniy asarlarini yozishda obyektivlik tamoyiliga amal qilingan, biryoqlamalikdan qochilgan, tarixiy voqealar haqqoniy xolis yozilganligini ko‘rishimiz mumkin.


Bayoniy asarlaridagi ma‘lumotlar ishonchliligi bilan ham ahamiyatlidir. Muallif tarixnavislik haqida shunday yozadi: «Tarix kitobi yozishni bir sharti bor. Tarixiy voqealarni yozuvchi tarafdorlik etmasdan bo‘lgan voqealarni rostlik bilan bayon etishi kerak. Agar rostlik bilan bayon etmasa uning so‘zlari hech bir odamga ma‘qul bo‘lmaydi»<sup>3</sup>. Bu so‘zlar Bayoniyning tarix yozish mezoniga rioya

<sup>1</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. – T.: Adabiyot va san‘at, 1994. – B.4.

<sup>2</sup> Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. – T.: Adabiyot va san‘at, 1994. – B.4.

<sup>3</sup> Bayoniy. Xorazm tarixi. // Qo‘yozma. O‘zFA SHI. 5-6 varaq.

etganini ko'rsatadi. Umuman olganda, muallif asarlarini o'sha davr tarixiy jarayonlari asosida xolisona yozib qoldirgan. Uning «Shajarayi Xorazmshohiy»



asari 16 bobdan iborat. Asarning muqaddimasida uning yaratilish sabablari aytib o'tilgan<sup>1</sup>. Jumladan, Bayuniy «Shajarayi Xorazmshohiy» asarini yozish buyrug'ini xondan Tolibxo'ja ibn Avazberdi orqali 22 juma kuni (1329/1911 yili 10 may) oladi. Qo'lyozma Xiva xoni Asfandiyorxon buyrug'iga ko'ra ko'chirilgan. Qo'lyozmaning 16 – varag'ida oltin suvi va ko'k bo'yoqlar bilan bajarilgan unvon mavjud. Mazkur nusxa 1333 yili, zu-1-qa'da oyining birinchi kuni, (10 sentabr 1915 yili) Usta Juma Niyozning o'g'li Muhammad Ya'qub tomonidan nasta'liq xatida, fabrika qog'oziga ko'chirilgan<sup>2</sup>. Asar 509+6 varaqdan iborat va o'lchovi 22x29 sm<sup>3</sup>. Ushbu nusxani 1954 yili akademik Ya. G'ulomov Sharqshunoslik

institutiga hadya etganligi ma'lum. Undan oldin mazkur asar qaysi kutubxonada saqlangani ma'lum emas.

Bayuniyning ikkinchi tarixiy asari «Xorazm tarixi» deb nomlangan bo'lib, muallif asar muqaddimasida shunday yozgan: «Endi bu kengchilik va farovon zamonda Xorazm xalqi zolimlarning zulmlaridan mutloq qutuldilar va ozod bo'ldilar, endi tinchlik bilan bu kitobni avvaldan boshlab yozaman, undagi xonlarga xush keladigan ortiqcha so'zlarni xushomadgo'yliklarni olib tashlab, zolimlardan qo'rqib ayta olmagan so'zlarni rostlik bilan yozaman»<sup>4</sup>. Muallifning bu so'zlaridan asar Xorazm inqilobidan so'ng, adolat mezoniga asoslanib yozilganligini anglash mumkin.

Bayuniyning «Xorazm tarixi» nomli asari muallif rejasiga binoan 16 bobdan iborat bo'lishi lozim edi. Asar muallif tomonidan 1339/1920-21 yili

<sup>1</sup> Munirov Q. Ko'rsatilgan asari. – B.56-57.

<sup>2</sup> Xorazmda bitilgan qo'lyozmalar. – T.,1997. – B.17.

<sup>3</sup> Qaralsin: // Qo'lyozma .O'z FA ShI. – № 9596. Yana qarang: SVR, VII. – № 5031.

<sup>4</sup> Bayuniy. Shajarayi Xorazmshohiy. – B.178

yozilgan. Undagi voqealar bayoni 1336/1918 yilgacha, ya'ni Xiva xoni Asfandiyorning vafotigacha berilishi mo'ljallangan. Muallifning so'ziga qaraganda bu asar «Shajarayi Xorazmshohiy»ning to'ldirilgan varianti edi. Biroq, tavsif etilayotgan asar to'liq emas. U faqatgina yettinchi bobning boshlanishi xon Eltuzarning (1219-1221/1804-1806yy.) hukumati bayoni bilan tugab qoladi. Bundan asar tugallanmay qolgan degan taxmin qilish mumkin. Hozirgacha «Xorazm tarixi»ning yagona nusxasi O'zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Xati nasta'liq, qog'ozi o'quvchi daftari, hajmi 90+1 varaq, 22x36. Qo'lyozma nusxasi XX asrning birinchi choragining oxirida ko'chirilgan<sup>1</sup>. Mazkur nusxaning oxirida A.Nosirov va A.Juvonmardievlarning asarning qimmatini haqidagi qaydlari ham mavjud.

Munis va Ogahiy asarlari singari Bayoniy asarlari ham tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib o'zining yuksak bahosini olgan. Jumladan, akademik Ya.G'ulomov Ogahiy yozgan tarixning Bayoniy tomonidan qayta yozilgan qismi (1846-1873 y) haqida gapirib quyidagilarni yozadi: «Ogahiy asarlaridagi ma'lumotlarni Bayoniy ma'lumotlari bilan solishtirib ko'rilganda katta tafovut yo'q, ammo Bayoniyda uchraydigan va diqqatga sazovor ba'zi bir ma'lumotlar to'liqroq bo'lib, Ogahiy asarlarida mukammal emas»<sup>2</sup>. Shuningdek tarixchi M.Y.Yo'ldoshev Bayoniy asarlari haqida: «Bayoniyning asari faktik materiallarning ko'pligi va voqealarni izchil bayon qilishi jihatidan Munis va Ogahiyning ko'p tomli qo'lyozmalariga nisbatan ham qimmatliroqdir»<sup>3</sup> degan so'zi haqiqatdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. – T.: Adabiyot va san'at, 1994. – B.4.  
Bayoniy. Xorazm tarixi. // Qo'lyozma. O'zFA ShI. 5-6 varaq.  
Hasanov S. Xorazm ma'rifati olam ko'z gusi. – T.: O'qituvchi, 1996. – B. 294  
O'z FA ShI. Qo'lyozmasi. – № 7421. Yana qarang: SVR, VII. – № 5034  
Xorazmda bitilgan qo'lyozmalar. – T., 1997. – B.17.  
G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. – T., 1959. – B.14.  
1 Yo'ldoshev M. Xiva davlat hujjatlari. T. 2. – T.: Fan, 1960. – B.23.

<sup>1</sup> O'z FA ShI. Qo'lyozmasi. – № 7421. Yana qarang: SVR, VII. – № 5034.

<sup>2</sup> G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. – T., 1959. – B.14.

<sup>3</sup> Yo'ldoshev M. Xiva davlat hujjatlari. T. 2. – T.: Fan, 1960. – B.23.

**FILOLOGIYA****BADIIY ADABIYOTDA SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDI  
TIMSOLI**

**Madina  
MATYAKUBOVA**  
Xiva shahridagi Ogahiy  
nomli ijod maktabining  
o'qituvchisi, filologiya  
fanlari nimzodi

**UO'K 574.511**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Jaloliddin Manguberdi timsoli tasvirlangan o'zbek adabiyotidagi asarlar tahlil eyiladi.

**Аннотация:** в статье анализируются произведения узбекской литературы, изображающие образ Джалалуддина Мангуберди.

**Annotation:** this article analyzes the works of Uzbek literature depicting the image of Jalaluddin Manguberdi.

**Kalit so'zlar:** Jaloliddin Manguberdi, o'zbek adabiyoti, drama, doston, roman.

**Ключевые слова:** Джалалуддин Мангуберди, узбекская литература, драматургия, эпос, роман.

**Key words:** Jalaluddin Manguberdi, Uzbek literature, drama, epic, novel.

Milliy tariximizda o'z Vatani, millati, ona tuprog'i, tili, madaniyati, ma'naviyatini har bir yoshga o'rnak bo'ladigan qahramon sifatida tasvirlash eng muhim va dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Ana shunday timsollardan biri so'nggi xorazmshoh Sulton Jaloliddin obrazidir.

Xorazmshohlar davlatining so'nggi hukmdori, mohir sarkarda Sulton Jaloliddin Manguberding asl to'liq ismi Jaloliddin Mengburni ibn Alouddin Muhammad ibn Alouddin Takash ibn Tojiddin El Arslon ibn Otsiz Qilich Arslon ibn Qutbiddin Muhammad Oybek ibn Anushtegin bo'lib, milodiy 1199 – 1231-yillar oralig'ida yashagan .

O'z Vatanining erki, ozodligi, yurt qayg'usi, millat sha'ni, or-nomusi uchun kurashda asl yigit qanday bo'lmog'i lozimligini amalda ko'rsata olgan milliy qahramon sifatida uzoq asrlardan buyon tillarda va dillarda mangu yashamoqda.

Buyuk shaxs, milliy qahramonimiz Sulton Jaloliddin Manguberding tillarda doston bo'lgan vatanparvarlik jasorati, mardligi, surati va siyrati haqida juda ko'plab tarixiy, ilmiy, badiiy asarlar yaratildi. O'z davrida shaxsiy kotibi bo'lgan Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning “ Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburniy”, Shamsuddin al- Javziyning “Mir'ot az-zamon fi tarix al-a'yan”, Izzuddin al-Jaziriyning “Al-Komil fit-ta'rix”, Alouddin Otamalik Juvayniyning “Tarixi jahonkushoiy Juvayniy”, Rashididdin Fazlullohning “Jome'ut-tavorix”,

Hamidulloh ibn Abu Bakr Mustavfiyning “Tarixi guzida” kabi tarixiy asarlari va 1220-1221-yillarda yozilgan Muhammad Avfiy Buxoriy qalamiga mansub “Lubob ul-albob” tazkirasida xorazmshohlar sulolasining hayoti va faoliyatiga oid qimmatli tarixiy va adabiy ma’lumotlar berilgan. Ana shu va shu kabi asarlar negizida turli davrlarda qator ilmiy-badiiy asarlar yaratildiki, shu asnoda Sulton Jaloliddin obrazi ko‘z oldimizda gavdalantirildi.



Oradan uzoq vaqtlar o‘tib, XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan turkiyalik adib, tarixchi, davlat arbobi Nomiq Kamol (1840-1888) 1874 -yilda Jaloliddin Manguberdi haqida tarixiy drama yaratadi. Bu dramaning tarixiy ahamiyati shundaki, 1876-1897-yillarda usmonli imperiyasiga qarashli bo‘lgan Misr hududlarida sahnalashtiriladi. Bu esa shu tarixiy davr uchun Usmoniylik imperiyasi aholisida o‘z yurtining ozodligi va erki uchun dushmanga qarshi vatanparvarlik, shijoat, va jasorat tuyg‘ularini qo‘zg‘atadi.

O‘zbek adabiyotida ilk bor XIII asrda Chingizxon istibdodiga qarshi mardlarcha kurash olib borgan mohir sardarda, buyuk vatanparvar, sheryurak bahodir, Vatan, millat uchun tolmas kurashchi Jaloliddin Mengburni haqida shoir, dramaturg, tarjimon Maqsud Shayxzoda o‘zbek adabiyotida ilk badiiy asar yaratishga jazm qiladi. 1943-yildan ushbu dramani yozish uchun tarixiy manba va hujjatlarni o‘rgana boshlaydi. 1944-yilda besh pardadan iborat – “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy fojiasini yozib tugatadi. Dramaga Shahobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburniy”, Alouddin Otamalik Juvayniyning “Tarixi jahonkushoiy Juvayniy” asarlaridagi ma’lumotlarni asos qilib oladi. Zero, sovet davri tarixchilarining asarlarida Jaloliddin Manguberdi nomi, jangovar jasorati haqida hech qanday iliq fikrlar berilmagan edi.

Akademik Naim Karimov o‘zining “Maqsud Shayxzoda” ma’rifiy romanida shunday ma’lumot beradi: O‘sha paytdagi mamlakat rahbari Usmon Yusupov Maqsud Shayxzodaga: “Boshqa ishlar bilan xayolingni bo‘lma. Xalq va armiya sendan Jaloliddin to‘g‘risidagi asarni intizorlik bilan kutmoqda. Vodilga borib, uni tezroq tugallab qayt!”, – degan daldasi bilan Maqsud Shayxzoda 1944-yilda besh pardadan iborat “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy fojiasini yozib tugatadi. Dramani yozish uchun nafaqat, tarixiy hujjatlar, balki Sirdaryo bo‘yidagi

Xo‘jand qal’asining mudofaa qo‘rg‘oniga borib, qadimiy istehkom vayronalarini, Sulton Jaloliddin va Temur Maliklarning izlarini izlab shu joylarni o‘z ko‘zi bilan ko‘radi. Shuningdek, dramaning muvaffaqiyatli va ishonarli chiqishini ta‘minlash uchun shogirdini Marg‘ilonga yuborib, Xudoyorxon lashkarida xizmat qilgan keksa kishilarni toptirib, ularning suhbatini oladi. O‘sha paytda qo‘llangan qurol-yarog‘larning nomlarini aniqlash orqali dramaning ishonchli chiqishiga muvaffaq bo‘ladi. Maqsud Shayxzodaning tashabbusi bilan tarixda ilk bor, Jaloliddin Mengburni emas, Jaloliddin Manguberdi nomi bilan mangulikka daxldor bo‘ldi.



O‘sha tahlikali davr uchun askarlarni ruhlantirish, dushmanga nisbatan murosasiz bo‘lib, vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish suv bilan havodek zarur edi. Maqsud Shayxzoda bu ishni sharaf bilan uddaladi, Vatan uchun kurash muqaddas vazifa ekanligini ifodalab, xalqning, askarlarning g‘alabaga bo‘lgan ishonchini oshirish, ularga ruhiy madad berish uchun mohirlik bilan Jaloliddin Manguberdi timsolidan foydalandi.

Mustaqillikka erishilgach, xalqimizning asriy orzu-armonlari ushalib, qora gardlar bilan soxtalashtirilgan tariximiz yuzidagi dog‘lar ketib, yarqiray boshladi. Haqiqatlar sari yuz tutildi.

Xorazm adabiy muhitining ilg‘or vakillaridan biri sanalgan Erkin Samandar 1999-yilda Sulton Jaloliddin Manguberdi haqida nasr va nazmda qator asarlar yozib, “Sharq” nashriyot-matba konserni bosh tahririyatida chop qildirdi. Muallif kitob so‘zboshisida shunday yozadi: “Jaloliddin Manguberdi haqida asar yozish orzusi oltmishinchi yillarda yuragimga cho‘g‘ tashlagan. Avval baytlar bitdim, she’rlar yozdim. “Xiva” she’ridagi “Jaloliddin bo‘lib tulporda daryoni kechib yoxud” misrali band, “Xorazm farzandiman” she’ridagi:

Men u kunlar hasratida o‘rtanib yonmay nechun,

Hali ham vayronalarda izg‘isa achchiq tutun .

Mard Jaloliddin yiqildi jangda shu tuproq uchun,

Men shu tuproq vorisiman, men shu el farzandiman –

kabi misralar ilk izlanishlarimdan tug‘ilgan”.

Shundan so‘ng adibning “Olis nidolar”, “Ona va o‘g‘il”, balladalari, “Temir qoziq bog‘i” she’ri, “Ajodlar qilichi” she’riy-tarixiy dramasi davomi sifatida “Hayratli dunyo” romani, ikki qismli “Yot hujra” tarixiy fojiasi, “Sen Xorazm malikasisan” kino-dostonlari Sulton Jaloliddinning qahramonona kurashlarini aks ettirgan asarlar sirasiga kiradi. Adib kitobning oxiriga yozgan “So‘ngso‘z”ida shunday yozadi:



Mayofariqin hukmdori al-Malak al-Muzaffarga Jaloliddin Manguberdi halokatini xushxabar tarzida yetkazdilar. Suyunchi olishni istaganlar o‘zlaricha fikr yurgizib, al-Malak al-Muzaffar o‘z dushmani vafotidan shodumon bo‘ladi, deb o‘yladilar.

al-Malak al-Muzaffar ularga dedi:

– Jaloliddin Manguberdi vafotidan meni shod bo‘lur deb o‘yladinglarmu? Aql-u farosatlaring yetmadimiki, ul buyuk sulton menga, bizlarga yog‘iy ermas erdi, bil‘aks ul oliy zot barcha ahli musulmonga soyabon, bizim ila mo‘g‘ul o‘rtasinda turg‘on tog‘ erdi. Suyanch tog‘imizdan judo bo‘ldik. Sizlar ersa... Eh, noqis bandalar, noqis bandalar. Adib asarni quyidagi fikrlar bilan yakunlaydi:

Zero, buyuklar o‘lmaydilar!

Iste‘dodli shoira Halimaxon Jumaniyozova 2018-yilda “Jaloliddin Manguberdi” dostonini chop qildiradi. Dostonda shoira Jaloliddinning mardligiga, dovyurakligiga, vatanparvarligiga qoyil qolib, tan bergan Chingizxon tilidan shunday yozadi :

Makonidir Xorazmning dashtidan,

Shashti kammas lochinlarning shashtidan.

Yog‘iz o‘zi avlo yuz ming pushtidan,

Bir ko‘rsaydim, shul sultonning o‘zini.

Olmos shamshir, qirq gaz qilich, qalqoni,

Olov bilan qorilganmi yo joni.

Armonim yo‘q, bo‘lsa shunday o‘g‘lonim,

Bir ko‘rsaydim, shul sultonning o‘zini.

Yuqorida zikr qilganimiz, Muhammad Avfiy Buxoriy qalamiga mansub “Lubob ul-albob” (“Ilmlar mag‘zi”, “Ma‘nolarning mag‘zi”) tazkirasida xorazmshohlar sulolasidagi to‘rtta shohning – Otsiz xorazmshoh, uning nabirasi Takash ibn Elarlon hamda Takashning farzandlari – og‘a-ini Muhammad xorazmshoh (hukmronligi 1200 – 1220) va Alishoh (vafoti – 1209) larning hayotiga oid qiziqarli ma‘lumotlar borligini qayd qilgan edik. Filologiya fanlari nomzodi Bobonazar Murtazayevning guvohlik berishicha, tazkirada yuqorida nomlari qayd qilingan xorazmshohlar sulolasi vakillarining shoirona suhbatlaridan namunalar keltiradi. Xususan, Otsiz xorazmshohning bir qit‘a, uchta forsiy ruboisi namuna sifatida keltiriladi:

On ma‘shuqi ZuhRARUX hame dosht umid,

K-on xubiyvu in ishq bimonad jovid.

Az gardishi charxu sayri mohu xurshid,

U sablati sabz kardu man mo‘y sapid

Mazmuni:

Oshiq umid uzmas ZuhRADAN hayhot,

Zebolik koni – ishq, qolsin barhayot.  
 Charx aylanur, quyosh-la oy etur sayr,  
 U hamon yosh, menda soch oqardi bot.

Yoki Jaloliddin Manguberdining otasi Muhammad xorazmshohga nisbat berilgan quyidagi ruboiyga e'tibor qaratsak:

Chun did falak namondash quvvati tob,  
 Andar kafi man teg' chu yak qatrai ob.  
 Dastam chu sahob omadu in turfa ki did,  
 Abre ki ba yak qatra jahon kard xarob.

Mazmuni :

Qolmadi quvvat-u toqat, guvoh falak,  
 Qo'limda tig' – bir tomchi subdek halak.  
 Ko'z ochib yumguncha kaftga tomchi,  
 Bir parcha bulut jahonni etur halok.

Shu tariqa qolgan ikkita shohlarning ijodidan ham namunalar keltiladi.

Fikrimizning xulosasi sifatida Bobonazar Murtazayevning ushbu tazkira beshinchi bobi xususida Muhammad Avfiyning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz deb bildik: “Ammo shoh va sultonlar she'rlarini bo'lig' shoirlarning marvarid tizimidagi singari darajada deyish fikridan yiroqmiz. Maqsadimiz ushbu daftar ularning so'z uslubi ila chiroyga to'lib, daftarimiz mazmuniga bezak bo'lsin”.

2011-yilda Nuryog'di Toshevning “Jaloliddin Manguberdi” risolasi chop qilinadi. Unda anushteginiylar sulolasining so'nggi vakili, buyuk sarkarda va davlat arbobi, milliy qahramonimiz xorazmshoh Sulton Jaloliddin Manguberdining murakkab hayot yo'li, uning mo'g'ul istilochilariga qarshi qahramonona kurashi qisqacha hikoya qilingan. Risolada keng kitobxonlar ommasiga yaxshi ma'lum bo'lmagan ayrim qiziqarli ma'lumotlar, hayotiy lavhalar haqida ma'lumotlar beriladi. Jumladan, risolaning avvalida Manguberdining shaxsiy kotibi Shahobiddin Nasaviyning “Siyrat as-Sulton Jaloliddin Mangburni” homli asarida Sultonga shunday ta'rif va tavsif beriladi: “U qorachadan kelgan, kalta bo'yli edi. Nutqu iborasi turkey bo'lsa-da, forsiy tilda ham so'zlardi. Shijoatiga kelsak, bu haqda aytish uchun men bayon etgan janglari etarlidir. U sherlar ichra sher, suvoriylar aro eng dovyurak (suvoriy) edi. Va yumshoq tabiat bo'lib, g'azablanmas va so'kinmasdi, jiddiy qiyofada yurar, kulmas, faqat tabassum qilar va ko'p gapirmas edi. U adolatni sevardi.

Uning buyukligi ham, ehtimol shundaki, u kamtarlik va mag'rurlik, vazminlik va jo'shqinlik, rahmdillik va beayovlikni o'zida birdek mujassam etgan

shaxsdir. Jaloliddinning o‘zi bitgan bir to‘rtlik uning o‘z-o‘ziga bergan xolisona bahosi kabi jaranglaydi:

Dar razm chun ohangnimu dar bazm chu mum,  
Bar do‘st muborakimu bar dushman shum.  
Az hazrati mo barand insof ba Shom,  
Va-z haybati mo barand zunnor ba Rum.

Mazmuni :

Jangda xuddi temirdek, bazmda misli shammiz,  
Do‘stlarga marhamatli, g‘animga esa shumimiz.  
Ulug‘vorligimizdan Shomga insof eltarlar,  
Haybatimiz dastidan Rumga zunnor eltarlar.

Bu she‘r eronlik olim va shoir Rizoqulixon Hidoyat (1800-1871)ning “Majma’ al-fusaho” nomli tazkirasida Jaloliddin Manguberding ijodidan namuna sifatida keltiriladi. Afsuski, Jaloliddinning boshqa she‘rlari saqlanib qolmagan”

Mana shu fikrlardan ham ko‘rinadiki, ham jisman, ham aqlan yetuk Jaloliddin Manguberdi millatimizning faxri va kelajak avlodlarga namuna bo‘la oladigan milliy qahramonimizdir.

2020-yilda yozuvchi, dramaturg Nazar Eshonqul qalamiga mansub “Jaloliddin Manguberdi” dramasi O‘zbek milliy drama teatrida sahnalashtirildi. Dramada Sulton Jaloliddinning mardligi, jasurligi, vatanparvarligi ibrat tariqasida go‘zal tarzda ochib berilganligi buyuk timsolga qo‘yilgan yana bir mangulik obidasidir.

Kichik yoshli bolajonlar uchun xalq bahodirlari va jasur sarkardalar haqidagi ertaklar juda qiziqarli tuyuladi. Shu bois 2021-yilda dunyo yuzini ko‘rgan kitobda hamkor mualliflar G‘ulomjon Atajonov, Ozoda Kulimovalar “Jaloliddin va Sayfiddin” haqidagi ertakni chop qildirdilar. Ertakda yosh avlodga bosqinchilarga qarshi mardonavor jang qilgan xalq qahramonlarini tanitish, buyuk ajdodlari bilan faxrlanish va munosib voris bo‘lib voyaga yetishishlarida xolis xizmat qilishlari bayon qilingan.

Albatta bu asarlar tariximizdan xabar berishda, kelgusi avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb qiladi.

Bu yil 80-yilligi nishonlanayotgan O‘zbekiston xalq shoiri Omon Matjon o‘zining “Haqqush qichqirig‘i” asarida shunday hikmatni keltiradi :

“Akademik shoir G‘ofur G‘ulom Xorazmning har bir g‘ishtida bobolarning ijodi” butun-butun xalqlarning tarixicha keladi, degan edi. Har g‘ishtida shuncha hikmat yashiringan imoratni kim bunyod etgan? Qachon, qanday qilib, deya murojat qilar ekan, o‘zi bu savoliga quyidagicha javob beradi.

Uning fidoiylari – To‘rabekxonimlar, Pahlavon Mahmudlar, Jaloliddinlar...

Men so‘zimni mashhur shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub timsoli singari mangulikka daxldor dramadagi Sulton Jaloliddin Manguberding quyidagi so‘zlari bilan yakunlamoqchiman:

Mangulikdan joy olgan – yashar abadiy,  
Men-ku, Manguberdiman, olam biladi.  
Ko‘klardanmi, suvdanmi, yo yer tagidan,  
Balki sahro bag‘ridan, tog‘ etagidan,  
Bir kun paydo bo‘laman shu yurt, shu yerda,  
Yurt shaydosi ko‘milmas g‘urbatda, go‘rda,  
Ulug‘vor niyatlarga kor qilmas ajal,  
Kim yurtdan yovni quvsa – mendurman o‘shal.



Darhaqiqat, shoir Botir Ergashevning bugungi kunda mashhur bo‘lgan “Mendirman o‘sha” qo‘shig‘i va qardosh turk san’atkorlari bilan hamkorlikda yaratilgan “Mendurman Jaloliddin” seriali ham aynan shu dramadagi so‘zlar bilan hamohangligining o‘ziyoq xalq, ona tuproq uchun, millat uchun, xalq uchun, kelajak uchun mangu barhayot bo‘lib qolaveradi.

Hali Sulton Jaloliddin haqida yana qanchadan qancha asarlar yozilishi tabiiy..

**FILOLOGIYA****“MIRZO ULUG‘BEK” TRAGEDIYASINING  
MATNIY-QIYOSIY TADQIQI**

**Javlon JOVLIYEV**  
*Filologiya fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori*

**UO‘K 512.133**

**Annotatsiya:** ushbu maqola Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi va uning qo‘lyozmalari tadqiqiga bag‘ishlangan. Maqolaga bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyida saqlanayotgan 831 dan ortiq Shayxzoda qo‘lyozmalari va “Mirzo Ulug‘bek” fojiasining turli davrda yozilgan variantlari asos bo‘lib xizmat qilgan.

**Аннотация:** данная статья посвящена изучению трагедии Максуда Шайхзода «Мирзо Улугбек» и его рукописей. Статья основана на более чем 831 рукописи князя и вариантах трагедии «Мирзо Улугбек», написанных в разные периоды, которые сейчас хранятся в Государственном музее литературы имени Алишера Навои.

**Annotation:** this article is devoted to the study of Maqsud Shaykhzoda's tragedy "Mirzo Ulugbek" and his manuscripts. The article is based on more than 831 manuscripts of the Prince and the versions of the tragedy "Mirzo Ulugbek" written in different periods, which are now stored in the State Museum of Literature named after Alisher Navoi.

**Kalit so‘zlar:** Mirzo Ulug‘bek, dramaturgiya, tragediya, qo‘lyozma, tadqiq, metod, matn.

**Ключевые слова:** Мирзо Улугбек, драматургия, трагедия, рукопись, исследование.

**Key words:** Mirzo Ulugbek, dramaturgy, tragedy, manuscript, research.

O‘zbek adabiyoti va san’atida tarixiy asarlarning alohida o‘rni bor. Tarix bu millatning ko‘zgusi, uning ertangi yo‘lini ochib beruvchi kalit ekanligini anglagan erta anglagan ziyolilar, bu yo‘lda o‘lmas kitoblar, sahnaviy asarlar yaratdilar. Chin ma’noda tarixiy asarlar o‘zbek adabiyoti va san’atining o‘rishini ham ta’minlagan. XX asrning ilk choragida Qodiriy, Fitrat, Hamza, Cho‘lpon, Behbudiy, Avloniy, Xoji Muin Shukrullo, G‘ozi Yunus, Xurshid qalamga olgan mavzular, qahramonlar, ko‘targan g‘oyalar, shubahsiz keyingi avlodning “ko‘zini

ochish” va ularni sovet mafkurasi ta’siridan tarixiy qahramonlar qo’li bilan qutqarib qolishga intildilar. Bunga teskari turgan kuch, ya’ni hukmdor sinf har doim o’zini qo’llovchi, propagandaga ishlaydigan, buyurtma asarlarni istadi, bunga “labbay” deganlarni e’zozladi, mukofotladi.

Davr va zamon har doim ijodkorlardan zamonaviy qahramonlarni madh etishni, hukumatni alqashni, odamlarni avrashni istaydi, bunday buyurtma “ijod”lar uchun katta rag’batlantirishlar, jumladan, unvonlar, qimmatbaho sovg’alar, qo’llovlar doim tayyor bo’lgan. Ammo vijdon va burch o’laroq ijod qilgan yozuvchi, shoir va dramaturglar tarixiy obrazlar tilidan bo’lsa-da, mavjud zamon kirdikorlarni fosh qildi, ularni ayovsiz “kaltakladi”. Fitratning birgina “Abulfayzxon” dramasida hukmdor va uning xalqqa qilayotgan zulmi, saroy ichidagi illatlar va ezilayotgan xalq haqida o’qirkansiz, bevosita muallif yashayotgan davr ko’z oldingizga keladi. Dramaturg sizni sahna orqali aslida mamlakat bugungi sahnasining tepasida nima bo’layotganini ko’rsatadi, chunki u yerdagi “tomosha”larni ko’rishga ko’pchilikning “bo’yi” yetmasligi tayin. Shuning uchun ham tarixiy asarlarning millat rivoji, uning ertangi kuni va bugunini anglash uchun “uzun bo’y” vazifasini o’tadi.

Tarixiy asarlaning o’zbek adabiyoti va san’ati tutgan o’rni haqida atoqli teatrshunos, tarixchi olim Toxir Islomovning o’zining “Tarix va sahna asarida quyidagi fikrlarini bildiradi: “O’zbek dramaturgiyasi va teatrning ilk qadamlaridan to hozirgi kunigacha bosib o’tgan ijodiy yo’liga bir nazar tashlashdayoq murakkab davrlarning qiyin so’qmoqlaridan ham o’ta olgan, ijodiy voqea bo’la olgan madaniyat tarixiga kira olgan asarlarning aksari tarixiy mavzuda ekanligini ko’ramiz” [2: 5].

Ilk o’zbek dramalari va ularning tadrijiy rivojiga nazar tashlashning o’zi bizga tarix va davrning o’ziga xos bir ziddiyatli manzarasini ko’rsatib beradi. Bu dramalarni jahon dramaturgiyalari bilan solishtirib xronologik aspektida o’rganish va ulardagi mushtarak va ayri jihatlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Drama nazariyasining konsepsiyasi va ilmiy kategoriyalarin o’rganish bugun muhimdir. Maqsud Shayxzodning “Mirzo Ulug’bek” shoh asarini tahlil qilarkanmiz, bu naqadar zarur ekanligini anglaymiz. Zero, drama doim davr mahsuli bo’lgan. Uni o’rganish davr ziddiyatlarini o’rganishdir. Dramatik asarda personajalarning xatti-harakatlari makon va zamon munosabatlari aks etadi etadi[1]. Drama adabiy janr sifatid eng qadimiylaridan biridir. Yunon teatrlarida asos solingan va hamon faol yashab qolmoqda. Bugungi kunda biz bu janrni sahna va kino janri sifatida ko’proq bilamiz. Ayniqsa, XVIII-XXI asrlar adabiyotida keng tarqalib, asta-sekin dramaning boshqa janri – tragediya o’rmini egallab, unga asosan kundalik sujet va kundalik voqelikka yaqinroq uslub bilan qarama-qarshi o’sib kelmoqda. Kinoning paydo bo’lishi bilan u ham ushbu san’at turiga o’tib, uning eng keng tarqalgan janrlaridan biriga aylandi.



“Drama janr sifatida” tushunchasi ko‘pdan beri o‘rganib kelinadi (“drama adabiyotning bir turi sifatida” tushuncha bilan farq qiladi) bu haqda rus adabiyotshunosi B.V.Tomashevskiy shunday yozadi: XIII asrlardan buyon dramatik janrlar soni ortib bormoqda. Yuqori teatr janrlari bilan bir qatorda quyi, “adolatli” janrlar ham rivojlangan: italyan buffon komediyasi, vodevil, parodiya va boshqalar bunga kiradi. Bu janrlar zamonaviy fars, grotesk, operetta, miniatyura manbalari hisoblanadi. Komediya o‘z-o‘zidan “drama”ni, ya’ni zamonaviy kundalik mavzulardagi spektaklni ajratib turadi, lekin o‘ziga xos “komediya” holatisiz (“burjua tragediyasi” yoki “ko‘z yoshli komediya”). Drama XIX asrda psixologik va kundalik roman evolyutsiyasi bilan uyg‘unlashib, boshqa janrlarni keskin ravishda to‘sib qo‘ydi” [7].

Maqsud Shayxzoda o‘zining qisqa (59 yil), ammo serbaraka ijodiy umri davomida 20 dan ortiq majmualarga jamlangan she’rlar, ballada va dostonlar, 300 dan ortiq ilmiy maqolalar, monografiya, tadqiqiy risola va publitsistik asarlari yozdi va shubhasiz, bu sanoqlarning ichida uning dramatik asarlari peshqadamdir. Shayxzoda ijodini shoh asarlari –“Jaloliddin Manguberdi” dramasi va “Mirzo Ulug‘bek” fojialarisiz tasavvur qilish mumkin emasdir.

“Mirzo Ulug‘bek” tarixiy tragediyasi adabiyotimiz va teatr san’atimizning gultojidir. Bugungi kungacha bunday epik va go‘zal badiiy dramatik asar yaratilmadi. Bu bevosita Shayxzoda ijodining eng cho‘qqiga chiqqan va yetilgan davrida, katta tajriba bilan bu ishga kirishganida bo‘ldi. San’atshunoslik fanlari doktori, professor Dilfuza Rahmatullayeva shunday ta’kidlaydi: “Shayxzodaning



Maqsud Shayxzoda

## MIRZO ULUG‘BEK



“Mirzo Ulug‘bek tragediyasi bilan boshlangan ushbu yuksalish o‘zbek dramaturgiyasi hamda teatrida yangi badiiy tamoyillarning shakllana boshlayotganini ko‘rsatadi. Bu tarixiy hodisalarni ijtimoiy-psixologik planda tasvirlash, turli muammolarni realistik asosda hal qilish, tarixiy qonuniyatlarni “xalq hayoti”, “inson taqdiri” bilan bog‘liq holda talqin qilishda ko‘zga tashlanadi” [6, 78]. Shayxzoda dramaturgiyasi o‘zbek adabiyotiga va teatr san‘atiga sezilarli ravishda ta‘sir o‘tkazdi, u she‘riy pishiq, kuchli psixologik, badiiy yuksak, tarixiy asoslarga ega tarixiy dramalari bilan shu paytgacha o‘zbek dramaturglari egallab turgan zinadan bir pog‘ona ko‘tardi.

Muallifning o‘zi tarixiy asarlar yozish va bu yo‘ldagi mashaqqatlar haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: Tarixiy asar ustida ishlash juda qiyin, – dedi Shayxzoda. – Negaki, voqealar allaqachon o‘tib ketgan, ular to‘g‘risida esa kitoblardan, arxivlardangina ma‘lumot olish mumkin. Lekin bu bilan ish bitmaydi. Tarixiy asarlarda ham qahramonlar sifatida jonli odamlar harakat qiladi. Ular jonli chiqmog‘i uchun xatti-harakatlari, qiliqlari, o‘zini tutishlari tafsilotlar va detallar orqali ifodalanishi kerak. Bu esa oson emas – har qadamda, har sahifada dabdurustdan hal qilish juda qiyin bo‘lgan savollar ko‘ndalang bo‘ladi. Ularni hal qilguncha ona suting og‘zingdan keladi. Masalan, XIV yoki XV asr odamlarini tasvirlar ekansan, ular bir-birlari bilan qanday salomlashganlar – bosh irg‘abmi, qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yibmi, bir-birlarining yelkalariga qoqibmi, o‘ng qo‘llarini tik ko‘taribmi, qo‘l qisishibmi yoki yana boshqa biron tarzda ko‘rishishganmi, biron kitobda buning tasviri va tasdig‘i bormi deganga o‘xshash savollar ko‘ndalang bo‘ladi. Yoki u davr odamlari ko‘zoynak taqqanmi, soch qo‘yganmi, kiyim-kechagi qanday bo‘lgan, yotib-turishi, yuvinib-cho‘milishlari qanday kechgan va hokazo va hokazo... Bunaqa savollarning oxir-keti yo‘q. Ularga javob topmoq uchun yozuvchi tom ma‘noda ba‘zan katta, ba‘zan kichik tadqiqot ishini amalga oshirmog‘i kerak. Shundan keyin Shayxzoda Navoiy zamonida odamlar ko‘zoynak taqqan – taqmaganini qanday hal qilganini aytib bergandi. Bu gaplarning barini nafaqat yosh yozuvchilar, balki bizga o‘xshagan “tajribalilar” ham jon qulog‘i bilan maroqlanib eshitdi, chunki bu gaplar ijodkor mehnatining mashaqqatlari haqida ancha haqqoniy tasavvur berar, yozuvchi mehnatiga hurmatni oshirardi [3]. Bu e‘tirofni davomi o‘laroq shu o‘rinda



akademik Aziz Qayumovning fikrlarini keltirsak o‘rinli bo‘ladi, zero har ikki olimning fikrlarida Shayxzoda shaxsiyati va ijodi bir uyg‘un bo‘lgani va bir-birini to‘ldirib mazmun kasb etganini ko‘rishimiz mumkin: “Qalb harorati bilan yetilgan she‘riy misralar va dostonlar, sahnamizning zebi bo‘lmish dramalari, ekranimizning shuhrati bag‘ishlagan kinossenariy, xalqimizning dilidagi oliy tuyg‘ularni yuksak darajada ifodalagan publitsistik maqolalari, olimning donishmand nurli shuuri-la yo‘g‘rilgan tadqiqotlari o‘zbek madaniyati va ilmining bebaho durdonalaridir”[4:5].

Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” dramasi ustida yigirma yildan ortiqroq vaqt ishlagani aytiladi [5]. Bu orada uning Shekspir, Pushkin asarlarini esa o‘zbek tiliga tarjima qildi va “Jaloliddin Manguberdi” dramasi yozish orqali olgan katta tajribasi bilan ishga kirishadi.

Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi haqida shu paytgacha ko‘plab fikrlar bildirilgan, ammo muallif bilan dramadagi Mirzo Ulug‘bek o‘rtasida mavjud mushtaraklik tadqiq qilingancho yo‘q. Menimcha, ijodkorning og‘ziga qulf urilgan o‘sha og‘ir zamonlarda Shayxzoda o‘zining ko‘p dardlarini, odamlarga aytmoqchi bo‘lgan gaplarini Ulug‘bek tilidan aytgan bo‘lishi mumkin [3] – deya mulohazalarini taqdim qilgan Ozod Sharafiddinov.

Chindan ilm va ma‘rifatni hamma narsadan ulug‘bilgan, go‘zal she‘riyatga to‘la qalb sohibi Shayxzoda Mirzo Ulug‘bekka ruhiyatan yaqin edi. Shuning uchun ham Shayxzoda uzoq yillar “Mirzo Ulug‘bek” shaxsiyatiga qiziqib keladi va elliginchi yillarning oxirida, aniqrog‘i 1959-yilda dramani yozishni boshlaydi va ikki yil davomida ko‘plab qoralama, fojia variantlarini tayyorlaydi. Bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyining “O‘zbekiston Yozuvchilar arxivi”da saqlanayotgan Shayxzodaning sakkiz yuz o‘ttiz bitta hujjatlardan “Mirzo Ulug‘bek” dramasi bevosita yoki bilvosita bog‘liq manbalar quydagilardan iborat :

a) birinchi daftar. 1959-1960-yillar muallif arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek yozuvida o‘z qo‘li bilan yozgan va dasxati bilan izoh qoldirgan. “Mirzo Ulug‘bek” ilk qo‘lyozma-qoralama nusxalari. Besh pardali tarixiy-she‘riy fojia, deya ro‘yxatga olingan. “Voqea 1448-1449-yillarda Samarqandda va uning yaqin atroflarida o‘tadi”, – deb sharh berilgan. Hujjatning varaqlari yirtilgan, dog‘ tushgan, ko‘p chalkash o‘rinlar va turli mavzuga oid bo‘lmagan ma‘lumotlar, telefon raqamlar yozib qoldirilganini ko‘rish mumkin. To‘qson olti varaqdan iborat bitta hujjat sifatida saqlanadi. Tartib raqami – 195.

b) 1959-1960-yillarda yozilgan “Mirzo Ulug‘bek” besh pardali tarixiy-she‘riy fojiani qoralama nusxasi. Hozirgi o‘zbek yozuvida 191 betdan iborat. Tartib raqami – 196.

d) ikkinchi daftar. “Mirzo Ulug‘bek” tarixiy-she‘riy fojining davomi. Vaqti 1960-yil 10-fevral deya ko‘rsatilgan. Daftarning 16-varag‘iga muallifning o‘z dastxati arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek yozuvida ko‘chirilgan. Daftar juda yaxshi saqlangan. Daftarning umumiy betlarining soni 94 varaqni tashkil qiladi. Tartib raqami – 197.

e) uchinchi daftar. Besh pardali tarixiy-she‘riy fojining oxiri. 1960-yil arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek yozuvida yozilgan. 96 varaqli bitta daftardan iborat. Daftar yaxshi saqlangan. Tartib raqami – 199.

f) “Mirzo Ulug‘bek”, besh pardali tarixiy-she‘riy fojining 1960-yilda ko‘chirilgan nusxasi. O‘zbek kirill yozuvida mashinkalangan. 150 varaqdan iborat. Yaxshi saqlangan. Tartib raqami – 200.

g) “Mirzo Ulug‘bek”. Yetti pardali tarixiy tragediya. Mashinkada ko‘chirilgan. 1961-yil, oxirgi variant, lekin 66 varig‘igina saqlangan. Tartib raqami – 201.

h) “Krov i zvezdi” (Qon va yulduzlar), Mirzo Ulug‘bek haqidagi kinossenariyning mashinkalangan nusxasi. “Bu hujjatda ssenariydan parcha berilgan. 1962-1963-yillar rus tilida yozilgan va to‘qqiz varag‘igina saqlangan. Tartib raqami – 202.

i) “Krov i zvezdi” ssenariysining mashinkalangan yana bir nusxasi. 1962-1963-yillar rus tilida yozilgan. 255 varaqdan iborat nusxada muallif tuzatishlari bor. Tartib raqami – 203.

j) “Zvezda Ulugbeka” (Ulug‘bek Yulduzi) kinossenariyning mashinkada avtor tuzatishlari bilan saqlangan nusxasi. 1963-yilda rus yozuvida ko‘chirilgan. Nusha 160 varag‘dan iborat. Tartib raqami – 204.

k) “Zvezda Ulugbeka” kinossenariy varianti. Rejissyor – L.Fayziyev, operator – Aleksandr Pann, redaktor – A.Madorskiy, rassomlar – E.Kalantarov, N.Raximboyev, Ch.Axmarov. Mashinkalangan, rejissyor tasdiqlagan variant. 1963-yilda rus yozuvchida yozilgan. Bir yuz yigirma to‘qqiz betdan iborat. Tartib raqami – 205.

l) “Zvezda Ulugbeka” kinossenariyning mashinkalangan varianti. 1963-yilda yozilgan. Rus tilida bir yuz yigirma betdan iborat. Hujjat yaxshi saqlangan. Tartib raqami – 206.

m) “Ulug‘bekning yulduzi” pyesadan dialog va monologlar. Bu hujjatning nomi “Mayxonada” deb nomlangan. Oxirgi varaqning orqa betida shu nusxaning tuzatilgan variant ekanligi haqida Shayxzodaning qaydi yozilgan. Arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek yozuvida. Bitta hujjat to‘qqiz varaqdan iborat. Tartib raqami – 207

n) “Ulug‘bekning yulduzi” asarining yana bir varianti. Tarixchi ovozi uch xil varianti saqlanadi. Ikkinchi va uchinchi betlardagi ayrim dialoglar chizib

tashlangan. Arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek va hozirgi o‘zbek yozuvlarida. To‘rt hujjat va to‘rt varaq. Tartib raqami – 208.

o) “Mirzo Ulug‘bek” besh pardali tarixiy tragediyaning yana bir nusxasi. “Voqea 1448-1449-yillarda Samarqand va uning atroflarida sodir bo‘ladi”, deya yozib qo‘yilgan. Mashinkada, avtor tuzatishlari bilan berilgan. O‘zbek kirill yozuvchida berilgan, ikki yuz yetti betdan iborat. Tartib raqami – 209.

p) “Mirzo Ulug‘bek” asarining “3 akt, 7 kartinali tarixiy tragediya, qisqacha mazmuni” deb yozilgan nusxasi. Mashinkalangan nushasi. Rus yozuvida yozilgan sakkiz varag‘ bor, yaxshi saqlangan. Tartib raqami – 210.

q) “Ulug‘bek yulduzi” telefilm librettosining ikkinchi varianti. Mashinkada rus tilida ko‘chirilgan. Bir hujjat va yigirma bir varag‘dan iborat nusxa saqlangan. Tartib raqami – 211.

r) “Krov i zvezdi” yana bir ssenariy varianti. Qalamda yozilgan rus tilida muallif dastxati bilan. Yigirma bir varag‘dan iborat. Tartib raqami – 212.

s) “Zvezda Ulugbeka” pyesadan parcha saqlangan. Muallif dastxati bilan. Rus tilida ko‘chirilgan bo‘lib, hujjat yigirma uch betdan iborat. Tartib raqami – 213.

t) 214. “Spor v mecheti”, (Masjidda janjal) asardan parcha. Mashinkada, muallif tuzatishlari bilan saqlangan. Matn rus yozuvida yetti varaqdan iborat.

u) “Mirzo Ulug‘bek” kinossenariyadan parcha saqlangan. Asarning boshi va oxiri yo‘q. Yigirmanchi betdan boshlanadi. Mashinkalangan rus yozuvida besh varag‘i saqlangan. Tartib raqami – 215.

v) “Navoiy”, opera librettasi. To‘rt pardali tarixiy mavzudagi asar. Mashinkalangan nusxada hozirgi o‘zbek yozuvida. 11 varaqdan iborat.

“Mirzo Ulug‘bek” tragediyasining qo‘lyozmalari bilan tanishar ekanmiz Shayxzoda ko‘p hollarda ikkilanishlar va o‘ylar ichida qolganligini ko‘ramiz. Bundan tashqari, urush yillarida yozgan “Jaloliddin Manguberdi” dramasi boshiga tushgan “sinov”lar uni cho‘chitib qo‘ygan, siyosiy qoliplar va ijodiy erkinlikni bir qalbgga sig‘dira olmay aziyat chekardi. Shuning uchun ham asarlarning qo‘lyozma va qoralama nusxalariga jiddiy e‘tibor qaratgan. Bir asar variantida mingdan ziyod uslubiy, imloviy, siyosiy jihatdan xato deb bilgan joylariga o‘zgartirish kiritgan. Uzoq tuzatishlar va ko‘chirishlardan keyin, uning to‘liq sahna asari yaratilishiga rozilik beradi.

Bugungi kunda ilmiy ishimiz yuzasidan “Mirzo Ulug‘bek” fojiasining matniy-qiyosiy tadqiqini quyidagi asoslarda olib bormoqdamiz:

- 1) dramaturg tahrir va tuzatishlari;
- 2) g‘oyaviy tahrir va o‘zgartirishlar;
- 3) nashr va sahna talab jihatidan o‘zgarishlar;

Maqsud Shayxzoda asarlarini quyidagicha tasnif etish mumkin:

- 1) qo‘lyozma manbalar;
- 2) arxiv materiallari;
- 3) nashrlar va sahnaviy variantlar;

Shayxzoda arsarlarini bunday ilmiy tasnif qilish orqali dramaning asl varianti – ilmiy-tanqidiy matnini yaratishdir. Bu bugungi kunda dramalarning qayta nashrlari va teatr san‘atida olib chiqilayotgan sahna variantlari yuzasidan tugal xulosa chiqarishga imkon beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**


1. Аристотел. Об искусстве поэзии. -М., 1957; Бориев Й. Искусство интерпретации о сенки. – М.: Советский писатель, 1981.
2. Islomov T. “Tarix va sahna”. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1998. – B. 221.
3. Ozod Sharafiddinov. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati”, 2003-yil 19-son.
4. Maqsud Shayxzoda. Asarlar, 6 tomlik. Tahrir hay‘ati: K.Yashin, Mirtemir, Turob To‘la, Ozod Sharafiddinov, N.Mallayev. So‘zboshi muallifi A.Qayumov. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1969. 353-b.

## FILOLOGIYA

### MUMTOZ ARAB ADABIYOTIDA BAYOZLARNING O‘RNI



**Zilola SHUKUROVA**  
Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti o‘qituvchisi,  
PHD



**Azizulla Aral**  
Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat  
o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti o‘qituvchisi

UO‘K 512.133

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bayozlarning kelib chiqish makoni, zamoni, unga xos xusiyatlar haqida so‘z boradi. Shuningdek yurtimizda bayozchilik an‘anasining kirib kelishi va gullab yashnagan davri haqida ham tahliliy mulohazalar berilgan.

**Аннотация:** в статье говорится о месте происхождения, времени и характеристиках Байоза. Также даются аналитические комментарии о внедрении традиции байозизма и периоде ее расцвета в нашей стране.

**Annotation:** this article talks about the place of origin, time, and characteristics of Bayoz. Analytical comments are also given about the introduction of Bayozism tradition and its flourishing period in our country.

**Kalit so‘zlar:** bayoz, bayozchilik, Abu Tamtom, adabiy janrlar, qo‘lyozma, toshbosma.

**Ключевые слова:** баёз, баёзизм, Абу Таммам, литературные жанры, рукопись, литография.

**Key words:** bayoz, bayozism, Abu Tamtam, literary genres, manuscript, lithograph.

O‘zbek mumtoz adabiyotida shoirlar ijodidan tarkib topgan va o‘ziga xos guldasta vazifasini o‘taydigan bayozlar alohida qimmatga ega. Bayozlarining o‘zbek adabiyotidagi ahamiyati shundaki, unda mashhur shoirlar bilan birga mashhur bo‘lmagan yoxud mashhur bo‘la turib moddiy qiyinchiliklar va boshqa sabablarga ko‘ra devon tuza olmagan shoirlarning ijod namunalarini uchratish mumkin. Shu ma’noda bayozlarni shoirlarni kashf etuvchi fabrika deyish mumkin. Bu fabrika o‘zbek adabiyotida qanchadan-qancha shoirlarni kashf etishda yordam beradi.

Bayoz (arab. – oq, oqlik) – she’rlar to‘plami degan ma’nolarni anglatadi [1]. Bayozlarning paydo bo‘lish tarixi uzoq o‘tmishga taqalib, uni dastlab arab

adabiyotlarida uchratish mumkin. Biroq uning aynan qaysi davrda yaratilgani haqida olimlarning turli qarashlari kuzatiladi. Xususan, ayrim olimlar bayozlarning paydo bo'lishini arab diyolarlarida adabiyotning eng gullagan davri VIII-XII asrlarda paydo bo'lganligini keltirsa [2], ba'zi adabiyotlarda ilk bayozlar arab she'riyati rivojlangan davr (750 – 1055)da yuzaga kelganligi [3] aytiladi, ba'zi manbalarda bayozchilik an'anasi musulmon sharqida VIII-IX asrlarda arab adabiyotida dastlabki ko'rinishlarini olgani[4] ta'kidlangan. A.Habibullayev esa arab mumtoz adabiyotida bayozlar IX asrda paydo bo'lganini (shoir Abu Tammom) xabar bergan [5]. Yuqorida ko'rsatilgan davrlarni yanada aniqroq qilish va yagona to'xtamga kelish uchun masalani kengroq yoritish ehtiyoji seziladi.

Ma'lumki, arab diyolarida islom dini kirib kelganidan so'ng ko'pgina sohalar qatorida adabiyot sohasida yangicha tamoyillar, yo'nalishlar paydo bo'ldi. Yangi janrlar, tahlilda noan'anaviy yondashuvlar, yangidan-yangi poetik vositalar shakllandi. Ana shunday evrilishga sabab bo'lgan arab shoirlaridan Bashar ibn Burd (783-yilda vafot etgan) va Abu Nuvas (vafoti – 810) islom dini kirib, gullab yashnay boshlagan davrida arab she'riyatini yana bir pog'onaga ko'tarishda asosiy hissa qo'shishgan. Bu mamlakatda islom dini kirib kelishidan avval ham filologiya, sohasi ancha rivojlangan bo'lib, adabiyot, she'riyat taraqqiy etgan edi. Ko'pgina shoirlar ana shu islomga qadar yaratilgan she'rlarga ko'proq qiziqar edi. Uning o'ziga xos jozibadorligi, yo'nalishi shoirlarni o'ziga maftun etar edi. Og'izdan og'izga o'tib kelayotgan, qadimgi an'analarni o'zida saqlab kelayotgan va yo'qolib ketish ehtimoli bo'lgan bu she'rlarni yig'ish, to'plash asrab-avaylash ko'pchilik shoirning orzusiga aylandi va bu davrni olimlar "qadimgi an'analarga qaytish davri" deb aytishadi.

Nihoyat, Suriyalik Abu Tammom (180/796 – 228/843) "Kitob ul-xamasa" ("Jasorat, shon-u shavkat kitobi") asari [6] orqali o'z davridagi shoirlarning orzularini ro'yobga chiqardi va adabiyotda bayozchilik an'anasiga asos soldi. Kitobni tuzishda shoir o'zining she'rlari bilan birga, o'ziga qadar yashab o'tgan shoirlarning she'rlarini ham kiritib, asarni 7 qismga bo'ladi. Har bir qismda ma'lum bir janrga tegishli she'rlargina kiritiladi. Va uning bu asari juda mashhur bo'lib ko'pgina shoirlarni ilhomlantiradi.

Abu Tammomdan keyin ikkinchi marta "Xamasa" yozgan shoir uning shogirdi Al-Buxturiy (206/821 – 284/897) hisoblanadi. U ustozni boshlab bergan an'anani mukammallashtiradi. Asarini 176 bobga bo'lib, islomgacha va islomdan keyin yashagan 600 ga yaqin shoirlarning ijodini kiritadi. Materiallarni ham ustozidan farqli holda ajratib chiqadi. Shu tariqa bayozchilik an'anasi shakllanib, taraqqiy eta boshladi.

Albatta, bu asarlar yaratilgan davrda hech kim uni bayoz termini bilan atamagan. Biroq to'plamda turli davrda yashagan shoirlar ijodining berilishi,

materiallarning xilma-xilligi kabi belgilar bu asarning hozirgi kunda bayoz atamasi bilan yuritilib kelayotgan to‘plam ekanligini anglatadi. Demak, bayozning yaratilish davri haqida gap ketganida ularning dastlabki namunasi IX asrda yaratilgan deb bersak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

IX asrda yaratilib, gullab-yashnagan bayozchilik an‘anasi sekin-astalik bilan arablar tasarrufidagi mamlakatlarda ham yoyila boshladi. O‘rta Osiyo shoirlari o‘rtasida ham klassik she‘r namunalarini asrab qolish, sevimli she‘rlarining guldastasini bir joyda yig‘ish ishtiyoqi bor edi. Shu sababli ham O‘rta Osiyoda kirib kelgach, bu an‘ana ancha taraqqiy etdi. Bu hududda bayozlarning ilk namunasi qachon paydo bo‘lgani hozircha noma‘lum. Biroq manbalarda berilgan ma‘lumotga ko‘ra O‘rta Osiyo hududida XV asrda ham bayoz tuzish an‘anasi mavjud ekanligini qayd etilgan. Hozircha yurtimizda saqlanayotgan bayozlar orasida eng qadimiysi XV asrga tegishli deb hisoblanadi. Mazkur bayoz Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo‘lyozmalar institutida S 100 (249) inventar raqami bilan saqlanib, 867/1442-yilda tuzilgan. Unda 22 ta Eron, Hindiston va O‘rta Osiyo shoirlarining g‘azal, qit‘a va tarje‘bandlaridan iborat.

O‘rta Osiyoda bayoz tuzish an‘anasi XV asrda shakllanib bo‘lgan bo‘lsa-da, uning rivojlanish cho‘qqisi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda asrlar davomida to‘planib kelayotgan an‘analar, tajribalar yangi bosqichga ko‘tarildi. XIX asrga qadar yaratilgan bayozlarda, asosan, turli davrlarda yashagan shoirlarning turli janrdagi she‘rlari joylangan bo‘lsa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib ular nafaqat she‘r muxlislarining sevimli she‘riy to‘plami balki, ma‘lum bir aniq maqsadlarda xizmat qiluvchi qo‘llanma vazifasini ham bajargan. Asriy an‘analarni saqlagan holda ayrim bayozlarda folklor namunalari, Navoiyning “Xamsa” dostoni tarkibidagi ayrim dostonlari, matematika, falsafa, islom dini qonun-qoidalari, payg‘ambarlar haqidagi qissalar (ularning ayrimlari ishonchsiz), savdodagi oldi-berdi masalalari, podshohlarga kiritiladigan arznoma namunalari, qorxat va hokazolar kiritilgan. Bu esa o‘sha davrlarda bayozlar shunchaki estetik zavq olish vositasi emas, balki madrasalarda tolibi ilmlarni o‘qitishda foydalaniladigan darslik vazifasini ham o‘taganligini isbotlaydi.

Umuman olganda, bayozlarning kelib chiqishi arab mamlakatlariga borib taqalsa-da, yurtimizda kirib kelgach uni tuzish an‘anaga aylanib, XIX asrda san‘at darajasida ko‘tarildi. Tuzilishi va mavzu ko‘lamiga ko‘ra kengayib, jamiyatning ko‘pchilik soha vakillari uchun zaruriy ehtiyoj vazifasini bajardi. Shu sababli ham bu davrda yaratilgan bayozlar boshqa davrga qaraganda anchagina ko‘p va xilma-xildir.

**FILOLOGIYA****QAT'IY SO'Z VA "TEMIR INTIZOM" EGASI****UO'K 574.520**

**Gulasal  
KAZAKOVA**  
Urganch innovatsion  
universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada ijodkor Abdusaid Ko'chimov esselarida Barot Boyqobilov siymosi tahlilga tortilib, shoirning adabiyot va badiiy ijoddagi o'ziga xos uslubi tahlil qilingan.

**Аннотация:** в статье анализируется фигура Барота Бойкабилова в очерках творца Абдусаида Кочимова, анализируется неповторимый стиль поэта в литературе и художественном творчестве.

**Annotation:** the article analyzes the figure of Barot Boyqabilov in the essays of the creator Abdusaid Kochimov, and analyzes the poet's unique style in literature and artistic creation.

**Kalit so'zlar:** kompozitsion vosita, esse, portret, badiiy ijod, estetik tamoyil, adabiy tahlil, ijodkor uslubi.

**Ключевые слова:** инструмент композиции, эссе, портрет, художественное творчество, эстетический принцип, литературный анализ, творческий стиль.

**Key words:** composition tool, essay, portrait, artistic creation, aesthetic principle, literary analysis, creative style.

Ijodkor Abdusaid Ko'chimov esselar to'plamidan iborat saylanmasida badiiy ijod va undagi kuzatishlarni qayta ishlab, shoir va yozuvchilar siymosini






badiiy gavdalantirgan, shaxslik va insoniylik sifatlarini xotiralarda umumlashtirgan. Ijodkor esselari nomlarining o‘zidayoq hayotga mehr va yaxshilikning cheksiz jozibasi, umr atalmish bog‘da inson aql-u zakovati xususida teran mushohadalar yuritilgan.

A.Ko‘chimovning “Sizni o‘ylayman...” nomli essesida taniqli ijodkor Barot Boyqobilov haqida xotiralarni jamlagan. A.Ko‘chimov, shoir va adib Muso Abdurazzoq, maorif Quddus Asqar bilan birgalikda ijodkor qabrini ziyorat qilish asnosida ijodkor haqida, uning duru javohirga mengzagan qimmatli ijodi haqida biroz unutilayotgandek yoki adabiyot maydonidagi zalvorli mehnati yetarlicha tadqiq qilinmagandek tuyulishini gaplashisharkan, beixtiyor “Bog‘i Xamsa” ta’rifi esse voqealarini bog‘lovchi kompozitsion vosita sifatida aks ettiriladi. Samarqand viloyati Urgut tumani Kenagas qishlog‘ida ijodkor Barot Boyqobilov tashabbusi bilan qad rostlagan bu bog‘ ikki qavatli zamonaviy usulda qurilgan “Ma’rifat uyi” binosi bilan ahamiyatlidir. Bu binoda ijodkorning umri davomida yozgan asarlari nazmiy, nasriy, ilmiy asarlari, shoirga dastxat bilan tuhfa etilgan kitoblar jamlangan. Bino atrofi ko‘kalamzorlashtirilgan, sokin bir hovuz va ijod bog‘chasi, u yerda B.Boyqobilov yillar davomida ijod ummonida sayr qilgan desak mubolag‘a bo‘lmas. Ne yoziqki, shoirning aksariyat umri Toshkentda o‘tgan bo‘lib, hayotining so‘nggi kunlarida so‘lim qishloq bag‘rida yana to‘rt-besh yil yashamaganligi, qishloqning azim tog‘lari va yavlovlari, sharqiroq soylarida yana yurish shoirga bir armon bo‘lganligini aytadi. Shoirning o‘zining vasiyatiga muvofiq qabri mana shu “Bog‘i Xamsa”ga qo‘yiladi. Ko‘pchilik qishloqdoshlari B.Boyqobilovning bu vasiyatini “hamqishloqlik tuyg‘usidan mosuvo edi, qishloqqa qo‘shilmasdi, endi ham qo‘shilmasmikan” kabi dashnom bilan qarshi oladi. Ammo hamqishloqlik tuyg‘usi shoirning yuragida, kindik qoni tomgan tuproqqa, hamyurt-hamqishloqlarga muhabbat, ona qishlog‘i Kenagasga bo‘lgan mehr ham qon-qoniga singgan, yuragi chashmalaru chinorlar maskani bo‘lmish Urgut bilan chirmoviqday chirmashib ketgan edi. Tug‘ilgan joyi va qavmiga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ulari qanchalar samimiy va issiq ekanini fahmlash uchun shoirning kitoblarini o‘qish kerakligi ta’kidlanadi. She’r va dostonlarida ona yurt, ajdodlarimizning bosib o‘tgan shonli yo‘l, xalqimizning o‘lmas an‘analari, urf-odatlarini bilan birga ozodlikka, erkinlikka tashnaligi, bu sharaflari yo‘lda jonini fido qilgan jasur o‘g‘lonlari taqdiri tarannum etiladi.

Akademik Botirxon Valixojayev shoir haqida shunday yozadi: “Barot Boyqobilov o‘tgan asrning 60-yillarida o‘zbek she’riyatiga dadil kirib kelgan shoir. Uning ijodiga ustoz Oybek, Uyg‘un, Mirtemir domlaning nazari tushdi, yosh shoirga oq fotiha berishdi. Mirtemir domla uning birinchi kitobiga muharrirlik qildi, uni o‘z farzandidek ko‘rdi... U izlanishda, urinishda, yaratishda, yangi gap aytishda, zinama-zina yuksalishda” [1].



Barot Boyqobilov shaxsiy xislatlari haqida gapirilarkan, u kishining murakkab xarakter egasi bo'lgani, yashash tarzi, tevarak-atrofdagi voqealarga munosabati boshqalarnikidan keskin ajralib turgani, odamlarga hadeb aralashmagani, ya'niki yolg'izlikka moyilroq bo'lgani

haqida ko'p gapiriladi. Uning shaxsi, ruhiy dunyosi, turmush tutumidan boxabar inson, shaxsiy taassurotlar kamki, bu o'z navbatida shoir siymosini, xarakter xususiyatlarini ochish uchun murakkabliklar vujudga keltiradi. Essenavisning yutug'i ham mana shu kam murojaat qilinuvchi, o'rganishga talab yuqori o'zbek adabiyotining yetuk bir namoyandasi siymosini badiiy gavdalandirishga ko'mak beradi.

Abdusaid Ko'chimov shoir bilan uchrashuvlar, suhbatlarni esga olarkan, Barot Boyqobilov ijodiy portretini shunday yaratadi: “Qaddi tik, bo'yi baland, yelkalari va peshonasi keng, sochlari orqaga silliq taralgan, enlik qoshlarining o'rtasi ochiq, yuzlari tiniq, kelishgan bir odam, ya'nikim shoir Barot Boyqobilov ko'z oldimda namoyon bo'ldi. Shoshmasdan qadam tashlab, bir nimalarni o'ylayotganday boshini oldinga tashlabroq yuruvchi bu odamning sochi, qoshi, ko'z qorachiq-lari-yu kiprik-larigacha bir-biri bilan bellashgandek tim qora edi. O'zini birovlarga xor qildirib qo'ymaydigan, haqqini yedirmaydigan, o'zi uchun kerak bo'lgan narsasini uzib olishni yaxshi biladigan bu kishi chindan ham, Quddus Asqar ta'kidlaganiday, “murakkab” inson edi, chamasi. Unchamunchani yoniga yaqinlashtirmas, o'zi ham har kim bilan “elakishib”, “oshqatiq” bo'lib ketavermasdi. Yurish-turishida ijtimoiy arbob-larga xos fazilatlar bo'rtib turguvchi shoir hamisha she'riy xayollar og'ushida yurardi, mening tasavvurimcha” [2].

Odatda, shoir qavmi majlis-u mashvaratlarda gumburlatib nutqlar irod qilish, qarsillatib she'rlar o'qish, teleekranlarda qayta-qayta ko'rinishlar berib turish kabi xislatlarga o'chroq bo'ladi. Ammo Barot Boyqobilovda adabiy uchrashuvlarda hayqirib she'r o'qish, nutq so'zlash yoki televizorda ko'rinish berish kam bo'lganligini bunaqa masalalarni xushlamasligi keltirilgan: “Xizmat safarlaridan boshqa paytlarda xuddi tramvay kabi ertalab bitta yo'ldan ishga borib, kechqurun o'sha yo'ldan to'g'ri uyiga qaytishini ko'p kuzatganman. O'xshatish qo'polroq tuyulsa-da, Barot akaning har kungi “marshruti” aynan tramvayning temir izlari singari mustahkam va bir xil edi. Men tanigan, bilgan kundan to umrining oxirigacha ana shu «marshrut»ni buzmay yashadi” [3]. Bu

ta'rif bilan B.Boyqobilovning qat'iyatli va izlanuvchan bir inson ekanligini, mashaqqatli ijod yo'li va o'z kasbiga sodiqligini teran anglash mumkin.

Shoir haqidagi yana bir ta'rifda shunday izohlar bor: “Men Barot Boyqobilovni talabaligidan yaxshi bilaman, u o'ta tirishqoq, harakatchan talaba edi. Kursdoshlariga sinfboshi, jamoat ishlarida bosh-qosh, doimo a'loga o'qirdi, tinmay izlanardi. Ana shu izlanishlar samarasi bo'lib, 50-yillarning o'rtalarida matbuotda uning she'rlari ko'rina boshladi. Mirzo Barotning ilk ijod bosqichida yoshlik, muhabbat mavzusidagi she'rlar ko'pchilikni tashkil etadi. Keyinchalik shoir ijodida ona Vatan, xususan Samarqand mavzusi, aytish mumkinki, asosiy o'rinni egallay boshladi”[4]. Ushbu tavsif Akademik Botirxon Valixo'jayevning Barot Boyqobilov qalamiga mansub 2005-yilda chop ettirilgan “Hayot maxzani yoxud yarim asr devoni” saylanmasi uchun so'zboshi qismida berilgan.

Suhbatdoshlardan biri shoir Muso Abdurazzoq ustozni shunday xotirlaydi: “Men o'zimni u odam bilan yaqin edik, ustoz-shogird edik deyolmayman. Ammo Barot aka haqiqatan ham mehnatkash edi. U kishini hayotning rohat-farog'atlardan voz kechib, o'zini adabiyotga baxshida qilishga kuch topgan zahmatkash ijodkor edi deyish mumkin” [5]. Haqiqatdan 50 dan ortiq kitob yozgan, adabiyotshunoslikning eng kichik janri – farddan tortib besh she'riy romandan iborat “Xamsa” yaratish darajasigacha yetgan bu ijodkor adabiyot maydonida o'rni beqiyos. “Afrosiyob”, “Samar va Qand”, “Vatan tuprog'i”, “Visol”, “Sonetlar”, “Seni izlayman”, “Zamon zayli”, “Muhabbat xiyoboni”, “Kim sokin yashaydi O'zbekistonda”, “Sharq kamalagi”, “Visol va hijron”, “Meni kuting, yulduzlar”, “Tabarruk tuproq”, “Sen tug'ilgan kun”, “Kun va tun”, “Shukuhli karvon”, “Notinch Xuroson”, “Sokin Xuroson”, “Qonli Xuroson”, “Navoiynoma”, “Hayrat ul-ahror”, “O'zbeknoma” asarlari adabiyotimizning haqiqiy gultojidir.

Barot Boyqobilov suhbatlarning birida “Ijodkorda metin tartib bo'lmog'i shart” mazmunidagi gapni aygan ekan. O'zi esa kun davomida idora yumushlari bilan mashg'ul bo'lar, kechqurun mutolaa qilar, kitob o'qishni sevarkan. Saharda turib o'qiganlarini qog'ozga tushirar, ikki-uch varaqdan kam yozgan kunini eng besamar kun hisoblar ekan. Ijodkorning shaxs sifatidagi kamoloti ham aynan mana shu ilmga, intilishga tashnalik asosida yuzaga kelganligini ta'kidlash joiz.

Esseda B.Boyqobilovning ijod va shaxs kamolotini yanada to'laqonli aks ettirish uchun Mirtemir, I.G'afurov, A.Abdurahmonov, O.Sharafiddinov kabi ijodkor va adabiyotshunos olimlarning ijodkor haqidagi fikrlari ham keltirib o'tiladiki, yozuvchining ijod jarayonidagi yutuq va tanqidchilar tomonidan “tez yozishga intilish tufayli kamchiliklarga yo'l qo'yish” deya baholangan davrlar ham biroz esga olinadi. Ijodi shu qadar sermahsulki, ta'bir joiz bo'lsa, uning

asarlarini o‘ziga xos she’riyat karvoniga o‘xshatish mumkin. Bu karvon zalvorli, shukuhli, ayni paytda, zamondoshlarimizning orzu-intilishlarini mujassam etgan ma’rifiy kuchga ega edi.

Oybek, Mirtemir, Uyg‘un, Mirmuhsin, Sarvar Azimov singari o‘zbek adabiyotining atoqli vakillaridan tortib Vohid Zohidov, Vohid Abdullayev, G‘ulom Karimov, Nuriddin Shukurov, Botir Valixo‘jayev, Matyoqub Qo‘shjonov, Aziz Qayumov, G‘aybulla as-Salom, Bo‘rivoy Ahmedov, Abduqodir Hayitmetov, Sa‘dulla Mirzayev, Ibrohim G‘afurovgacha bo‘lgan taniqli adabiyotshunoslar shoir to‘g‘risida ko‘p yozganlar. “Barot Boyqobilov mutafakkir shoir”, “Hozirgi davr adabiyotining yirik vakili”, O‘zbekiston xalq shoiri, Navoiy nomidagi davlat mukofoti va necha o‘nlab kitoblarning muallifi, shoirning bu dunyoni tark etganidan keyin birdaniga ko‘plarning esidan chiqib qolayotgani biroz tushunarsiz holat ekanligi, shoir to‘g‘risida olimlar, tanqidchilar, gazeta-jurnallar nega jimjit ekanligi haqida so‘z ketadi.

Esselar tarkibida mukammal tasvir etilgan va katta umumlashma ahamiyatga ega bo‘lgan bu ijodkor ijodiy va shaxsiy xislatlari badiiy asarda xarakter darajasida emas tip sifatida tasvirlanadi. Adabiy tip insonning individual tasviri bo‘lgani holda, ma’lum tarixiy davr va jamiyat kishisining eng muhim xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Esselar markazidagi qahramonlar bir davr va bir sharoit kishisiga xos sifatlarni emas, turli sharoitlarda namoyon bo‘ladigan umuminsoniy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Yozuvchi ijodkorlar siymosi tasvirida badiylikning bosh talabi bo‘lgan tipiklashtirish prinsipi amalga oshirilgan. Bu prinsipiellik A.Ko‘chimov ijodi badiiy qimmatini va esselari mukammal kompozitsion qurilishga ega ekanligidan dalolat.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. B.Nazarov, A.Rasulov, Sh.Ahmedova, Q.Qahramonov “O‘zbek adabiy tanqidi tarixi” darsligi. T.: 2012. 341-bet.
2. Qurdosh Qahramonov, Feruza Burhonova. “Ijod va e’tiqod”. T.: “Akademnashr”. 2022
3. Barot Boyqobilov. “Hayot maxzani yoxud yarim asr devoni”. Saylanma. Samarqand “Zarafshon” nashriyoti. 2005
4. U.Normatov. “Ijod va shijoat”. T.: 2006.
5. M.Qo‘shjonov. “Mahorat sirlari”. T.: 1968
6. M.Qo‘chqorova. “Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari”. T.: 2011
7. Ko‘chimov A. 3 jild. (Publitsistika) [Matn]: nasr / - T.: “Akademnashr”, 2021.

**PSIXOLOGIYA****O‘SMIRLARDA ALEKSITIMIYA NAMOYON BO‘LISHINING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****UO‘K 550.93**

**Muxlisa  
MUSTAFAYEVA**  
UrDU Pedagogika va  
psixologiya kafedrası  
o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** mazkur maqolada o‘smirlarning voyaga yetish jarayonida ro‘y beradigan psixologik xususiyatlari yoritib berilgan.

**Аннотация:** в данной статье описаны психологические особенности подростков в процессе взросления.

**Annotation:** this article describes the psychological characteristics of adolescents in the process of coming of age.

**Kalit so‘zlar:** o‘smirlar, voyaga yetish jarayoni, psixologik xususiyatlar, aleksitimiya.

**Ключевые слова:** подростки, процесс взросления, психологические особенности, алекситимия.

**Key words:** adolescents, maturation process, psychological characteristics, alexithymia.

Jahonda jamiyat taraqqiyoti aynan inson omili bilan belgilanishi, insonning rivojlanishi esa uning ruhiy barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ayni haqiqatdir. Yuksak informatsion texnologiyalar, globalizatsiya, integratsiya va innovatsiya asri bo‘lmish XXI asr inson omiliga e‘tiborning kuchayishi bilan ham tavsiflanadi. Zero, o‘z ruhiy kechinmalarini tushunish va boshqarish, yaqinlari bilan samimiy sog‘lom munosabatlarda bo‘lish, jamiyatda sodir bo‘luvchi ijtimoiylashuv jarayonini anglash orqaligina inson hissiy farovonlikka erishishi mumkin. Ayniqsa, o‘tish davrida o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan va bu davrda alohida e‘tiborni talab qiluvchi o‘smirlar psixologiyasi doimiy izlanishlar markazida bo‘ladi.

Misol uchun, statistikaga ko‘ra, respublikada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni 2018-yilda 938 tani, 2019-yilda 739 tani, 2020-yilning birinchi yarmida 338 tani tashkil etgan [5]. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarining aksariyati ularning ota-onadan ajralib chiqish jarayonida sodir bo‘ladi, ya‘ni o‘smirlarda mustaqil qaror qabul qilish jarayoni boshlangan davrda.

Shuning uchun ham o‘smirlik davrida his-tuyg‘ular, o‘zgaruvchan hissiy kechinmalar, emotsional holatni to‘g‘ri baholash va anglash g‘oyat muhimdir va dolzarb masaladir.

Internet tizimining turli xildagi tezkor axborotlar oqimi insonning psixologik olami va ruhiy kechinmalariga sezilarli ta‘sir o‘tkazmoqda. Bugun globalizatsiya va integratsiya muhitida shakllanayotgan jamiyat, eng avvalo, insonlardan, ya‘ni jamiyatning tarkibiy qismidan tezkor ijtimoiy adaptatsiyani, anglash va fikrlashni, his-tuyg‘ularni idrok qilish va boshqarishni, xususan, mustahkam ruhiy immunitetni talab qilmoqda. Aleksitimiya fenomeni ruhiy muvozanatning buzilishi ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, uning o‘smirlar psixologiyasida namoyon bo‘lishini o‘rganish, psixologik tadqiq qilish zamon talabi, dolzarb masala ekanligi aks etadi.

Ma‘lumki, tarbiya jarayonida har bir insonning individual xususiyatlari qanchalik aniq hisobga olinib yondashilsa, uning turmush darajasi yuqori bo‘lishi uchun zarur bilimlar, malaka va ko‘nikma, ma‘lumotlar bazasi bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, uning aqliy taraqqiyoti uchun yangidan yangi imkoniyatlar eshiklari ochiladi. Biroq bularning barchasi, eng avvalo, ruhiy salomatlik bilan chambarchas bog‘liqdir.

Psixologiyada aleksitimiya hodisasini o‘rganishning dolzarbligi inqiroz holatiga tushib qolishi mumkin bo‘lgan jamiyatda ruhiy salomatlikni saqlashning ijtimoiy ehtiyoji bilan ham belgilanadi.

O‘smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘rish oldinroq namoyon bo‘lmoqda. “Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas” – ayni shu ta‘rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi.

O‘smirlik o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qildilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma‘lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo‘li bilan ham osongina ko‘rish mumkin. O‘smirlik davri “o‘tish davri”, “krizis davri”, “qiyin davr” kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi [4].

Tadqiqotchi K.E.Igoshevning ta‘kidlashicha, “bolalar va o‘smirlar ayniqsa o‘smir va o‘spirinlar yosh va o‘tish davri xususiyatlari impulsivlik, qo‘zg‘aluvchanlik holatining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Impulsiv xatti-harakat birinchi navbatda o‘ziga xos affektiv kechinmalar (kuchli ruhiy ta‘sirga ega bo‘lgan voqea-hodisalar) tufayli yuzaga keladigan affektiv holatni ifodalaydi. Bunday holat mazmunida qisqa muddatli va kuchayib boruvchi emotsional hissiyotlar yotadi” [2].

Haqiqatdan ham o‘smirlik yoshi davrida kechadigan psixofiziologik o‘zgarishlar, o‘smirning shaxs sifatida shakllanish jarayoni muammoli vaziyatlarda ularning maqbul qarorlar qabul qilishlariga to‘sqinlik qiladi. Buning boisi bosh bosh miya yarim sharlari faoliyatidagi nazorat organlarining kattalarnikidan sustligi va ikkinchi signal sistemasining o‘ziga xos faoliyati bolalar va o‘smirlarda jinoyatchilik xulqining kelib chiqishiga individual-psixologik jihatdan shart-sharoit yaratadi.

Shuning uchun ham bu davrda o‘z hissiyotlarini to‘g‘ri anglash va to‘g‘ri baholash juda muhimdir. Tuyg‘ularini aniq tushunish orqaligina inson o‘zining ruhiy holatini anglaydi va o‘zgalarga yetkazib bera oladi. O‘smirlik davrida hissiyotlarning beqarorligi va tormozlanish reaksiyasining noturg‘unligi o‘smirning ruhiy muvozanati buzilishiga sabab bo‘lishi, shuningdek, aleksitimiya fenomenining psixologik ko‘rinishi ham bo‘lishi mumkin.

Aleksitimiya yunoncha  $\alpha$  – inkor, yo‘qlik, lexisis – “so‘z” va thymus – his-tuyg‘u, ya’ni his-tuyg‘ularni so‘z bilan ifodalay olmaslikni bildiradi. Demakki, ushbu atama mazmun-mohiyatiga ko‘ra o‘z his-tuyg‘ularini tushunishga qiynalish, anglamaslik bilan tavsiflanadi.

Bunda inson o‘zgalalar bilan muloqotda nafaqat so‘zlar balki imo-ishoralar, yuz ifodasi – umumiy qilib aytganda tana harakati orqali ham o‘z hissiyotlarini yetkazib bera olmaydi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, aleksitimiya – murakkab fenomendir. Turli davrlarda turli olimlar tomonidan ko‘p yillar davomida o‘rganib kelinayotganiga qaramasdan bu psixologik hodisa xususida aniq va yakuniy ilmiy konsepsiya haligacha mavjud emas.

Aleksitimiyaning o‘rganishning ikki asosiy yo‘nalishlari (klinik va psixologik) hozirga qadar konsepsiyaning o‘zi, shuningdek, uning tabiati, shakllanish va rivojlanish mexanizmlarini talqin qilish haqida umumiy nazariyalarni beradi. Bu mavzuni tadqiq qilgan turli mualliflar tomonidan ilgari surilgan farazlar va nazariyalarga ko‘ra aleksitimiya psixosomatik kasalliklarga sabab bo‘luvchi xavf omillaridan biri hisoblanadi.

Tuyg‘ularni og‘zaki tasvirlashda boshdan kechirilgan qiyinchilik tufayli sezgilarning zaifligi, vaqtida namoyon bo‘lmaydigan hissiy reaksiyalar aleksitimiyaning ko‘rinishi bo‘lsa-da, bu umuman befarqlikni anglatmaydi. Aleksitimik deb hisoblangan insonning ruhiy holatida kuchli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, lekin mental faoliyatida emas.

His-tuyg‘ular hamisha ham tushunarli bo‘lmasligi natijasida chiqish yo‘li bo‘lmagan hissiy kechinmalar bostiriladi va tanada vegetativ-transformatik reaksiyalar orqali ichki organlarga ta’sir qiladi. Bu esa psixosomatik kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy psixologik yondashuv bo'yicha aleksitimiya namoyon bo'lishining o'ziga xos psixologik xususiyatlari quyidagilar:

o'z his-tuyg'ulari va atrofdagilar his tuyg'ularini anglash va uning verbalizatsiyasidagi qiyinchiliklar;

his-tuyg'ular va tana hissiyotlarini farqlashda qiyinchilik;

ramziy fikrlash qobiliyatining pastligi (xayol surish, orzu qilish);

fikrlashning aniq mexanik funksional bo'lishi, nutq mazmuni faqat mantiq bilan bog'liq bo'lishi;

hissiyotlarni og'zaki ifodalashning past leksik darajasi;

shaxslararo munosabatda muloqotni o'rnatma olmaslik;

atrofidagi tashqi hodisalarga e'tiborni kuchli qaratish natijasida, doimiy havotir hissini sezish [1, 3].

Aleksitimik shaxslarda yuqoridagi belgilarning barchasi yoki ba'zi birlari ham namoyon bo'lishi mumkin.

O'smirlarda ba'zan aleksitimik xususiyatlar kuzatilishi va ulg'ayish mobaynida asta-sekin psixologik muvozanat muqobillashishi mumkin. Zero, bu davr garmonal to'qnashuvlar va o'zgaruvchanlik davridir. Ammo agar o'smirda aleksitimiya tashxisi qo'yilsa, ota-onalarga bu masalada mutaxassis bilan birgalikda maslahatlashgan holda keyingi qadamlarni belgilash zarur. Muammoga to'g'ri yondashmaslik natijasida o'smirda xavotir va agressiv xulq kuchayib ketishi mumkin. Shuningdek, o'smirlarning yosh davri xususiyatlariga xos bo'lgan quzgaluvchanlik, impulsivlik holatlari ham ularda affektiv kechinmalar bilan bog'liq bo'lgan emotsiyalarni uyg'otadi. Mana shunday vaziyatlarda o'smir o'z tuyg'ularini aniq tahlil qilishi va boshqarishi, baholashi juda muhim. Aleksitimik o'smirlarda esa mana shu psixologik xususiyat bo'lmaydi. Ammo bu ularning mental fikrlashiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Aleksitimiya – bu aniqlikni talab qiladigan maxsus psixologik holat va u aniq yo'naltirilgan tashhisni ya'ni psixodiagnostikani talab qiladi. Hozirgi vaqtda Shelling-Sifneos shkalasi, Kristal va hammualiflari so'rovnomalari xorijiy davlatlarda keng qo'llanib kelinmoqda. Ayniqsa G.Teylor va hammualiflari tomonidan yaratilgan Toronto aleksitimik shkalasi – diagnostik tahlilda eng ko'p ishlatiladigan so'rovnoma hisoblanadi. Toronto aleksitimik shkalasi V.M.Bexterev nomidagi Psixonevrologik instituti olimlari va Sankt-Peterburg Tibbiyot akademiyasi ilmiy xodimlarining hamkorligida tarjima qilib moslashtirilgan va validlik bo'yicha tekshiruvdan o'tkazilgan.

O'smirlarda aleksitimiya namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini aniqlash uchun Bexterev nomidagi Psixiatriya ilmiy-tadqiqot institutida moslashtirilgan "Toronto aleksitimik shkalasi", A.Megrabyanning "Emotsional xayrixohlik" metodikasi, S.D.Spilberger – Y.L.Xaninning "Xavotirlanish darajasini aniqlash" metodikasi shuningdek, sotsiologik so'rovnoma va "Mini-



insho”, Shmishekning “Xarakter aksentuatsiyasi” so‘rovnomasidan foydalangan holda psixodiagnostik model tuzish mumkin va olingan natijalarga ko‘ra psixokorreksion yoki rivojlantiruvchi trening dasturini yaratib, amaliyotga tatbiq qilish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Былкина, Н. Д. Алекситимия (Аналитический обзор зарубежных исследований) / Н. Д. Былкина // Вестник Московского университета. Сер. 14, Психология. – 1995. – № 1. – С. 43–53.
2. Игошев К.Е. Опыт социально-психологического анализа личности несовершеннолетних правонарушителей. М.1967. с 67-68.
3. Искусных А.Ю. Алекситимия. Причины и риски возникновения расстройства. Текст научной статьи по специальности «Психологические науки». <https://cyberleninka.ru>
4. Z.T.Nishanova, N.G'.Kamilova, D.U. Abdullayeva , M.X. Xolnazarova “Rivojlanish psixologiyasi”. Darslik. TOSHKENT-2019. 241-b.
5. <https://kun.uz/uz/news/2020/11/02/ular-jinoyat-sodir-etmasligi-mumkin-ediosmirlar-jinoyati-sabab-va-yechimlar?ysclid=llcf0tiojl733920878>

**PSIXOLOGIYA****RAHBARLARDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISHNING  
O‘RGANILISHI TARIXI****UO‘K 550.90**

**Sanjarbek  
ISMOILOV**  
UrDU tayanch  
doktoranti



**Shahrizoda  
Iskandarova**  
UrDU magistranti

***Annotatsiya:** ushbu maqolada tarixdagi jarayonlardan kelib vjiqqan holda, rahbarlarda emotsional zo‘riqishning sabab va oqibatlari tahlil etilgan.*

***Аннотация:** в данной статье анализируются причины и последствия эмоционального стресса у лидеров на основе исторических процессов.*

***Annotation:** this article analyzes the causes and consequences of emotional stress in leaders based on historical processes..*

***Kalit so‘zlar:** tarix, jarayon, rahbar, emotsiya.*

***Ключевые слова:** история, процесс, лидер, эмоция.*

***Key words:** history, process, leader, emotion.*

Bugungi kun jamiyat rivojlanishda rahbarlarning o‘rni katta. Ular maqsad qo‘yuvchi va belgilangan maqsadni amalga oshirishda yo‘l ko‘rsatuvchi, boshqaruvchi, adolatni qaror toptiruvchi insonlar hisoblanishadi. Faoliyatlari davomida ular deyarli har kuni stressli holatlarni boshdan kechirishadi. Ushbu stressli holatlarning davomli bo‘lishi esa ularni emotsional toliqish holatiga olib keladi. Inson paydo bo‘lganki, doimo qandaydir bir faoliyat turi bilan mashg‘ul bo‘lgan. Faoliyat yashashning asosiy sharti hisoblanadi.

Insonlarning yashashi va faoliyat olib borishi davomida barcha davr odamlari o‘z davriga xos bo‘lgan stressli holatlarni boshdan kechirgan. Emotsional toliqish holati barcha davr odamlari uchun hos bo‘lgan.

Qadimgi davrda, O‘rta asrlarda XIX va XX asrlar va hozirda ham insonlar har kuni stressli holatlarni boshdan kechiradilar. Qadimki davrda xavfli hayvonlar, O‘rta asrlarda qullik tizimi, ochlik va urushlar turli darajadigi stresslarga sabab bo‘lgan. XIX-XX asrlarda kapitalizm davri, hamma foyda uchun harakat qilgan, turli xil urushlar, uzoq davom qiladigan ish kuni, nosog‘lom turmush tarzi, ko‘chalarda yurushning xavfi turli xil stresslarga sabab bo‘lgan.

Hozirga davr uchun esa stress sabablari oldingi davrga qaraganda ko‘proq hisoblanadi.

Muammo bor joyda, unga javob izlovchi uni tushuntirishga va hal qilishga harakat qiladigan o‘z davrining olimlari ham mavjud bo‘ladi. Emotsional toliqish haqida ham Qadimgi davr, O‘rta asrlar, Renesans davri, XIX asr va hozirgi davr olimlarining o‘z qarashlari mavjud.

Toliqish haqidagi dastlabki ma’lumotlar miloddan avvalgi V asrga borib taqaladi. O‘sha davrda o‘z davrining buyuk faylasuflaridan biri bo‘lgan Galen toliqish haqidagi o‘z qarashlarini, Gippokratning tanadagi gumaral nazariyasi, ya’ni tanadagi suyuqliklar miqdoriga qarab tushuntirishga harakat qilgan. Uning fikriga ko‘ra, agar inson tanasida qora o‘tning miqdori oshib ketsa, toliqishning belgilari namoyon bo‘lishni boshlaydi. Masalan, energiya yetishmovchiligi, bo‘shashish, lanjlik. Aynan qora o‘t va toliqish o‘rtasida bog‘liqlik mavjuddir. Ammo sanoat kabi ayrim og‘ir faoliyatlar bilan shug‘ullanuvchi insonlarda melanxoliyaga moyillik rivojlanar ekan. Bundan tashqari, Galenning fikriga ko‘ra, toliqish, individning o‘ziga ham bog‘liq ekan, ya’ni uning xulq-atvoriga, masalan, noto‘g‘ri ovqatlanish, haddan tashqari ko‘p jinsiy munosabatlar va kuchli xavotirlar [4].

O‘rta asrlarga kelib, toliqishning kelib chiqish sabablarini tushuntirishda tibbiy nuqtai nazardan emas, balki cherkov va diniy tarafdin tushuntirishga harakat qilingan. “Yalqovlik” deb nomlangan charchoq, kuch sarflaydigan gunohkor ishlarda qatnashishdan yoki Xudoga qiziqish va u yaratgan ilohiy yaxshilikdan qochishdan, beparvo munosabatlarga bo‘ysunishdan kelib chiqqan deb qaraladi. Ushbu yondashuvda masalani yechimi juda oddiy bo‘lgan: Xudoga va ishiga ishonchni oshirish [4].

Renessans davriga kelib toliqishni tushuntirib berishda astronomik bilimlardan foydalanila boshlangan. Aynan Saturn sayyorasining qandaydir bir holatda joylashishi toliqishga sabab bo‘ladi deb qaralgan. XV asr o‘rtalaridan boshlab toliqishni tushuntirib berishda yana tibbiyot nazariyalari yetakchilikni qo‘lga olgan. Jorj Biedr nevroasteniyani diagnoz qilishni ishlab chiqqan. U holsizlikka sabab qilib “zaif asablar” va nerv sistemasida energiya darajasining kamayishini ko‘rsatadi va individual charchoq, tashvishlanish va hattoki aqliy buzlishlarga sabab bo‘ladi, deb aytib o‘tgan. [5]

Shu vaqtning o‘zidayoq asablarning inson energiyasini jamlovchisi ekanligi haqidagi noto‘g‘ri g‘oya isbotlab berilgan. XIX asr “biznikiga o‘xshash asr bo‘lgan, chunki toliqishning asosiy sababi qilib zamonaviylashish ko‘rsatilgan”, – deb Schaffner aytib o‘tgan. Chunki sen juda ko‘p odamlar bilan bahslashishing mumkin, shahar hayoti insonlarning energiya manbasining

qurishiga sabab bo‘lishi mumkin. Yorug‘lik, telegraf, bug‘ mashinasi kabi yangi kashfiyotlar va shovqin-suron toliqishning asosiy sababi qilib ko‘rsatiladi [4].

Bundan tashqari, elektrning kashf qilinishi, insonlarning kechasi ham ishlashiga imkoniyat yaratib bergan va ular kechasi ham ishlay boshlaganlar. Kapitalistik fikrlovchi odamlar ko‘proq daromad olishda kechalari ham ish faoliyatlarini olib borganlar. Ammo XIX asr ishchilarida toliqish bo‘lganida ular bu ma’noga taalluqli bo‘lmagan. Ibora keyingi asrda kashf qilingan.

Sharq allomalaridan Abu Ali ibn Sino ham ruhiy salomatlik haqida o‘z qarashlarini bildirib o‘tganlar. Ular inson xulq-atvorini uning mijoziga qarab tushuntirib berishga harakat qilgan. Ibn Sino mijoz haqida shunday deydi: “Unsurlarning eng mayda bo‘laklaridagi qarama-qarshi kayfiyatlarining bir-biriga ta’siri ma’lum bir chegaraga yetgan paytda paydo bo‘ladigan kayfiyat mijoz deyiladi. Ibn Sino kasalliklarni ko‘plab omillar bilan bog‘lab tushuntirib beradi. Bular orasida mijoz, fasllar, tashqi muhit, ovqatlanish, turar joy ham bor [6].

1970-yillarda, german-amerika psixologi Gerbert J.Freudenberg Nyu-York shahridagi Marl’s Free Klinik nomli qishloq tibbiyot birlashmasida ishlab yurgan. O‘sha paytda bir mahallada doridan foydalanish keng tarqalgan. Insonlar bilan suhbatlar olib borgan va doriga ruju qo‘ygan, uysiz insonlardan holsizlik va emotsional pasayishni ko‘rgan. U o‘zining 1974-yilda chiqargan kitobida ushbu hodisani “burnout” deb atagan [3]. Ko‘pchilik tarixchilar, sotsiologlar toliqish sindromining rivojlanishini zamonaviylashish bilan bog‘laydilar. Ular toliqishning rivojlanishiga sabab qilib, urbanizatsiya, industrializatsiya, buyrokratizm va akseleratsiyani sabab qilib ko‘rsatadilar. Texnologiyalar, xizmatlar, kommunikatsiyaning rivojlanishi toliqishning generatorlari deb qaraladi. E.D.Xomskaya va N.Y.Batovalar tomonidan yaratilgan “miya va emotsiya” nomli kitobda emotsiyalarning muhim xususiyatlaridan biri bu ularning ularning bilish jarayonlari bilan bog‘liqligi deb aytib o‘tgan. Emotsiyalarning kognitiv jarayonlarga ta’siri idrok qilish jarayonlarida o‘z aksini topadi. Verbal yoki noverbal, ijobiy yoki salbiy tUSDagi materialni idrok qilish xususiyatlari sinaluvchining emotsional holatiga bog‘liq [2].

Bugungi kunda ko‘pchilik emotsional toliqish bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar Kristina Maslah va Suzan Jeksonlarning uch komponentli nazariyasiga asoslanadi. Bular: emotsional toliqish, depersonalizatsiya va o‘zi haqida negativ fikrlash hisoblanadi. “Burnout”ning oldini olish bo‘yicha Kristina Maslah tomonidan ikkita yondashuv taklif qilingan. Birinchi yondashuvda, diqqat shaxs va vaziyat bir biriga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligiga e’tibor qaratiladi. Bu yerda shaxsdan toliqishni kamaytirish uchun ba’zi bir moslashishlar talab qilinayotgan bo‘lishi mumkin. Ikkinchi yondashuvda shunday deyiladi: agar shaxsda o‘zi duch kelgan vaziyatni yaxshi tushunsa va unda qaror qabul qilishga imkoniyat bo‘lsa, ular kamroq “burnout” holatiga tushadilar.

Arnold Bakker va Yevangaliya Demerotilar 2006-yilda “Ish talablari nazariya”sini ishlab chiqqanlar. Ular ish sharoitlarini ikki kategoriyaga bo‘ladilar.

1. Ish talablari – roldagi fiziologik va emotsional stressorlar. Bular bo‘lishi mumkin: vaqt bosimi, og‘ir yuklamalar, stressli ish sharoiti, aloqalarning yomonligi.

2. Ish resurslari – xodimning o‘z maqsadlariga yetishga va stresslarni qisqartirishga xizmat qiladigan resurslar. Bular: avtonomiya, kuchli ish aloqalari, rivojlanish uchun imkoniyatlar, ish o‘rgatish, o‘rganish va rivojlanish [4]. Ushbu nazariyani tushunishga quyida keltirilgan misol va surat yordam beradi. Misol: Indira juda yuqori bosimli ishda ishlaydi, ammo bunga qaramasdan u juda kamdan kam holatlarda stressga tushadi. Sababi uning boshlig‘i va tashkiloti uni juda yuqori darajada qo‘llab-quvvatlaydilar. Qulay ish sharoiti, konstruktiv munosabatlar va rivojlanish imkoniyatlari mavjud. Indiraning ishi, ish resurslari va talablari nazariyasiga misol bo‘la oladi [4]. Nazariyaga ko‘ra bir-biriga ta’sir qiluvchi ikkita omil asos qilib olinadi. Bular resurs va talab hisoblanadi. Agar xodimning ish joyida u foydalanishi mumkin bo‘lgan resurs ko‘p bo‘lsa, unda emotsional toliqish holati past bo‘ladi, hattoki ishda u bajaradigan ishlar ko‘p kuch va energiya talab qilsa ham. Agar resurs kam bo‘lsa ularda oddiygina masalalarda ham zo‘riqish, toliqish yuqori bo‘lishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

##### **I. Qonun va boshqa huquqiy hujjatlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli Farmoni 2020-yil 6-noyabr.

##### **II. Prezident asarlari, matbuot chiqishlari va ma’ruzalari.**

3. Sh.Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.2017

##### **III. Asosiy adabiyotlar.**

4. Горбушина О. П. Психологический тренинг Секреты проведения “Питер” М.: 2008 ).
5. Г.Ф.Кумарина, М.Э.Вайнер, Ю.Н.Вьюнкова. Коррекционная педагогика в начальном образовании. Учеб. пособие для студ. сред. учеб. заведений/-М.: Академия, 2001.- 320 с.
6. Ivanov P.I, Zufarova M.E “Umumiy psixologiya” T.2008. 480 b
7. Petrovskiy. Umumiy psixologiya”.349

##### **IV. Xorijiy manbalar**

8. Daniel Goleman “Emotional Intelligence”. Bloomsburry publication. 2009.Great Breaten.
9. David H.Barlow “Principles and practice of stress management”. The Guilford press, new York.
10. Kristin NeFF “The stress proof brain”. Neq Harbinger Publication. Canada

##### **V. Internet manbalari**

11. [www.psychologytoday.com](http://www.psychologytoday.com)
12. [www.healthline.com](http://www.healthline.com)

**PSIXOLOGIYA****RAHBAR FAOLIYATIDA FOYDALANADIGAN KOPING STRATEGIYALAR NAMOYON BO‘LISHINING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI****UO‘K 550.80**

**Yunusbek  
JUMANIYOZOV**  
UrDU o‘qituvchisi



**Og‘abek  
SOLAEV**  
UrDU o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada rahbar salohiyatining shakllanishi va namoyon bo‘lishining nazariy metodologik asoslari yoritilgan.

**Аннотация:** в данной статье описаны теоретические и методологические основы формирования и проявления лидерского потенциала.

**Annotation:** this article describes the theoretical and methodological foundations of the formation and manifestation of leadership potential.

**Kalit so‘zlar:** koping xulq-atvor, koping strategiya, yenga olish, himoya mexanizmi, “ikki omil” nazariyasi, “enga olish xulq-atvori.

**Ключевые слова:** копинг-поведение, копинг-стратегия, копинг, защитный механизм, «двухфакторная» теория, «копинг-поведение».

**Key words:** coping behavior, coping strategy, coping, defense mechanism, "two-factor" theory, "coping behavior.

Rahbarlik faoliyati shaxsning shakllanishi yo‘lidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davr rahbar insonning o‘z-o‘zini anglash, baholash davri hisoblanadi. Shunga ko‘ra, rahbarlarni o‘qitish va rivojlantirishning etarli usullarini tanlash masalasi juda muhimdir. Bugungi kunda eng muhim muammo psixologik ta’sirning yangi shakllarini topishdir, tarbiyalash jarayonini faollashtirish va ularning rivojlanishini tahlil qilish yo‘llarni belgilashdir<sup>1</sup>

<sup>1</sup> M.R.Xalilova “Yosh va pedagogik psixologiya” Navoiy-2005 y

Rahbarlarning ziddiyatli xatti-harakati muammosi quyidagi pedagoglar va psixologlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, bu tadqiqotchilar safiga V. A. Andreeva, S. A. Belicheva, A. S. Belkina, L. I. Bozhovich, E. M. Gilyarova, I.V. Grishina, Ya.A. Lupyan, A. V. Mudrik, T. P. Chistyakova, N. E. Shurkovalarni qo'shish mumkin.

Ushbu olimlar rahbarlarning ziddiyatli xatti-harakatlari uning atrofidagi muhitga va o'ziga bo'lgan munosabatiga ta'sir qiladi degan fikrni ilgari surishgan. Bunday qarashdagi fikrlar P. P. Blonskiy, A.A. Bodalev, L. Vygotskiy, A.V. Petrovskiy, Suxomlinskiy va boshqa olimlarning izlanishlarida hamda asarlarida o'z aksini topgan. Ularning tadqiqotlarida va asarlarida rahbarlik faoliyatida o'tkir ijtimoiy nizolarning paydo bo'lishiga olib keladigan ijtimoiy-psixologik hodisalarga alohida e'tibor qaratiladi.<sup>1</sup>

Ma'lumki, Hayot davomida, yoshidan qat'iy nazar, inson muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Bu qiyinchiliklar ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi vaziyatlar bilangina bog'liq emas. Shunday vaziyatlarni bartaraf etish uchun insonga koping strategiyalar, sharoitlar yaratish haqidagi g'oyalar kerak.

Yuqorida aytilganlarning barchasi biz uchun katta yoshdagi rahbarlardagi shaxslararo munosabatlar, koping strategiyalari va asabiylik holatlarini o'rganish muammosining dolzarbligini anglatadi.

Ayrim insonlardagi rahbarlik davrining boshlanishi, ya'ni biror tashkilotga rahbar bo'lib tayinlanishi, bir qator o'ziga xos xususiyatlarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ya'ni ularning eng muhimi yaqinlar bilan erkin muloqot qilish istagi va o'z mustaqilligini, shaxsiy avtonomiyasini tasdiqlash istagini ko'rsatadigan belgilarning xatti-harakatlarida paydo bo'lishdir.<sup>2</sup>

Rahbarlarda bu o'zgarishlar turli vaqtlarda sodir bo'ladi: Ba'zi rahbarlar tezroq o'z sohasidagi muhitga ko'nikadi yoki muhitni o'zgartirishga harakat qiladi. Rahbarning bu harakati esa idora va tashkilotdagi xodimlarga, bu esa ish unumdorligiga turlicha ta'sir qiladi.

Ayrim hollarda yaxshi rahbar bo'lish istagi, idealga intilish, ustozlarning maslahati, madaniyatlilik bilan buni amalga oshirish istagi idora, tashkilotdagi ijobiy muhit va ish unumdorligi o'sishiga yordam bersa buning aksi esa, rahbar tajribasining yetishmasligi bilan xarakterlanadi.<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup>Z.A.Zaripova "Konfliktologiya" o'quv qo'llanma Toshkent 2013

<sup>2</sup>Leyn D. "Psixologiya detey i podrostkov". Sankt-Peterburg: Sfera, 2014. 381 S.

<sup>3</sup>Qazan V G "podrostkovyy vozrast i trudnosti vzrosleniya". Sankt-Peterburg: Piter, 2016. 297 P. L.

Rahbarlik davrida mehnat faoliyatining murakkablashishi, ularning yangi jamoada tutgan o'rnidan ko'p narsa talab qiladi. Rahbarlarning faoliyatida, ularning ish uslubi jamiyatda tutgan mavqeyining o'zgarishiga ham olib keladi.<sup>1</sup>

Aslida inson tabiati va siyratidagi yetakchilik qobiliyati birdaniga paydo bo'lib qolmaydi va bu yosh bilan, bilim olish, tajribasini o'stirish hamda tinimsiz izlanishlar bilan bog'liq. Ma'lumki, Inson 18 yoshida balog'at yoshiga yetadi. Ba'zi insonlarda. organizmning o'sishi to'xtaydi, va "tinch" davr boshlanadi. Ayrim hollarda ba'zi insonlarda to'qimalarining takomillashishi nihoyasiga etadi. Jismoniy rivojlanish shaxsning ba'zi bir xususiyatlarini va bundan keyingi hayotiy faoliyatini belgilashga ham ta'sir ko'rsatadi<sup>2</sup>.

Bu davrda ularning nerv tizimi rivojlanadi va katta kishilarning miya po'stlog'i xususiyatiga asta-sekin yaqinlashadi<sup>3</sup>. Bosh miya po'stlog'ining atroflarida nerv bog'lanishlarining soni ko'payadi. O'qish va mehnat qilish natijasida bosh miya yarim sharlarida analitik va sintetik faoliyat rivojlanadi. Bu holat tashqi ta'sirni aniq ajrata oladigan xususiyatni o'stiradi. Farq qilish xarakteridagi tormozlanish vujudga keltiradi.

Bu davrga kelib o'qish mashg'ulotlari ancha murakkablashadi: bir qator yangi fanlar o'qitila boshlaydi, dars mazmuni kengayadi, murakkablashadi, bilim, hayot, amaliy ishlar qo'shib olib boriladi, kishilar ishlab chiqarish jamoasida bo'ladi, ekskursiyalarga, ko'rsatmalikka, alohida e'tibor beriladi.

Bu davrda bilimlar, amaliy ishlar bilan qo'shib o'rganiladi. Insonning, ayniqsa rahbarning hayotiy tajribasi, kasbiy ko'nikmasi va o'z davri uchun zamonaviy bo'lgan bilimlarga ega bo'lmasa, ular shoshma-shosharlikka yo'l qo'yadilar va natijada hodisalar haqida noto'g'ri fikr yuritib, noto'g'ri xulosalar chiqaradilar.

V.A. Krutetskiy, I.N. Lukin yoshi katta kishilarining bilim egallashidagi aqliy individual faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida to'xtalib, bu borada kishilarni asosan 4 guruhga bo'ladi.

1) Yuqori darajada o'zlashtiruvchi kishilar. Bular bilim olishda mustaqillik, tashabbuskorlik ko'rsatmaydilar. O'quv manbasini darslikdan yodlab oladilar va faqatgina o'qituvchi so'rab qolganda javob berish uchungina o'rganadilar. Agar mashg'ulot "qiyin" bo'lsa, uni butunlay o'rganmaydilar. Bu guruh kishilarining ba'zilar oliy ta'limgacha a'lochi bo'lib kelib, keyingi jarayonlarda og'ir ahvolga tushib qoladi va bunday kishilar bilan ko'proq individual ish olib borish lozim.

2) O'qish faoliyatida amaliy qobiliyatlari borligi sezilib turadigan kishilar bo'lib, qiyin masalani o'rganishga, uni amalda sinab ko'rishga harakat qiladilar.

<sup>1</sup> Alport G. "Formirovaniye lichnosti: izbrannyye raboty". M.: Smysl, 2012. 361 P. L.

<sup>2</sup> Feldshcheyn D. I. "Psixologicheskiye osobennosti razvitiya lichnosti V podrostkovom vozraste // voprosy psixologii". 2016. № 6. P. 26-3

<sup>3</sup>Rivojlanishpsixologiyasi.PedagogikpsixologiyaD.Saliyeva, D.Yo'lichiboyevaQo'qon-2020



Ularga xar-xil dars usullaridan foydalanib amaliyotda nazariy bilimning ahamiyati katta ekanligini tushuntirish kerak.

3) Bu guruhdagi kishilar nazariyaga juda ham berilib, amaliy ishlarga ahamiyat bermaydilar. Ular ko‘p fikr yuritadi. Lekin o‘z fikrlarini amalda sinab ko‘rishdan cho‘chishadi. Ularning fikrlashlarida umumlashtirish, abstraksiya qilish ustun turadi, shunga qaramay konkretlashtirish xususiyati past darajada bo‘ladi.

Ular yaxshi gapiradi, isbotlab beradi, yakunlar yasaydi, aqliy faoliyat bilan ko‘proq shug‘ullanadi, o‘z bilimini mustaqil kengaytirishga harakat qiladi, lekin nazariyani amaliyot bilan bog‘lay olmaydi.

4) Bu guruhga mansub kishilar o‘qish faoliyatida nazariya bilan amaliyotni birga qo‘shib olib boradilar. Ularning bilimi keng bo‘ladi, ular fikr yuritishini, tatbiq qilishni biladi, jamoat ishida faoldir. .

Katta yoshida shaxsning ma’naviy kuchlari intensiv rivojlanadi, uning ma’naviy qiyofasi tarkib topadi, xarakter xislatlari aniq bo‘ladi, dunyoqarashi shakllanadi.

Katta yoshida shaxsning rivojlanishiga uning ishda, oilada, ijtimoiy munosabatlar tizimda tutayotgan mavqeining o‘zgarishi hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi.<sup>1</sup>

Hayotni, ayrim soha rahbarlari faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, rahbar bo‘lish uchun mutaxassislik ma’lumoti, tajriba, keng dunyoqarash va inson tabiatidagi adolatparvarlik katta rol o‘ynaydi. Tabiiyki bu xislatlar vaqt va yoshga qarab shakllanib boradigan jarayondir.

---

<sup>1</sup>Dragunova T.V “Problema konflikta v podrostkovom vozraste ” // voprosy psixologii. 2016.№2. S. 21-26

**PEDAGOGIKA****OILADA BOLA TARBIYASINI BOSHLASHNING  
IJTIMOIY OMILLARI****UO‘K 540.70**

**Shahzoda  
ISMOILOVA**  
UrIU o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusufning “Ruhiy tarbiya” asaridan bola tarbiyasining boshlanishi, bolani tarbiyalash usullari va vositalari haqidagi fikrlari hamda buyuk allomalarimizning g‘oyalari o‘rganilgan.

**Аннотация:** в статье труд шейха Мухаммада Садика Мухаммада Юсуфа «Духовное воспитание» рассматривает начало воспитания детей, методы и средства воспитания детей, а также идеи наших великих ученых.

**Annotation:** in this article, Sheikh Muhammad Sadiq Muhammad Yusuf's work "Spiritual Education" examines the beginning of child education, the methods and means of child education, and the ideas of our great scholars.

**Kalit so‘zlar:** shaxs, murabbiy, ota-ona, farzand, ta’lim, tarbiya, ilm, bilim, donolik, axloq-odob, dangasa, badantarbiya, fazilat, kuch-qudrat, o‘yin, islom dini, tarixiy-badiiy, ilmiy, millat, ma’naviyat, konsepsiya, qonun, qoida.

**Ключевые слова:** человек, тренер, родитель, ребенок, образование, обучение, наука, знание, мудрость, мораль, ленивый, физическое воспитание, добродетель, сила, игра, исламская религия, историко-художественный, научный, нация, духовность, концепция, закон. Правило.

**Key words:** person, coach, parent, child, education, training, science, knowledge, wisdom, morals, lazy, physical education, virtue, strength, game, Islamic religion, historical-artistic, scientific, nation, spirituality, concept, law, rule.

Har bir millatning o‘z ma’naviy qiyofasi mavjud. Tarbiyamizni, ma’naviyatimizni yanada yuksaltirishda esa millatimizning tarixi, ma’naviy qiyofasini o‘zida badiiy aks ettirgan tarixiy badiiy va ilmiy asarlarning, hamda buyuk allomalarimizning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Barkamol shaxsni tarbiyalash borasida allomalarimiz bir qancha takrorlanmas fikrlarini aytib o‘tishgan. Jumladan, **Forobiy** bilimidan ma’rifatli yetuk odamning obrazini

tasvirlar ekan, bunday deydi: “Har kimki ilm hikmatni o‘rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo‘lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin”.

**Yusuf Xos Hojib**ning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i kerak. Buning uchun u tug‘ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog‘i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o‘zlariga xos xususiyatiga e‘tibor berishni ta‘kidlaydi. **Alisher Navoiy** bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e‘tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘lishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir-birlariga bo‘lgan ruhiy-ma‘naviy ta‘sirlari natijasida tarkib topadi, deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi.

Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasini tug‘ilmasdan, ona qornidalik paytidan boshlash kerakligi haqida uqtirgan.

Tarbiya dinimizda ham vojib amal, deb e‘lon qilingan. Biz eng ko‘p ishlatadigan tarbiya, murabbiy so‘zlari Allohning “Rob” ismi bilan bitta o‘zakdan olingani tarbiyachilar mas‘uliyatini oshirsa kerak, deb o‘ylayman. Demak, bu yengil ish emas. Tarbiya – faqat ta‘sir, tartib yoki nazorat, taftish emas, u ilohiy narsa. Tarbiya farzandni doim nazoratga olish, kuzatib borish degani, chunki ota-ona va murabbiy bolaning tarbiyasiga birdek mas‘uldir. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlar diniy boshqarmasining muftiysi islom ulamolari, millatlararo ittifoqining a‘zosi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf bola tarbiyasi, bola tarbiyasining boshlanishi haqidagi fikrlarini “Ruhiy tarbiya” asarida bildirib o‘tgan. “Bola ota-onasi huzuridagi omonat bo‘lib, uning qalbi pokiza gavhardir. U har qanday naqshni qabul qilaveradi. Agar yaxshillika o‘rgatilsa, o‘shanday o‘sadi. Uning savobiga ota-onasi va murabbiysi sherik bo‘ladilar. Agar yomonlikka o‘rgatilsa, o‘shanday o‘sadi. Uning gunohi vasiyga bo‘ladi. Bolada paydo bo‘ladigan sifatlarning avvalgisi taomga o‘chlik bo‘ladi. Shuning uchun ota-ona unga ovqatlanish odoblarini o‘rgatsin. Ota-ona bolasiga ko‘p ovqat yeyishning yomonligini singdiradi. Ko‘p ovqat yeyish hayvonlar ishi ekanini tushuntiradi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf bolani kichikligidan, umrining avvalgi kunlaridan ehtiyotkorlik bilan kuzatib borishi kerakligini takidlab o‘tadi. Hatto kiyinish borasida ham o‘g‘il bolalar oq rangli kiyimlar kiyishi yaxshi ekani, rangdor va ipak kiyimlar ayollarga xosligi

tushuntiriladi. Kunduzi va bevaqt uxlashga bolani odatlantirmaslik kerak. Bunda u dangasalikka o‘rganib qoladi. Kechasi uxlash man qilinmaydi. Ammo yotar joyi yumshoq qilinmaydi. Bola dangasa bo‘lib qolmasligi uchun piyoda yurishga, ko‘p harakat qilishga va badantarbiyaga odatlantirish kabi fikrlar ilgari surilgan. Bolaning o‘ziga o‘xshagan bolalarning narsasini tortib olishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Unga birovning narsasini olish pastkashlik ekani uqtiriladi. Bolaga tilla va kumushga muhabbat qo‘yish yomonligini tushuntirish lozim. Bolaga o‘tirgan joyida tuflamaslik, burun tozalamaslik, birovning oldida esnemaslik, bir oyog‘ining ustiga ikkinchisini qo‘ymaslik va ko‘p gapirmaslik kabilar ta‘lim beriladi. Bolaga kam gap bo‘lish, boshqalarning gapini diqqat bilan tinglash, o‘zidan kattalarni hurmat qilish, ular kelganda o‘rnidan turib kutib olish va odob bilan o‘tirish kabi narsalar o‘rgatiladi. Bolani uyat so‘zlarni gapirishdan va uyat so‘zlarni gapiradiganlarga qo‘shilishdan man qilinadi. Zotan, bolani muhofaza qilish uni yomon ulfatlardan saqlashdan iboratdir. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf bolani maktab yoshiga yetgan vaqtda tarbiyalash usullarini ko‘rsatib o‘tgan. Jumladan, bola maktabdan qaytib kelgandan keyin chiroyli o‘yinlar o‘ynashga sharoit yaratib berish kerak. Bu ila u o‘qishdagi charchog‘ini yozadi. Bola ota-onasiga va ustoziga itoat qilishga odatlantirish zarurligi haqida ham to‘xtalib o‘tgan.

Sahl ibn Abdulloh quyidagilarni aytadi: “Chamasi uch yoshli bola edim. Kechasi uyg‘onib, tog‘am Muhammad ibn Sirovning namoz o‘qishiga nazar solib turar edim. Bir kuni tog‘am menga: “Seni yaratgan Allohni zikr qilasanmi?”, – dedi.

“Uni qanday zikr qilaman?”, – dedim.

“Tilingni qimirlatmasdan, qalbingda uch marta “Alloh men bilan, Alloh menga nazar solib turibdi, Alloh mening guvohim”, degin”, – dedi.

Men u so‘zlarni bir necha kecha aytdim va tog‘amga xabarini berdim. U menga:

“Endi ularni har kecha o‘n bir martadan ayt”, – dedi. Men uni ham qildim. Bir muddat so‘ng qalbimda uning halovatini sezdim. Bir muddat o‘tgach, tog‘am menga:

“Men senga o‘rgatgan narsani yodlab olgin-da, to qabrga kirguningcha uni davom ettir”, – dedi.

Men u ishni yillar davomida uzluksiz qilib yurdim. Ularning halovatini ichimda topdim.

So‘ngra tog‘am menga: “Ey Sahl! Alloh u bilan birga bo‘lgan, unga nazar solib turgan va uning ustidan guvoh bo‘lgan odam U zotga osiy bo‘ladimi? Ma’siyatdan hazir bo‘l”, – dedi.

Keyin maktabga borib, olti-yetti yoshimda Qur’onni yod oldim. So‘ngra nafl ro‘zani ko‘p tutadigan bo‘ldim. Yeydigan taomim arpa noni bo‘ldi. Undan

keyin kechalarni bedor bo‘lib, ibodat-la o‘tkazadigan bo‘ldim”. Sahl ibn Abdullohdan keltirilgan bu qissa bolaning tarbiyasiga, xususan ruhiy tarbiyasiga kichikligidan ahamiyat berish uning yaxshi odam bo‘lib yetishishida qanchalik muhim ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Demak, xulosa qilib aytganda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ijodiy merosi ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya g‘oyasining targ‘ibotchisidir. Uning “Ruhiy tarbiya” asarlarida ilgari surilgan ta‘lim-tarbiyaga oid fikrlari milliy ma‘naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu ulug‘ adib ijodi bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi desak adashmaymiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Shavkat Mirziyoyev “Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish-xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”. “Xalq so‘zi”, 2017-yil 4-oktabr.

2. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ruhiy tarbiya” – Poklanish kitobi T.: “Hilol Nashr” 2023. 480-b.

3. Shayx Ahmad ibn Yusuf Abdudoim al-Halabiy. “Umdatul xuffoz”. Maktabul alom val buhus van nashr, Bang‘azi, Liviya. 1-nashr. 1995.

4. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Tafsiri Hilol” “Sharq” nashriyoti, Toshkent. 2012.

5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf “Ijtimoiy odoblar” T.: “Hilol Nashr” 2012

6. Internet saytlari. [http //www.bukhari.uz/](http://www.bukhari.uz/).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

# INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

11 (6)  
2023-yil, dekabr.

Bosh muharrir: M.Eshmurodov  
Mas’ul kotib: U.Bekimmetov  
Musahhih: J.Sobirov  
Texnik muharrir: M.Kuranbayev  
Navbatchi: M.Kuranbayev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirish vaqti: 14:00. Topshirildi: 14:00.

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 5,5 b.t. Buyurtma №0007.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

---

Urganch innovatsion universiteti  
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,  
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.  
Tel: (+998) 90-436-20-22